



SOBIROV ZUHRIDDIN
NAJMIDDIN O'G'LI
DINSHUNOSLIK
Uslubiy qo'llanma

ORIENTAL UNIVERSITETI

**SOBIROV ZUHRIDDIN
NAJMIDDIN O'G'LI**

DINSHUNOSLIK

Uslubiy qo'llanma



Toshkent-2025

ORIENTAL UNIVERSITETI

SOBIROV ZUHRIDDIN
NAJMIDDIN O'G'LI

DINSHUNOSLIK

Uslubiy qo'llanma



Toshkent-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



ORIENTAL UNIVERSITETI

SOBIROV ZUHRIDDIN NAJMIDDIN O‘G‘LI

DINSHUNOSLIK

Uslubiy qo‘llanma

Toshkent-2025

UO‘K21/29

KBK 86.2

S 70

Sobirov Z.N

DINSHUNOSLIK Uslubiy qo‘llanma/ Z.N Sobirov. – Toshkent: «ZUXRO BARAKA BIZNES» MChJ nashriyoti, 2025. – 143 b.

Taqrizchilar:

Gulnoza Alijonova

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dono Kalandarova

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Mazkur uslubiy qo‘llanmada zamonaviy ilmiy konsepsiyalarga tayangan holda, mavzularni bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, tarixiylik, mintaqaviylik tamoyillari qo‘llanildi. Uslubiy qo‘llanma fan dasturi asosiy adabiyotlari asosida tuzilgan bo‘lib, butunlay yangicha uslub va mazmuni bilan ushbu sohada ilgari yozilgan uslubiy qo‘llanmalardan ajralib turadi.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, milliy dinlar, buddizm, xristianlik va islom dini tarixi va asosiy g‘oyalari o‘g‘ayalariga oid dinshunoslik bilan bog‘liq mavzular ketma-ketligida batafsil yoritilgan. Shuningdek, ushbu uslubiy qo‘llanma talabalarda barcha dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirib, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uslubiy qo‘llanma oliy ta‘lim tizimining “Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” blokidagi “Dinshunoslik” fanidan uslubiy qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Oriental universiteti” o‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil 19-dekabrda 4-sonli qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan.

© Sobirov Zuhridin Najmiddin o‘g‘li, 2025.

© Oriental universiteti, 2025.

KIRISH

So‘ngi yillarda mamlakat hayotida katta o‘zgarishlar va yuksalishlarga boy bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash va rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Boshqa sohalar bilan birga, ilmiy-ijodiy, diniy ta‘lim sohalariga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2018-yil 16-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi tarixiy Farmoni juda ko‘p imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Taraqqiyotimizning yangi davrida diniy va milliy qadriyatlar yanada rivoj topib, ajdodlarimizning diniy ma‘rifiy merosini teran o‘rganish va tahlil qilish, ularning ilmiy an‘analarini munosib davom ettirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dinshunoslik gumanitar fanlar qatoridagi insoniyatning madaniy, ma‘rifiy, fikriy tarixini o‘z ichiga olgan ilmlar qatoriga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimining umumiy o‘rta ta‘lim bosqichida o‘qitiladigan «Dunyo dinlari tarixi», o‘rta maxsus ta‘lim tizimidagi «Dinshunoslik» fanlari doirasida dinlar tarixi, ta‘limoti, manbalari kabi dinshunoslikning boshlang‘ich asoslari o‘qitiladi. Shu sababli ham oliy ta‘lim tizimining bakalavr bosqichidagi «Dinshunoslik» fani doirasida quyi bosqichda berilgan ma‘lumotlar asosida dinlarning rivojlanish tendensiyalari, bugungi kundagi holati hamda din niqobidagi turli buzg‘unchi g‘oyalarning kelib chiqish sabablari, oldini olish yo‘llari haqidagi ma‘lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu

konsepsiyadan kelib chiqqan holda ushbu uslubiy qo‘llanmada asosan tahliliy ma’lumotlar keltirildi.

Respublikadagi ko‘pkonfessiyalilik sharoitida turli millat, elat va din vakillari orasidagi totuvlikni ta’minlash, jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash ishiga munosib hissa qo‘shish har bir fuqaroning, ayniqsa, oliy ma’lumotli ziyolining muqaddas burchidir. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ta’kidlanganidek, «Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o‘rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz».

Dunyo miqyosida millatlararo va konfessiyalararo hamkorlik, hamjihatlikni mustahkamlash ko‘p jihatdan jamiyat hayotiga bag‘rikenglik tamoyillarining samarali joriy etilishiga bog‘liq. Jahondagi murakkab va ziddiyatli kechayotgan jarayonlar turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va hamjihatlik ruhidagi aloqalarni mustahkamlash tarixiy zaruriyat ekanini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»ning beshinchi bandida «xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» mamlakatimizda asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

O‘zbekistonda davlat va din masalalarini bilish jamiyatimizning har bir ilg‘or fuqarosining burchidir. Davlat va din o‘zaro munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar hatto butun jahon miqyosida ham e’tiborga loyiq.

Uslubiy qo‘llanmada davlat va din munosabatlariga oid taqdim etilgan ma’lumotlar kelgusida Vatan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish niyatida bo‘lgan yoshlarimizning amaliy faoliyatida dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari faol kechayotgan bir vaqtda, ming afsuski, dindan o‘z g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishga intilayotgan kuchlar ko‘plab topilmoqda. Diniy ekstremizm, mutaassiblik, missionerlik, tarixda o‘tgan hamda yangi paydo bo‘layotgan destruktiv sekta va oqimlar harakatlari shular jumlasidandir. Ushbu uslubiy qo‘llanmada ularning namoyon bo‘lish turlari, o‘z-o‘zini niqoblash usullari va ularga qarshi «jaholatga qarshi ma’rifat» shiori ostida kurash olib borish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Ayniqsa, hozirda ommaviy axborot vositalari orasida eng faol vosita bo‘lib qolgan internet va kibermakondagi diniy-mafkuraviy xurujlar, ularga qarshi yoshlarda immunitet hosil qilish masalalariga keng o‘rin ajratilgan.

1-MAVZU. DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Darsning maqsadi: Din ijtimoiy madaniyat hodisa sifatidagi ahamiyati darsida dinlarning turlari, tarixi, rivojlanishi, ta'limoti, asosiy manbaalari, o'tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o'rni haqida talabalarga ma'lumot berish.

REJA:

1. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati;
2. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati;
3. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari;
4. Dinshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqasi.

Tayanch tushunchalar: *din, teologiya, teosofiya, aqida, e'tiqod, legitimlovchilik, kompensatorlik, integratorlik, diniy ong.*

1. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy

Din (*arab. ishonch, ishonmoq*). Ijtimoiy-ma'naviy hayot hodisasi, ilohiy kuchlarga ishonch-e'tiqod asosida shakllangan g'oya va qarashlar tizimi.

Borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi oliy mavjudot, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui.

Tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

Dinshunoslik – kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotdagi mavqei va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandır.

Dinshunoslik fanini o'qitishdan maqsad – talabalarni dinlarning turlari, tarixi, rivojlanishi, ta'limoti, asosiy manbaalari, o'tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o'rnini o'rgatish orqali o'z xalqi va Vatani tarixini yaxshi biladigan, boshqa millat va elatlar oldida buyuk allomalarning avlodlari bo'lgan yuksak madaniyat va ma'naviyatli xalq farzandi ekanligini namoyon eta oladigan insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

Dinshunoslik fani talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniy va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan to'g'ri dunyoqarashni shakllantiradi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo'lib xizmat qilinishi

lozim. Din va qonun o‘zaro munosabatlarini yaxshi bilish respublikada demokratik, huquqiy davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma’naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan bir paytda din masalasini chetlab o‘tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgarigi dinga agressiv hujum etish uslubining asossizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo‘lgan diniy bo‘lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo‘lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o‘zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga printsipial, professional, ilmiy yondashuv darkor.

Dinshunoslik fanining vazifalari:

1. Dinning jamiyatga ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy ta’siri haqida bilimlar berish.
2. Ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta’limotlari haqida bilim berish.
3. Dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati rivojidadagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqei haqida tushuncha hosil qilish.
4. Jamiyat ma’naviy takomilida diniy qadriyatlarning ahamiyatini ko`rsatish.
5. Dunyoviy davlat bilan dinning o‘zaro munosabatlarini yoritish.
6. Dunyoviy aqdaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy oqimlarning salbiy mohiyatini ko‘rsatish va ularga qarshi yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish.

7. O'zbekistonda dinga nisbatan tub o'zgarishlar, diniy qadriyatlar tiklanganliklari haqida tasavvur hosil qilish.

2. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati

1. Birlashtiruvchi – integratorlik funksiyasi: jamiyat bilan shaxs aloqadorligi;
2. Dunyoqarashlik funksiyasi: atrofdagi narsa va hodisalar o'tkinchi, boqiy dunyoga tayyorgarlik ko'rish;
3. Tartibga soluvchi (regulyatorlik) vazifasini bajaradi: Islomda 5 mahal nomoz o'qish; Har haftada juma namozini jome masjidida ado etish; Ramazon oyida ro'za tutish, ro'za (iyd-fitr) va qurbon (iyd al adho) hayitlariga ishonish.
4. Taskin berish (kompensatorlik) – tenglashtirish, muvozanatlashtirish, to'ldirish. Insonda ma'naviy-ruhiy ehtiyoj zaruriyati: 1) moddiy ehtiyoj; 2) ma'naviy ehtiyoj: din ma'nviy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchi vazifani bajaradi.
5. Qonuniylashtirish (legitimlik) vositasida jamiyat a'zolarining xatti-harakatlari muayyan qolipga solinadi, jamiyatda barqarorlik ta'minlanadi.
6. Falsafiy-nazariy funksiyasi: yashashdan maqsad va hayot mazmuni, dorilfano va dorulbaqo dunyo masalalariga munosabatini bildiradi.

«Dinshunoslik» fanining amaliy ahamiyati shunda ham ko'rinadiki, u talabalarda barcha dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash madaniyatini tarbiyalaydi.

Dinshunoslikning tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, arxeologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan mustahkam bog'liqligi uning nazariyasini boyitishga xizmat qiladi.

Dinshunoslikning qator fanlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishi natijasida uning turli sohalari yuzaga keldi. Ulardan asosiylarini quyida keltirib o‘tamiz.

Din fenomenologiyasi. Fenomen, namoyon bo‘luvchi, ko‘zga ko‘rinuvchi narsa bo‘lib, fenomenologiya ko‘zga ko‘rinuvchi narsaning sistematik shaklda tadqiq qilinishidir. Dinning ko‘zga ko‘rinuvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o‘rganuvchi ilm sohasiga «Din fenomenologiyasi» deyiladi. Din fenomenologiyasi, tarixiy shakllanishlarni e‘tiborga olmagan holda diniy fakt va voqelikning bizga namoyon bo‘lgan jihatlarini asosiy o‘ringa ko‘taradi. Turli dinlarning ibodat va marosimlarini, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi. Din fenomenologiyasi diniy tuyg‘u va bu tuyg‘uning ko‘rinishlari deyarli butun dunyoda bir-biriga o‘xshashiga ishora qiladi; barcha dinlarning asli va g‘oyasining bir ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Shuning bilan birga diniy ramz (belgi) larda yashirgan ma’nolarni ochish va majoziy so‘zlarning muqaddas mazmunini yoritish kabi ishlar ham uning vazifalariga kiradi. Din fenomenologiyasi, materiallarini dinlar tarixidan oladi. Lekin u bu materiallarga tarixiylikdan ham ko‘ra ko‘proq sistematik jihatdan yondashadi. Shunday qilib diniy asoslar, diniy fenomen va shakllanishlarni muqoyasa qiladi. Din fenomenologiyasi boshqa din ilmlari bilan ba’zi nuqtalarda birlashishiga qaramasdan, mustaqil bir ilm sohasi sifatida, ba’zan farqlangan jihatlarini ham bo‘lib turadi.

Din sotsiologiyasi. Din – jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea-hodisalarni o‘rganadi. Shu tufayli bu ilm sohasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan

munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea-hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi. Demak, din sotsiologiyasining mavzusi, jamiyatning asos shakllari va dinning tashqi ko'rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilish va qonunlaridan iborat ekan. Boshqacha qilib aytganda bu ilm sohasi, tarix bo'yicha xususiy va mushohadaga suyanuvchi din va jamiyat tadqiqotlarini; dinning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlarini o'rganadi.

Din sotsiologiyasi, bir tomondan jamiyat, bir tomondan diniy ilmlarga tayanadi; bu ikki asos ustida yakdillikni keltirib chiqarishga harakat qiladi.

Din psixologiyasi. Bu ilm sohasi, zamonaviy psixologiya bilan birgalikda shakllangan va uning bir tarmog'i holiga aylangan. Din psixologiyasi, avvalo insonga oid bo'lgan diniy hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o'rganadi. Ya'ni din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va bu tajribaning turli ko'rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Natijada u dinning inson ruhidagi asosiy xususiyatlari xatti-harakatlarga bo'lgan ta'siri to'g'risida atroflicha to'xtaladi. Ruh-jasad aloqasi bilan atrof-madaniyat ta'sirlarining barchasini ichida o'rganuvchi diniy e'tiqod, shaxslarning ichki olamidagi turli rivojlanishlarni ko'rsatib beradi. Shu sababli Din psixologiyasi diniy tajribadan boshlagan holda inson turlarini atroflicha o'rganib, xos tipologiyalarni kashf qiladi. Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg'usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, ihtido (hidoyat

topish) yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va shubhalarni tadqiq qiladi.

Din psixologiyasi umumiy psixologiyaning barcha metodlaridan foydalangan holda o'ziga taalluqli bo'lgan mavzularni muhokama qiladi. Bu ilm turi, dindorlikning shaxs ruhiyatidagi siljish va ta'sir jarayonining tadqiq qilinishida umumpsixologiyadagi tamal asoslar, berilgan ma'lumotlarga (raqamlar)ga qarab anketalar, testlar va kuzatuvlardan foydalanadi.

Din falsafasi. Din sotsiologiyasi, psixologiyasi kabi asosiy mavzusi «din» bo'lgan din falsafasi, «din»ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Bu tadqiqot asnosida aqliy va betaraf yo'l tutadi. Bu ilm turi, qandaydir bir Yaratuvchi kuch e'tiqodiga falsafiy bir asos topishga harakat qiladi. Shu tufayli ham Din falsafasi sohasida faoliyat ko'rsatuvchilarning maqsadi dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashg'ul bo'lish emas, diniy hukmlarning mantig'i va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bog'liq dalillarning tanqid yoki tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini ko'rib chiqadi.

Din falsafasini boshqa din ilmlaridan ajratib turuvchi jihat bu, undagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Boshqa din ilmlari, baho berish, munosabat bildirish metodiga suyangan holda diniy masalalarni hal qilishsa; Din falsafasi, ular yasagan xulosa va erishgan natijalardan keng miqyosda foydalanadi va bu natijalar sababli bir qancha hukmlarni chiqaradi. Hatto Din falsafasi, dinni maqsad qilib olgan ilm turlari qo'lga kiritgan natijalar va bu natijalarga erishish uchun ular qo'llagan metodlar haqida ham hukm chiqarishi mumkin.

Din falsafasi, dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo'lgan bog'liqligini o'rganadi. Bu ilm turining e'tiborida bo'lgan mavzularning boshida Xudoning borligi, sifatleri, yaratuvchi-koinot munosabati, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg'ambarlik va vahiy kabi keng miqyosda metafizik bir xarakterga ega masalalar asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari ilm-imon, ilm-din, din-madaniyat (din-san'at, din-til-adabiyot) diniy tajriba, diniy his kabi asoslar ham bu ilm turining sarhadlariga kiradi.

Din antropologiyasi. Dinlarning inson bilan aloqasining turli jabhalarini o'rganuvchi soha. U din psixologiyasi va sotsiologiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning asosi qadimgi miqlarga borib taqaladi.

Jumladan, barcha dinlar va diniy tasavvurlarda birinchi odamning paydo bo'lishi Xudo yoki xudolar tomonidan yaratilish g'oyasi bilan bog'lanadi. Masalan, qadimgi Bobilda yaratilgan «Enum Elish» dostonida dastlabki inson xudolar o'rtasida bo'lib o'tgan urushdan so'ng loy va qondan paydo bo'lgani, Qadimgi Misrdagi afsonalardan birida esa Xnum nomli iloh odamni kulolchilik charxi yordamida loydan yasagani aytiladi. Shu bilan birga, islom, xristianlik va yahudiylik dinlarida ham insoniyat yagona Xudo tomonidan tuproqdan yaratilgani aytilib, ilk inson Odam yoki Adam deb nomlanadi. Umuman olganda, din antropologiyasi barcha dinlardagi inson haqidagi g'oyalarni o'rganib, tizimlashtiradi.

Din antropologiyasini o'rganishda qator metodlar mavjud bo'lib, falsafiy, materialistik maktab vakillari dinshunoslikning bu sohasini ham evolyutsion nazariyaga moslashtirishga harakat qilganlar. Jumladan, ko'plab adabiyotlarda Jahon dinlari o'zlarining aksar e'tiqodlarini qadimgi Bobil, Misr, Mesopotamiya, fors va hind afsonalaridan

o'zlashtirgani aytib o'tiladi. Bu, bir yoqlama yondashuv bo'lib, teologik metod tarafdorlari dinlardagi bu o'xshashlikni ularning bir o'zakdan kelib chiqishi bilan bog'laydilar. Dinshunoslikda esa, barcha dinlarning antropologik qarashlari, hech qanday shaxsiy fikr bildirmagan holda, boricha o'rganish nazarda tutiladi.

Dinshunoslik yuqoridagi fan sohalaridan tashqari, boshqa bir qancha ilm turlari bilan ham bog'liq. Ularning ichida birinchilardan bo'lib tarix o'rin oladi. Tarix, makon va zamon ta'yin qilgan holda o'tmishdagi voqea-hodisalarni o'rganuvchi bir ilm turi bo'lishi bilan birga moziy va hozirdagi dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan Dinlari tarixiga yaqindan ko'makchi bo'ladi.

Dinlarni tasniflash. Dinshunoslar turli ilm-fan soha vakillari bo'lib, dinlarni o'zlari xos bo'lgan ilm yo'nalishi nuqtayi nazaridan o'rganib, turlicha yondashganlar. Shuning uchun ular o'rtasida ba'zi ixtiloflar bo'lishi tabiiydir. Masalan, din tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar dinlarning yuzaga kelish tarixiga ko'ra davriy jihatdan yondashib tadqiq etganlar. Boshqa bir guruh olimlar dinlarni paydo bo'lgan va tarqalgan mintaqalariga ko'ra tadqiq etganlar. Ayrim dinshunoslar diniy nuqtayi nazardan yondashib, dinlarni o'rganganlar.

Bugungi kunda, dinshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda asosan quyidagi tasnif keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug'-qabila dinlari) - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrigar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari - ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoiylik (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari - dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddaviylik, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik - yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik - ko'pxudolik (hinduiylik, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi. Dinshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarda yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini Ibrohimiy dinlar (Avraamicheskiye religii) yoki samoviy dinlar deb atash ham kuzatilmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Dinshunoslik fanini o'qitishdan maqsad nima?
2. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
3. Dinning regulyatorlik vazifasi deganda nimani tushunasiz?
4. Dinning kompensatorlik vazifasi nimalardan iborat?
5. Dinning integratorlik vazifasiga nimalar kiradi?
6. Dinshunoslikning qanday sohaları mavjud?
7. Dinlarning tasnifi haqida ma'lumot bering?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. – Darslik. Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-499.

Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

1. "Din" so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- A. ishonch, e'tiqod, itoat qilish
- B. qarzdor bo'lish, marosim, muqaddas
- C. jazo, mukofot, oxirat
- D. hukm, qudrat, hokimiyat

2. Dinlar qanday turlarga bo'linadi?

- a) milliy, ma'naviy, madaniy
- b) dunyoviy, uxroviy, umumjahon
- c) jahon, milliy, urug'-qabila
- d) qabilaviy, milliy, ilmiy

3. Odamlarga, narsalarga va atrof-olamdagi hodisalarga g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir qilish mumkinligiga bo'lgan ishonch qanday ataladi?

- A. fetishizm
- B. magiya
- C. animizm
- D. totemizm

4. Dinning ibtidoiy shakllari qaysilar?

- A. dafn marosimi, sehrgarlik, ov marosimi, shomonizm
- B. fetishizm, qabila boshliqlarining shaxsiga sig'inish
- C. totemizm, tabiatni ilohiylashtirish
- D. fetishizm, totemizm, animizm, magiya.

5. Diniy ma'rosimlarga qaysilar kiradi?

- A. tug'ilish, nikoh, dafn, ibodat marosimlari
- B. sehrgarlik, tug'ilish, dafn, poklanish marosimlari
- C. shukronalik, nikoh, dafn, ov marosimlari

6. E'tiqod qiluvchilarning soniga ko'ra eng katta jahon dini qaysi?

- A. Xristianlik
- B. Buddizm
- C. Islom
- D. Hinduiylik

7. Milliy dinlarga qaysi dinlar kiradi?

A. yahudiylik, hinduiylik,
konfutsiylik, daochilik, sintoiylik

B. yahudiylik, buddaviylik,
konfutsiylik, zardushtiylik,
shomonizm

C. jayniylik, buddaviylik,
konfutsiylik, brahmanlik,
protestantlik

D. yahudiylik, zardushtiylik,
xristianlik, buddaviylik,
sintoiylik

8. Ilk ibtidoiy diniy tasavvurlarda
sehrgarlik qanday nomlangan?

A. Totemizm;

B. Fetishizm;

C. Animizm;

D. Magiya.

9. Dinning kelib chiqishi haqidagi
asosiy qarashlar quyidagilardan
qaysi biri?

A. Diniy va ilmiy

B. Idealistik va materialistik

C. Nasroniylarcha va
musulmonlarcha

D. Metafizik va dialektik

10. Jahonda e'tiqod qiluvchilari
soni jihatidan eng katta milliy
din qaysi ?

A. Hinduizm

B. Iudaizm

C. Sintoizm

D. Daosizm

2-MAVZU. MILLIY DINLAR

Darsning maqsadi: Milliy dinlar darsida dinlarning tarixi, rivojlanishi, ta'limoti, asosiy manbaalari, o'tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o'rni haqida talabalarga ma'lumot berish.

REJA:

- 1.Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik.
- 2.Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar.
- 3.Yahudiylik dinining yuzaga kelishi.
- 4.Daochilik – falsafiy ta'limot. “Dao” tushunchasi tahlili.
- 5.Sintoiylik.

Tayanch tushunchalar: *Veda, Braxmanlik, Havo xudolari, Hinduizm, tirtxakar, nirvana, Syao.*

Vedalar dini. Mil. avv. 2-ming yillik o'rtalarida Hindistonga kirib kelgan *oriylar* o'zlari bilan muqaddas yozuvlari – Vedalar (sansk. – *muqaddas bilim*)ni ham olib kelgan edilar.

Hind adabiyoti 3.5 ming yildan ortiq tarixga ega. Bu adabiyotning boshlanishi Vedalar bo'lib, 4 yirik to'plamdan iborat:

- 1.*Rigveda* («madhiyalar vedasi»);
- 2.*Samaveda* («qo'shiqlar vedasi»);
- 3.*Yajurveda* («qurbonliklar vedasi»);
- 4.*Atxarvaveda* («afsun va jodular vedasi»).

Vedalar ta'limoti. Vedalarda butun tabiatning ilohiyligi haqidagi ta'limot ilgari suriladi.

Osmon xudolari. *Dyaus, Varuna, Indra* kabi turli osmonlarni boshqarib turuvchi xudolar.

Biroq, *Varuna* keyinchalik suv va dengizlar xudosiga aylanib ketgan.

Quyosh xudolari. Rigvedada quyosh energiyasining turlicha namoyon bo'lishidan 5 xudo yuzaga kelganligi haqida so'z yuritilgan. Eng qadimiysi *Mitra* («do'st») dir. *Surya* quyoshning yorqinroq namoyon bo'lgan ko'rinishidir. U 7 ot biriktirilgan g'ildirakli aravalarda tasvirlangan. *Savitri* esa quyoshning quvvat beruvchi kuchida namoyon bo'ladi. *Pushan* quyoshning mahsuldorlik faoliyatni o'zida namoyon qiladi.

Havo xudolari - *Ashvina* va *Savitar* 2 tong xudosi, boshida osmon podshosi va oriylarning milliy xudosi *Indra* turadi. U avvalo 2 sariq otga qo'shilgan g'ildirakli aravada turuvchi jang xudosidir. U chaqmoq xudosi, keyin urush xudosi. Yomg'ir xudosi *Panjanya*, shamol xudosi *Vayyular* vedalarda aniq tasvirlanmagan. Ular tez-tez *Indra* bilan umumlashgan holda tasvirlanadi. Ulardan yana biri *Rudna* Rigvedada *Shiva* («yoqimli») nomi bilan zikr etiladi.

Yer xudolari. Yerda quyoshning, havoda chaqmoqning, yer ustida olovning mujassamlashuvi hisoblangan olov xudosi *Agni*. U haqdagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan. U odamlarning qurbonliklarini xudolarga yetkazuvchi ruhoniylar sifatida tasavvur qilingan. Ayol xudolar qatoriga tong va tong nuri ma'budasi *Ushas*, daryo xudosi *Sarasvatilar* kirgan. *Sarasvati* keyinchalik braxmanizmda so'z xudosi sifatida tasvirlangan.

Veda ibodatlari 2 turli – 1) duolar, 2) xudolarga atab qilinadigan qurbonliklar yoki boshqa bir narsalarni taqdim qilishdan iborat. Dastavval duo kitoblari bo‘lmagan paytda ibodatlar faqat qurbonliklar shaklida amalga oshirilgan. Unda ma’budlarga kuydirilgan moy, non, va nihoyat, suv yoki sut bilan aralashtirilgan soma ichimligi tortilgan. Shuningdek, hayvonlar (masalan, ot) ham qurbonlik qilingan. Vaqt o‘tishi bilan bu marosimlar murakkablashib borgan. Qurbonlik banda bilan xudo o‘rtasidagi savdo, kelishuv ma’nosida qabul qilingan.

Braxmanlik veda dinlarining bir shahobchasidir. Vaqt o‘tishi bilan vedalardagi qo‘shiqlar ommaga, hatto ruhoniylarga ham tushunarsiz bo‘lib qoldi. Bu qo‘shiqlar hali o‘zgarishga uchramay, muqaddas til va muqaddas matnlar paydo bo‘ldi. Nihoyat, bu tilni o‘rganish uchun kishilar alohida guruhlar tuzib, maxsus vaqt ajratdilar. Natijada o‘z hayotlarini ibodat qilish, ilohiyot ilmini o‘rganish, murakkab marosimlarni o‘tkazish va xalq ruhoniy hayotini boshqarishga bag‘ishlagan braxmanlar *kastasi* (tabaqasi) vujudga keldi. Dinga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri – ilohiy tilning o‘zgartirib bo‘lmasligidir. Xuddi shu bir tilning eskirib amaldan qolishi va faqat muqaddas tilga aylanib qolishi braxmanizmning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillardan biridir.

Oriylar umuman boshqa madaniyatga, hayot tarziga ega bo‘lgan turli xalqlar bilan uchrashib, mutlaqo boshqa tabiiy sharoitga duch keldilar. Ular ko‘chmanchilikdan endi o‘troq hayotga o‘tib, davlatdagi hukmron sinfga aylandilar. Shundan so‘ng ularning eski dinlari – vedizm mazkur jarayonlar ta’sirida taraqqiy etdi. Bu taraqqiyot dinni falsafiy jihatdan chuqurlashtirish, ruhoniylar tabaqasining mavqeini ko‘tarish, ibodat va marosimlarni murakkablashtirish, ilohlar sifatini murakkab tomonga

o'zgartirish hisobiga bo'ldi. Shundan keyin o'zgartirish taqiqlangan diniy aqida vujudga keldi.

Zikr etilgan faktlardan kelib chiqib aytish mumkinki, braxmanizmda xalqning emas, ko'proq ma'lum ruhoniylar tabaqasining manfaatlari himoya qilinadi.

Braxmanlikning asosiy elementlari braxmanlar va vedalarga tegishli sutralardir. Sutralar san'atning alohida ko'rinishi bo'lib, yaqqol ajralib turuvchi ustalik bilan sof sanskrit tilida yozilgan. Unda mavjud vaziyatga alohida e'tibor qaratilgan holda ma'lum tabaqaga yuqori o'rin beriladi.

Braxmanlar o'z nomlarini tuzgan dinlarigagina emas, joy nomi (Braxmaniya) sifatida, butun boshli fan va san'atga (braxmanizm she'riyati, tibbiyoti, matematikasi kabi) nom qilib berdilar. Ular o'zlarining kelib chiqishlarini yetti ruhoniylar oilaning boshliqlari bo'lgan yetti rishidan deb hisoblaydilar. Madhiyalarning ilk mualliflari bo'lgan shoirlar, tilshunoslar va hozirjavob kishilar o'z kasblarini avlodlariga uzatganlar. Vedaning o'zida aytilishicha, «rajarshi» («rishi-podshoh»)lar ba'zan shunday madhiyalarning mualliflari bo'lganlar.

Braxmanlar tabaqasi *oriylar*ning Hindiston hududiga kirib kelishlaridan oldin shakllangan degan fikrlar ham mavjud. Ammo ular ilk davrda katta mavqega ega bo'lmaganliklari uchun ularning qachon va qanday qilib asosiy nufuzga ega bo'lgan davrlarini bilish muhim. *Oriylar* Hindiston bo'ylab harbiy yurishlarini davom ettirganlari sayin kamroq qarshilikka duch kelardilar. Natijada kshatriylar (jangchilar) tabaqasi tobora e'tibordan chetga chiqib, bosib olingan yerlardagi xalqlar orasida tartib o'rnatish uchun diniy ruhiy jihatdan ta'siri kuchliroq bo'lgan boshqa tabaqa – braxmanlarning nufuzi oshib bordi. Chunki braxmanlar

diniy marosimlardan tashqari huquq, urf-odat kabi sohalardan ham xabardor edilar.

Braxmanning hayoti to‘rt muayyan belgilangan bosqichdan iborat. Xususan, uning har bir kuni mashaqqatli ibodat, o‘rganish va vazifalar bilan to‘la. Braxmanning diniy hayoti uning tug‘ilishi bilanoq emas, balki uning balog‘at yoshiga yetib, muqaddas bog‘ichni qabul qilishi va «baxshida qilish» marosimidan keyin boshlanadi. Shundan keyin braxmanning yoshligi birorta donishmand braxmanning qo‘lida vedalarni yodlash, uning uyida muqaddas olovni doimo tutib turish, ustozining xizmatini qilish, jumladan, uning uchun sadaqa yig‘ish bilan o‘tadi. Braxman bu bosqichda «braxmacharin» deb nomlanadi. Uzoq vaqt davom etadigan bunday ta’limotdan so‘ng u ikkinchi bosqichga o‘tadi. Braxman «grixastxa» deb nomlanadigan bu bosqichda uy xo‘jayini vazifasini bajaradi. U uylanishi, oilani boqishi (xususan, o‘g‘il yetishtirishi), amaliy hayot ilmini egallashi va o‘zining fuqarolik burchlarini bajarishi lozim. Qonun uy xo‘jayinining o‘zini qanday tutishini soat sayin qat’iy ravishda diqqat bilan kuzatib boradi. Qachon va nimani yeyish, nimani ichish, qachon ibodat qilish, marhumlarni qanday dafn etish, mehmonlarni qanday kutish, ovqatni qanday tayyorlash, qariyalarga, ayollarga, yosh bolalarga qanday munosabatda bo‘lish va boshqa ko‘p narsalar belgilab qo‘yilgan.

Braxman «vanaprastxa» (o‘rmon zohidi) deb ataluvchi hayotining uchinchi qismida oilasi bilan yoki yolg‘iz holda o‘rmonga ketishi kerak. Bu yerda u «o‘z nafsini jilovlab» ildizlar yoki mevalarni yeb, diniy amallarni jiddu jahdi bilan bajarishi kerak. Bu bosqichda braxmanga bir qator mashaqqatlarni boshdan kechirish tavsiya etiladi: u tuproqqa

qorishib dumalashi yoki kun bo‘yi oyoq uchlarida turishi va yo navbat bilan turib o‘tirishi mumkin. Jazirama kunda o‘zini «besh olov issig‘iga» duchor qilishi, yomg‘irli paytda ochiq joyda yashashi, qishda esa ho‘l kiyimda yurishi kerak.

Braxman hayotining to‘rtinchi bosqichi «saniyasi» (zohid) tarkidunyochilik yoki diniy qashshoqlik davridir. U hayotning barcha tashvishlarini ortga tashlab, xursandchilik, qayg‘u, orzu-havas va jismoniy ehtiyojlarni tark etib, hamma narsaga befarq bo‘lgan braxman bir maqsadga – «Oliy Braxmaga yetishish, ya’ni u bilan qo‘shilib ketish, bu dunyo va o‘lgandan keyingi abadiy baxtga erishishga» intilishi kerak. Braxman tarkidunyochilik bosqichida faqat sadaqadan tushgan narsalar hisobiga kuniga bir marta ovqatlanib kun kechiradi.

Zikr etilgan – «braxmanning muqaddas to‘rtlik qonuni» deb atalmish hayot tarzini faqatgina diniy qoidalar bilangina bog‘lab tushuntirish mumkin emas. Hindiston tarixida ko‘plab bunday hodisalarni kuzatish mumkin. Faqatgina oliy tabaqadan chiqqan kishilar emas, oddiy xalq vakillari ham ba’zan shon-shuhrat istab, o‘z irodasini chiniqtirish maqsadida yoki o‘zini boshqalardan kam bilmay, o‘zlarini ana shunday hayot qiyinchiliklariga solganlar. Qadimda kishilar kuzatgan mazkur holatlarni Hindistonda hozir ham tez-tez uchratish mumkin. Buddha hayotini o‘rganishda uchraydigan ko‘pgina hodisalar o‘sha davrda ham braxmanlar «to‘rtlik qonuniga» amal qilganlarini ko‘rsatadi.

HINDUIZM

Bu din, asosan, Hindistonda tarqalgan bo‘lib, mamlakat aholisining 83%, ya’ni 650 mln. kishi shu dinga e’tiqod qiladi. Hinduizm e’tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchi o‘rinda turadi. Barcha

hinduistlarning soni 700 mln.ni tashkil etadi. Yirik jamoalar Bangladeshda (12 mln.), Indoneziyada (3,6 mln.), Shri Lankada (3 mln.), Pokistonda (1,5 mln.), Malayziyada (1 mln.), AQShda (0,5 mln.), Butanda (0,3 mln.) mavjud. Hinduizm uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan birinchi va asosiy shart Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishdir.

Diniy qorishma sifatida hinduizm *oriylargacha* bo'lgan dinlar, hindskif jamoalarining ibtidoiy diniy tasavvurlarini va qadimgi braxmanlarning buddizm bilan aralashgan qadimiy urf-odatlarini o'zida mujassam qilgan.

Shunisi qiziqki, hinduizm o'zining asosi hisoblanadigan vedizm va braxmanizmdan tashqi ko'rinishda farqlanadi. Unda yangi braxmanizm dinlari, to'g'rirog'i, oqimlari mujassamdir. Ularning barchasini umumiy jihatlarga qarab bir guruhga jamlash mumkin: tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddasligi; *guru* (pir, ustoz)ning tan olinishi; muqaddas joylarga ziyoratga borish; sanskritning muqaddas til ekanligi; va nihoyat, sigirning muqaddas ekanligi. Bu besh qoida yoki aqida umum tomonidan tan olingan bo'lsa-da, ko'p sonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farq va o'ziga xoslik kasb etgan.

Hinduizmda keyingi davrda vedalardan tashqari xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, «Maxabxarata» ham muqaddas yozuvlar qatoriga qo'shilgan. Hinduizm ham braxmanlar asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham mazkur adabiyotlarning ko'pchiligi braxmanlar tomonidan yaratilgan. Ular eski aqidalarning zamon talabiga javob bermasligini ko'rib, yangi qonun qoidalarga mos ravishda turli oqimlarni

yuzaga keltirdilar. Ular shu yo‘l bilan o‘z raqiblari hisoblangan buddistlarga qarshi kurash olib bordilar.

Hinduizmda *trimurti* (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy xudolar sanalib, Braxma ularning eng kattasi – dunyoni yaratgan xudo hisoblanadi. Biroq, hinduizm faqatgina Vishnu va Shivagagina sig‘inadilar. Shunga binoan, hinduizm ikki asosiy oqimga bo‘linadi: Shivaga sig‘inuvchilar va Vishnuga sig‘inuvchilar.

Shiva oddiy xalq ommasi – kambag‘allarning ilohiyati hisoblanadi. U Rigvedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarvedada Rudraning roli oshib boradi. Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. U Ishana, Ishvara, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

Shivaizmning mayda oqimlari *oriylarga* tegishli bo‘lmagan an‘analar bilan sug‘orilgan. Deylik, Shaktra yoki Shakta oqimi hayvon yoki odamlarni qurbon qilishi bilan ajralib turadi. Hozir turli balo-ofatlar paytida qilinadigan bunday qurbonliklar yo yo‘q bo‘lib ketgan, yoki maxfiy ravishda amalga oshiriladi. Xalq orasida Shivaning 1008 ta nomi bor.

Vishnu – hozirgi Hindiston panteonida birinchilik uchun kurashayotgan ikkinchi ilohiyatdir. Rigvedada tabiatga jon ato etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali ilohiyatdir. Unda Vishnu juda saxiy qilib tasvirlangan. Ibodat paytida uni Savitar, Roxita, Surya, Adita nomlari bilan ham ataydilar. U butun koinotni uch qadamda bosib o‘tishi va havoda muallaq yura olishi xususiyati bilan tavsiflanadi. Yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon Krishna Vishnuga qo‘shilib ketgan deb tasavvur qilinadi.

Bundan tashqari, ilon, sher, fil, ba'zi qushlar ham ilohiylashtiriladi. Umuman olganda, hinduizm da deyarli har bir Hindiston hayvoni xudo yoki xudoning hamrohi deb e'tiqod qilinadi.

Hinduizm da bayramlar ma'lum bir oqimga tegishli bo'lsa-da, ular ommaviy tarzda nishonlanadi. Masalan, Krishna (avgust) va Shivaning (fevral) tug'ilgan kunini nishonlashda shivachilar ham, vishnuchilar ham, garchi bayramga har bir oqim o'zicha ma'no bersa-da, teng ishtirok etadilar. Qadim zamonlardan ulug' bayramlar qatorida muqaddas joylarni ziyorat qilish Hindiston diniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Vedalarda faqatgina ayrim joylarni ziyorat qilishga ruxsat etilgan bo'lsa, Maxabxaratada Hindistonning shimolida joylashgan bir necha muqaddas ziyoratgohlar aniq ko'rsatib o'tilgan.

Hinduizmning aqidaviy, marosimiy va ramziy sohalardagi juda ham murakkab tizimi unga e'tiqod qiluvchilarning turlicha talqinida yana ham murakkablashib ketadi. Garchi, hinduizm ilohiyotchilari tomonidan uni animistik va butparastlik asoratlaridan tozalab, taraqqiy etgan dinlar qatoriga ko'tarishga harakat qilsalar-da, xalq ommasi doirasida u juda ham sodda, but va ruhlarga sig'inish xususiyatlarini to'la saqlagan holda davom etmoqda.

Jayнизм. Jayнизмning kelib chiqishi haqida ko'plab afsonaviy rivoyatlar mavjud. Rigveda kitobida jayнизмning ikki *tirtxakarlari* (yo'l tuzuvchi, ruhlarni ozod qiluvchi) Rishabxa va Arishtanem haqidagi rivoyat keltirilgan. Ulardan birinchisi – Rishabxa jayнизм ta'limotining asoschisi hisoblanadi. Bu rivoyatlarda Rishabxa shaxsida ilohiyat Naroyana, ya'ni Vishnu mujassam bo'lgan. Bu ma'lumotlar jayнизмning veda dinlaridan ham qadimiyroq ekanligini ko'rsatadi.

Jayнизм dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu ta'limotga 24 *tirtxakar* (payg'ambar yoki avliyo) asos solgan. Ularning barchasi *kshatriylar* xonadonidan bo'lgan. Ushbu *tirtxakarlarning* 22 tasi haqida ma'lumot deyarli yo'q, 23-si – Vardxamana Maxaviradan 250 avval yashagan Parshvanadxa – Banoras podshohi Ashvasanning o'g'li bo'lgan. Biroq rohiblik yo'lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etgan. U o'zidan keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko'rsatmalar qoldirgan. Vardxamananing ota-onasi, oila a'zolari Parshvanadxaning dinida bo'lganlar. Vardxamanada yoshligidan jayнизм ta'limotiga kuchli qiziqish paydo bo'lgan. Shunday qilib, Vardxamananing o'zi jayнизмning navbatdagi va so'nggi *tirtxakari* bo'lib yetishgan.

Ta'limoti. Jayнизм ta'limotining asosiy g'oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo'lgan *karmalar* va *nirvana* haqidagi ta'limot hisoblanadi. *Nirvanaga* erishgan inson qayta tug'ilishdan ozod bo'ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlargina erishishi mumkin, xolos. Shuning uchun ham ushbu ta'limotda tarkidunyochilikka alohida e'tibor beriladi. Inson dunyoda o'zining barcha ehtirosalaridan voz kechgach, o'z nafsini tiyishi, o'z-o'zini yengishi – yangi *karma* hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada *karmaning* kuchi yemirilib, uning ruhi kishanlardan ozod bo'ladi. Kishining *karmasi* qanchalar zaiflashsa, uning ichki dunyosi shuncha boyib boradi. Bu jarayon ruhning to'la ozod bo'lgunigacha davom etadi. Va, nihoyat, ruhning butunlay ozod bo'lishi – *nirvana* holati yuz beradi.

Dunyoviy kishidan ham, tarkidunyo qilgan rohibdan ham ma'lum axloqiy qoidalarni bajarish talab qilinadi. Chunki hayotning maqsadi ruhni yomon *karmadan* saqlash, yangi *karmaning* yuzaga kelishiga yo'l

qo‘ymaslik, borini ham asta-sekin yo‘q qilib yuborishdan iborat. Buning uchun dunyoviy odam besh narsaga amal qilishi kerak: birinchisi – zarar yetkazmaslik (*axinsa*), ikkinchisi – rost so‘zlash (*satya*), uchinchisi – o‘g‘irlik qilmaslik (*asteya*), to‘rtinchisi – zino qilmaslik (*braxmacharya*), beshinchisi – ta‘magirlik qilmaslik (*aparigraxa*). Mana shular insonning axloqiy mezonini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u yana ikki asos – *chine‘tiqod* va *to‘g‘ri bilim* tamoyillariga ham amal qilishi lozim. Ularning birinchisi jaynizm diniga e‘tiqod qilishni bildirsa, ikkinchisi – ruhning abadiy ozodligi va hayotning har bir jismda mavjudligini bilishdir. Rohiblar uchun bir muncha murakkab qoidalar ishlab chiqilgan.

Jaynizm ta‘limoti borliqning ilohiyat tomonidan yaratilgani va uning borliq ustidan nazorat qilib turishini tan olmaydi. Unga ko‘ra, ruh – abadiy mavjudot, olam esa azaliydir. Ruh moddiy tanani yengib o‘tib, abadiy hayotga yetishi mumkin. Maxaviraning fikricha, dunyodagi har bir jism, uning jonli yoki jonsiz bo‘lishidan qat‘i nazar, qandaydir darajadagi anglash xususiyati bilan yaratilgan. Shuning uchun jaynizmda *axinsa* – zarar yetkazmaslik qoidasiga ko‘proq e‘tibor beriladi, ya‘ni jonli yoki jonsiz narsalarga ozor yetkazmaslik talab qilinadi.

Maxavira vedalarning ulug‘ligini inkor etdi va veda urf-odatlariga braxmanlarning hukmronligiga qarshi chiqdi. U insonni ma‘naviy yuksaklikka olib boruvchi hayot qonunlarini, ashaddiy rohiblikni, ruhni ozodlikka olib chiquvchi deb hisoblangan nafsni tiyish fazilatini keng targ‘ib etdi.

Maxavira jaynistlarning diniy tashkilotiga asos soldi. Uning ashaddiy rohiblik tamoyillari va sodda bayon qilingan ta‘limoti ko‘pchilikni o‘ziga jalb qildi. Uning *ganadxara* («maktab boshliqlari») nomi bilan mashhur

bo'lgan 11 shogirdi bo'lib, ular Maxaviraning vafotidan keyin uning ta'limotini davom ettirganlar.

Jaynizmning asosiy qoida-tamoyillarini o'z ichiga olgan 45 ta asar mavjud bo'lib, ular Maxavira tomonidan bitilgan. Biroq, mil. av. III asr atrofida og'zaki matnlarni kitob holatiga keltirish maqsadida qilingan harakatlar oqibatida jaynizm ikki oqim – *shvetambarlar* yoki *svetambarlar* («oq kiyim kiyganlar») va *digambarlar* («moviy kiyim kiyganlar»)ga bo'linib ketgan. *Digambarlar* jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko'proq ahamiyat berganlar. Ular Rishabxaning qadimiy qonunini yo'qolgan deb hisoblab, *shvetambarlardagi* matnlarni haqiqiy emas deb e'lon qildilar. Jaynizmning ikki oqimga bo'linishi har ikki oqimning o'ziga xos urf-odatleri, kiyinishi va boshqa hayotiy qirralarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, ular asosiy diniy qoidalarda o'zaro farqlanmaydilar.

Hozirgi kunda dunyoda bir yarim milliondan ortiq jaynistlar mavjud. Ular, asosan, Hindistonning Rajputan, G'ujarat va bir qator janubiy mintaqalari, Madxya, Bxarat shtatlarida istiqomat qiladilar.

KONFUTSIYCHILIK

Konfutsiychilik falsafiy g'oya sifatida maydonga kelgan. Uning asoschisi Konfutsiy (Kun szi) mil. av. 551 yilda tug'ilib, mil. av. 479 yilda vafot etgan.

Konfutsiy otasidan erta ajrab, onasi qo'lida tarbiyalanadi. Onasi ham ko'p o'tmay dunyodan o'tadi. Konfutsiy ilm tahsilini olgach, 19 yoshida uylanadi. Birinchi marta u omborchi vazifasiga ishga tayinlanadi. U bir necha yillar davomida turli podshohlar qo'l ostida ishlagandan keyin yoshlarga ta'lim berishga kirishadi. Yangi ustozning ong haqidagi fikrlari,

chuqur ma'noli so'zlari mamlakat bo'ylab keng tarqaladi. Shundan so'ng Konfutsiy huzuriga mamlakatning turli mintaqalaridan ilmga chanqoq yoshlar oqib kela boshlaydilar. U ilm istab keluvchilarga hech qachon rad javobini bermas edi. Konfutsiyning 3000 ga yaqin shogirdlari orasida 72 eng ko'zga ko'ringan izdoshlari orasida mamlakatning obro'li xonadonlaridan bo'lgan kishilar bilan bir qatorda kambag'al, oddiy kishilar ham bo'lgan. Konfutsiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-sekin katta ta'sir doirasiga ega bo'lib bordi. Uning ko'plab shogirdlari qadimgi Xitoy podshohliklarida e'tiborli mansablarni egalladilar. Konfutsiy yoshlar tarbiyachisi va ustози sifatida keng shuxrat qozonib, ilk Xitoy ma'rifatparvari nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa, u tomonidan taklif qilingan islohotlarning amalga oshirilishida buning aksi bo'ldi.

Garchi Konfutsiy o'zining ish faoliyatida podshohlar xizmatida bo'lgan paytlarida ba'zi islohotlarni amalga oshirishga harakat qilgan bo'lsa-da, ammo uning ko'pchilik takliflari amaldorlar va hukmdorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Konfutsiyning asosiy e'tiborini tortgan narsa o'z zamonasining kamchiliklari va aybu nuqsonlari edi.

Oddiy xalqning nochorligi, amaldorlarning zolimligi, hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, qadimgi ma'naviy an'ana va qadriyatlardan uzoqlashish – bularning hammasi Konfutsiyning keskin tanqidiy qarashlarining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. U mavjud muammoni hal qilishda yangicha qarashlarga tayanish lozimligini anglab yetdi. Biroq u o'z fikrlarining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi uchun hamma e'tirof qilgan obro'ga ega bo'lish kerak edi. Konfutsiy xuddi ana shu obro'ni uzoq o'tmishning yarim afsonaviy obrazlaridan topdi. Konfutsiy

vafotidan bir necha asr o'tgach, uning ta'limoti xalq hayotining ajralmas bir qismiga aylandi.

Konfutsiyning falsafiy qarashlari. Konfutsiy komil inson (*szyun-szi*) haqidagi g'oyani yaratdi. *szyun-szi*, ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarz)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim. U buning uchun tinimsiz, o'zini ayamadan o'z ishonchi, hukmdori, o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur.

Konfutsiychilikning ilk ko'rinishida axloq masalasi birinchi o'ringa qo'yilgan, diniy e'tiqod esa ikkinchi darajali sanalgan. Diniy masalalar, aqidalarga konfutsiychilik ancha sovuqqon munosabatda bo'lgan, ba'zi o'rinlarda ularni inkor qilgan. Konfutsiy ham o'z vaqtida qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ruhlarga e'tiqod masalasiga shubhali munosabatda bo'lgan. «Lunyuy» (Konfutsiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi, konfutsiychilikning asosiy manbasi)da keltirilishicha, Konfutsiy g'ayritabiiy narsalar va ruhlar to'g'risida gapirishni yoqtirmagan. Shuningdek, u taqdir, inson umri, o'lim haqida so'z yuritishdan qochgan. Undan: «O'lim nima?» – deb so'raganlarida, u: «Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o'lim nima ekanligini qaerdan bila olar edik», - deb javob bergan.

Biroq, qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlariga Konfutsiy hurmat bilan munosabatda bo'lgan.

Konfutsiyning yana bir ta'limoti – «Syao» bo'lib, u inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi g'oyani o'zida mujassam qilgan. Konfutsiy fikricha, inson uchun *Syaodan* muhimroq narsa yo'q. U: «*Syao*

va *Di* (ukaning akaga, kichiklarning kattalarga hurmati) insoniylikning asosidir» degan. *Syaoning* asosiy ma'nosi nima, farzandlik xizmati qanday bo'lishi kerak, degan savolga Konfutsiy shunday javob bergan: «Aqlli va ota-onangni boqishga yaroqli bo'lishingdir. Chunonchi, odamlar uylarida itlar va otlarini ham boqadilar-ku? Agar ota-onalariga ortiq ehtirom ko'rsatmasalar, hayvonlarni boqishlaridan nima farqi qoladi?». *Syao* ta'limotining «Li qonunlari»ga ko'ra, farzand ota-ona hayotlik chog'ida mutlaqo ularning ixtiyoridadir. To ular dunyodan o'tgunicha o'ziga-o'zi egalik qilishga haqli emas. Agar ota-ona vafot etsa, farzand qanday ish bilan mashg'ul bo'lishidan qat'i nazar, barcha ishni tashlab uch yil aza tutishi shart. Konfutsiychilikning *Syao* ta'limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy normalariga katta ta'sir o'tkazib keldi.

Oila va nikoh tushunchasi. Konfutsiychilik Xitoyda oila masalalariga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi. Konfutsiychilik ta'limotiga ko'ra, oila nikohdan, yoshlarning kelishuvi bilan boshlanmaydi. Balki, oila ehtiyojlari uchun nikoh amalga oshiriladi. Konfutsiychilar urf-odatlariga ko'ra, avlodlar o'z ajdodlari ruhi oldida qilishlari kerak bo'lgan barcha marosimlarni o'z o'rnida, muntazam ravishda bajarishlari lozim.

Xitoyda ilk Chjou va In davrlarida o'tganlar ruhlari tiriklar uchun madad bo'lishi kerak deb e'tiqod qilinsa, Konfutsiy ta'limoti buning aksini, ya'ni tiriklar o'tganlar oldida qarzdordirlar degan g'oyani ilgari surdi. Konfutsiy o'zidan oldin jamiyatda mavjud bo'lgan o'tganlar ruhlari haqidagi aqidalarni tamoman o'zgartirib yubordi. Modomiki, tiriklarning asosiy vazifasi o'tganlarni rozi qilish, ularga xizmat qilish ekan, butun oila mana shu asosiy g'oyaga xizmat qiluvchi bir jihozni tashkil qiladi.

Mana shuning uchun ham har bir oila boshliqlari o‘z ajdodlari oldidagi qarzlarini ado etishlari uchun oila naslini davom ettirishlari kerak.

Konfutsiychilikning Xitoyda tarqalishi. Konfutsiy fikricha, dunyodan befarzand o‘tish va o‘zidan nasl qoldirmaslik nafaqat shu insonning yoki shu xonadonning, balki butun jamiyatning fojiasidir.

Konfutsiychilikning yoyilishi sekin kechdi. Konfutsiyning o‘zi esa zamondoshlari tomonidan tan olinmay vafot etdi. Uning shogirdlariga ham oson bo‘lmadi.

Garchi konfutsiychilar o‘z ta’limotlarini qadimgi Chjou aqidalariga bog‘liq urf-odatlar, marosimlar, axloqiy me’yorlar asosiga qurgan bo‘lsalar-da, ular mazkur aqidalar orasida o‘z munosabatlari, qolaversa, har bir masala yuzasidan o‘z xulosalarini ham berib bayon qilar edilar. Mana shu narsa konfutsiychilikning muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo‘ldi. Undan tashqari uning muvaffaqiyatiga sabab bo‘lgan omillardan yana biri konfutsiychilarning o‘zlari foydalangan qadimgi kitoblar, she’rlar, risolalarni yig‘ib o‘quvchilariga o‘rgatganliklaridir. Bu ishning asosiy qismi Konfutsiyning o‘zi tomonidan bajarilgan edi. U turli podshohlklarda mavjud bo‘lgan uch mingdan ortiq qadimiy qo‘shiqlar, yozuvlarni jamlab, ularni qayta tahrir qilgan edi. Konfutsiy va uning shogirdlari tomonidan tahrir qilingan asarlar keyinchalik konfutsiychilikning asosiy manbalariga aylandi.

Mil. av. IV-III asrlarga kelib Konfutsiy ta’limoti ancha keng tarqaldi va katta ta’sir doirasiga ega bo‘ldi. Xan sulolasi davriga kelib (mil. av. III-II asrlar) konfutsiychilik davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarildi. Xan podshohlari Konfutsiy ta’limotlarini to‘liq qabul qilmagan bo‘lsalar-da,

uning kuchini, jamiyatda egallab ulgurgan mavqeini e'tirof qilgan holda undan davlat boshqaruvida foydalandilar.

Konfutsiy nomining ilohiylashtirilishi. Konfutsiy o'zi yashab ijod etgan joy – suyfuda vafot etgandan keyin uning qabri yaqinida bir ibodatxona qurdilar. Ibodatxonaga Konfutsiyning shogirdlari va yaqinlari tomonidan uning barcha tabarruk narsalari va unga taalluqli ashyolar: yozgan asarlari, musiqa asboblari, ro'zg'or anjomlari, aravasi va boshqa narsalari keltirib qo'yildi. Vaqt o'tishi bilan faylasufning obro'si oshib, ta'limoti keng tarqalgani sari ushbu ibodatxona ham ziyoratgohga aylanib bordi. suyfu yaqinida Konfutsiy shogirdlari va izdoshlari makon tutgan kattagina qishloq barpo bo'ldi. Lu podshohligi hukmdorining o'zi suyfuga kelib Konfutsiy ibodatxonasida uning xotirasiga qurbonlik qildi. Ibodatxonaning ahamiyati oshgani sayin uning yer mulklari bilan boyidi. Bu joy oddiy mahalliy ibodatxona shaklidan Xan sulolasi davriga kelib butun mamlakat miqyosidagi muqaddas ziyoratgohga aylandi. Mil. av. 195 yilda birinchi Xan podshohi Lyu Ban shaxsan o'zi Konfutsiy ibodatxonasida unga atab «tay-lyao» (Xitoyda eng oliy qurbonlik – qo'y, xo'kiz va cho'chqa) uchlik qurbonligi keltiradi.

Mana shu asrdan boshlab Konfutsiy nomi Xitoyda ilohiylashtirildi va unga atab muntazam qoidalar asosida qurbonliklar qilinadigan bo'ldi.

Xan sulolasi davrida Konfutsiyga knyazlik unvoni berildi. X-XIII asrlarga kelib, Sun sulolasi davrida unga imperatorlik unvoni, otasiga esa knyazlik unvoni berildi. Keyinroq Yuan va Min sulolalari (XIII-XIV asrlar) davrida unga yana ham yuksakroq daraja – «Haqiqiy donishmand», «Millatlarning buyuk ustoz» unvonlari berildi.

Xitoyning deyarli barcha shaharlarida Konfutsiyga atab qurilgan ibodatxonalar paydo bo‘ldi. Bunday ibodatxonalar soni mingga yaqin edi. Dastlabki paytda ibodatxonaning qurbonlik qilinadigan joyida oddiygina Konfutsiy nomi yozilgan lavha osilgan edi. Xitoyga buddizm kirib kelgach, lavha o‘rnini endi Konfutsiyning haykali egalladi. suyfudagi ibodatxonadan boshqa hammasi bir xil shaklga ega edi. Unda Konfutsiy haykali yoniga 86 shogirdining nomi bitilgan lavha yoki haykallar qo‘yilgan. suyfudagi ibodatxonada ularning soni ko‘proq.

Faylasufga atab qilinadigan qurbonliklar va boshqa muhim marosimlar tartibga solingan. Har oyning birinchi va 15-kunlarida ikki marta Konfutsiy haykali oldida odatiy qurbonliklar, yilda – bahorda va kuzda ikki marta alohida tantanali marosimlar o‘tkazilar edi. Tantanaga kelgan imperator va ularning mulozimlari donishmand timsoli oldida turib, unga: «Sen buyuksan, ey mutlaq donishmand, sening fazilatlaring ko‘p, ta’limoting beqiyos, o‘tganlar orasida senga tengi yo‘q!» – kabi hamdu sanolar bilan murojaat qilganlar.

Konfutsiy nomi o‘rta asrlarga kelib Xitoyda ilohiylashtirildi. Uning timsoli podshohlar boshidagi tojlardan o‘rin oldi.

DAOSIZM

Daosizm falsafiy ta’limot sifatida Xitoyda mil. av. birinchi ming yillikning o‘rtalarida konfutsiychilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo‘ldi. Bu ta’limot dastavval bir muncha mavhum xarakterga ega bo‘lib, din bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan. Ushbu ta’limot tarafdorlari ham konfutsiychilar kabi o‘z zamonalaridagi harakatlarga qarshi bo‘lganlar. Daosizm targ‘ibotchilari ham hukmdorlar orasidagi tinimsiz urushlarni

qoralar edilar. Ular ham boshqa bir qator falsafiy ta'limotlar qatori orqaga – «Oltin asr»ga – qaytishga chaqirar edilar.

Daosizm o'zining ilk ko'rinishida nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga aloqador edi. Bu shamanizm, folbinlik, tabiblik bilan bog'liq edi. Chunonchi qadimgi davolash uslublari falsafa, ayniqsa, daosizm falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shamanlar davolash uslublari inson tanasidagi jarayonlarni tashqi fazoviy kuchlar, har xil ruhlar ta'siri bilan bog'lab, jodugarlik va sehrdan keng foydalanganlar.

Daosizm mil. av. IV-III asrlarga kelib nazariy asarlar paydo bo'la boshladi. Bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy va axloq masalalari daosizm uchun unchalik muhim sanalmadi. Biroq daosizm vakillari ilk bor borliq, tabiat, koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqarib boshladilar. Xitoydagi shis faylasuflar akademiyasida daosizm nazariyotchilari: Tyan Pen, Sun szyan, In Ven, Shen Dao, Xuan Yuan va boshqalar to'plangan bo'lib, ular inson va uni o'rab turgan borliq xususida beto'xtov munozaralar olib bordilar va risolalar yozdilar. Bunday asarlar hozirgi kungacha saqlanmagan, biroq daosizmning asosiy manbasi sanaladigan «Daodeszin» risolasida o'z aksini topgan. Mazkur risola muallifi Lao-Szi hisoblanadi. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar kam, borlari ham noaniq. Afsonalarga qaraganda, Lao-Szi onasining qornida bir necha o'n yillar yashab, keksa donishmand holida dunyoga kelgan. Shuning uchun uni «Lao-Szi» – «Keksa donishmand», «Qari bola» deb atadilar.

Lao-Szi mil. av. VII da tug'ilgan, Konfutsiyning zamondoshi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy yodgorliklarida Konfutsiyning Lao-Szi bilan uchrashganligi, uning donoligidan hayratga tushgani va uni *ajdaho* deb atagani haqida rivoyat keltiriladi.

Lao-Szi ta'limotiga ko'ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi «Ulug' Dao» hisoblanadi (*dao, tao* «yo'l», «haqiqat», «tartib» demakdir). *Dao* haqidagi ta'limot konfutsiychilikda bo'lgan. Chunki *dao* to'g'risidagi fikrlar konfutsiychilik va daosizm shakllanishidan ancha oldin mavjud edi, shuning uchun ham har ikki ta'limotning o'xshash jihatlari ko'p. Konfutsiy *daoni* jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar tajassumi deb hisoblagan. Boshqacha aytganda, *dao* – ijtimoiy me'yorlar, intizom va axloqning yig'indisidir. Daosizm vakillari uchun *dao* o'zgacha mazmunga ega: *dao* umumiy tabiat qonuni va ibtido intihoning o'zagidir. Umumiy mazmunda *dao* – butun borliq demakdir. *Daoni* hech kim yaratmagan, barcha narsalar *daodan* kelib chiqqan va unga qaytadi. *Dao* hech kimga ko'rinmaydi, sezgi a'zolari uni ilg'ay olmaydi. Nimani ko'rish, eshitish, sezish, anglash mumkin bo'lsa, u *dao* emas.

Daosizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri bu *dao* va u bilan aloqador tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o'limning nisbiyligi va shunga bog'liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir. Milodning birinchi asrlari – Xan asriga kelib, abadiy hayot masalasi daosizm olimlarining asosiy muammosiga aylandi. Uchinchi va so'nggi masala *uvey* prinsipidir. Daosizm falsafasining mana shu uch ta'limoti Xan asriga kelib daosizm dinining shakllanishiga asos bo'ldi.

Daosizm birinchi ming yillikda buddizm va konfutsiychilik bilan raqobatlashib keldi. VI asrga kelib, daosizm konfutsiychilikdan keyin ikkinchi o'rinni egallagan edi. XIII asrdan boshlab daosizm ta'limotining

aniq asoslarga ega emasligi va ilk davrdagi yuksak ta'limotlari turli xurofotlar bilan almashgani tufayli inqirozga yuz tuta boshladi.

asr boshlariga kelib Xitoyda turli daosizm sektalariga qarshi kurash boshlandi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida daosizm tarafdorlari juda ozchilikni tashkil qildi. Ushbu kichik guruhlar monaxlar, targ'ibotchilar va bashoratchilarni o'z ichiga olar edi.

SINTOIZM

Sintoizm dini Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (*sinto* – «xudolar yo'li»). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq, u Yaponiyada Xitoy ta'siridan xoli bir sharoitda paydo bo'lgan va rivojlangan. Yaponlar sintoizmning mohiyati va kelib chiqishini bir-biri bilan aralastirmaslikka harakat qiladilar. Sintoizm ular uchun ham tarix, ham an'ana, ham butun hayot demakdir.

Sintoizm ta'limotiga ko'ra, *mikado* (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar(*kama*)ning vorisidir. Yaponlar *kamani* ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qiladilar. Xudojo'y yapon o'lgandan keyin o'zining ham o'sha *kamalardan* biri bo'lishiga ishonadi.

Sintoizmدا «Oliy ilohiyat» tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhiga va tabiatga sig'inishga o'rgatadi. Sintoizmدا umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar yo'q. Unda bir umumiy ma'naviy qoida – «Umumiy qonunlarga rioya qilgan holda tabiat qoidalariga mos harakat qil» g'oyasi mavjud. Yaponlar tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tabiatan bilganlar, shu tufayli, jamiyatdagi qoida va talablarga rioya qilish tabiiy. Agar

shunday bo‘lmaganda, ular o‘rgatilmagan yovvoyi hayvonlardan ham pastroq darajada bo‘lar edilar.

Sintoizm haqidagi ma’lumotlar «Kodziki» («Qadimiy yozuvlar») va «Nixongi» («Yaponiya annallari») manbalarida uchraydi.

Kodziki – bu sintoizmning muqaddas kitobi. U har bir yaponning eng yaqin kitobidir, boshqacha aytganda, bu kitob Yaponiyani, yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi. Unda ikkita asosiy mazmun mujassam: qon-qabilaviy birlik va siyosiy hokimiyat g‘oyasi.

Yapon yozuvlarida ta’kidlanishicha, olamda avval tartibsizlik (xaos) hukmronlik qilgan. Undan so‘ng yer osmondan ajralib chiqqan hamda ayol va erkak jinsi paydo bo‘lgan. Ayol jinsi timsolida ayol xudo Izdanami, erkak jinsi timsolida uning eri Izdanagi yuzaga keldi. Ulardan ayol jinsidagi quyosh ilohiyati Amaterasu, erkak jinsidagi oy ilohiyati sukiyomi, shamol va suv ilohiyati Susanoo tug‘ildi. Amaterasu g‘alaba qilib osmonda qoldi, Susanoo esa yerdagi Idzumo mamlakatiga quvildi. Susanooning o‘g‘li Okuninusi Idzumo hokimi bo‘ldi. Amaterasu bu holatga chidab tura olmay, Okuninusi hokimiyatini o‘z nabirasi Ninigiga topshirishga majbur qildi. Ninigi osmondan tushib, Idzumo davlati rahbarligini qabul qildi. Unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa – ko‘zgu (ilohiylik timsoli), qilich (qudrat timsoli) va *yashma* (sadoqat va fidoiylik timsoli) topshirildi. Ninigidan Dzimmutenno kelib chiqdi. Tinno unvoni «oliy hukmdor» ma’nosini anglatadi. Bu so‘z boshqa tillarda imperator ma’nosini bildiradi. Dzimmutenno *Mikado* – yapon imperatorlari sulolasining birinchi vakili, Yaponiyaning birinchi afsonaviy imperatori hisoblanadi. Ko‘zgu, qilich, *yashma* o‘sha qadim zamonlardan beri yapon imperatorlari xonadonining belgisi bo‘lib qolgan.

Imperator-*mikado* yaponlar tasavvurida o'zining ilohiy kelib chiqishi sababli butun xalq bilan qon-qardosh bo'lib, u bir oiladan iborat millatning boshlig'idir. Hatto Yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan *syogunlar* ham o'zlarini *mikado* namoyandalari deb ataganlar. Sintoizm ta'limotida yoritilgan *mikado* g'oyasining boshqaruvchilik xususiyati hozirgi kunda kuchi anchagina zaiflashgan bo'lsa-da, yaponlar tasavvuridan o'chib ketmagan.

Hozirgi kundagi yaponlar tashqi ko'rinishdan bu ta'limotga bir oz e'tiborsiz ko'rinsalar-da, chin dildan unga ongli ravishda ehtirom bilan yondashadilar. Hozirgacha sintoizm ibodatxonalarida imperator oilasiga atab turli marosimlar o'tkazilib turadi.

Sintoizm yaponlarga mavjudot olami, tabiat bilan o'zaro munosabatlarga o'ziga xos qarashni singdirgan. Bu qarashlar besh tamoyilda namoyon bo'ladi.

Birinchi tamoyil mohiyatiga ko'ra, butun borliq dunyoning o'z-o'zicha rivojlanishi natijasidir. Dunyo o'z-o'zidan vujudga kelgan bo'lib, yaxshi va mukammaldir. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, olamni boshqaruvchi kuch xristian yoki musulmonlar e'tiqodidagidek qandaydir oliy mavjudotda emas, balki olamning o'zida mujassamdir.

Ikkinchi tamoyil hayot kuchini anglatadi. Hayotdagi har bir tabiiy holat hurmat qilinadi. Faqatgina «nopok» bo'lgan narsagina hurmat qilinmaydi. Biroq har qanday «nopok»lik tozalanishi mumkin. Shu bois sintoizm marosimlari insonda moslashishga moyillik uyg'otishga qaratilgan: yaponlar tozalab, isloh qilingan va yapon urf-odatlariga moslashtirilgan har qanday yangilikni qabul qiladilar.

Uchinchi tamoyil tabiat bilan tarixni yagona deb tushuntiradi. Sintoizm ta'limoti dunyoni jonli va jonsizga ajratmaydi. Unga e'tiqod qiluvchilar nazdida dunyodagi hayvonlar, o'simliklar, jismlar, umuman, tabiatdagi barcha narsalar tirikdir va inson vujudida *kama* ilohiyatlari yashaydilar. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, *kamalar* dunyosi odamlar dunyosidan boshqa dunyo emas, balki u odamlar bilan birikib ketgan. Shuning uchun inson najotni qandaydir boshqa dunyodan olmaydi, balki najotga kundalik hayotda *kama* bilan birlashib ketish natijasida erishadi.

To'rtinchi tamoyil ko'pxudolik tushunchasi bilan bog'liq. Sintoizm mahalliy tabiat, urug', qabila ilohiyatlariga bag'ishlangan marosimlardan kelib chiqqan. Sintoizmning ibtidoiy shamanizm va sehrgarlikka oid odatlari faqatgina V-VI asrlarda – imperator *sinto* ibodatxonalari faoliyatini o'z nazoratiga olgach, hozirgi ma'lum bo'lgan yagona shaklga kirgan. VIII asr boshlarida imperator saroyida *sinto* ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil etildi. X asrga kelib esa, *sinto* ilohiyatlarining ro'yxati tuzildi. O'shanda ularning soni 3132 ta edi, keyinchalik esa bu son yanada ortdi.

Beshinchi tamoyil milliy ruhiy asos bilan bog'liq. Bu tamoyilga ko'ra, *sinto* ilohiyatlari – *kamalar* barcha insonlarni emas, balki faqat yaponlarnigina yaratganlar. Shuning uchun ham yaponlar o'z farzandlariga yoshligidanoq «biz *sintoga* tegishlimiz» degan aqidani singdirib boradilar. Shu yo'l bilan axloq normalarini boshqarishning ikki muhim omili mavjud. Birinchidan, *kama* juda intim yo'l bilan faqat yapon millati bilan bog'liq ekanligini tasdiqlash; ikkinchidan, sintoizm nuqtai nazaradan agar chet ellik kishi *sintoga* e'tiqod qilib, *kamaga* ibodat qilsa, yapon bo'lmagan kishining bunday qilishi axloqsizlik sanaladi. Shuning

bilan birga sintoizm yaponlarni boshqa dinlarga e'tiqod qilishlariga qarshilik qilmaydi: deyarli barcha yaponlar, sintoizm bilan bir qatorda, yana boshqa bir dinga e'tiqod qiladilar. Agar yaponlarni diniy e'tiqodiga ko'ra, guruhlarga ajratib, umumiy soni hisoblanadigan bo'lsa, ular soni mamlakat umumiy aholi sonidan ko'p chiqadi.

Sintoizmning o'ziga xos jihati shundaki, har bir ibodatxonaning o'z xudosi bo'lib, uning boshqa ibodatxonalarga hech qanday aloqasi yo'q.

Ibodot marosimlari. Oddiy yapon kishi uchun uning o'z ibodatxonasi, unda amalga oshiriladigan marosimlar, yilda bir marta bo'ladigan rangin bayramlar hayotining zaruriy qismi bo'lib qolgan. Uning ota-bobolari ham shunday yashaganlar, o'zi ham undan oshirmasdan shu tarzda yashaydi.

Ibodatxonalar uchun alohida o'ziga xoslik bilan birga ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud. Bu hukumatning din ishlarini tartibga solish va sintoizmi davlat diniga aylantirishga qaratilgan urinishlari natijasidir. Shunday urinishlarning biri 1868 yilda Meydzi qayta qurishidan keyin bo'lib o'tgan. O'shanda sintoizm ruhoniylarini o'qitadigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qilingan edi. *Kannusi* deb ataladigan bunday ruhoniylar lavozimi odatda meros sifatida uzatilar edi. 1946 yilda konstitutsiya yo'li bilan din davlatdan ajratildi.

Ibodatxonada turli amallar bajariladi. Dindorlar *mehrob* oldida turib, maxsus katakli qutiga biror tanga tashlaydilar, ta'zim qiladilar, bir necha chapak chalib va ibodat so'zlarini qaytaradilar. Ibodatxonada turli bayramlar ham uyushtiriladi.

Sintoizm bayramlari. Sintoizmning keng tarqalgan bayramlaridan biri Mosuridir. Bu bayram ba'zi ibodatxonalarda yilda bir marta,

ba'zilarida esa ikki marta nishonlanadi. Ko'pincha bu bayram dehqonchilik ishlarining boshlanishi, hosil yig'ib olish, shuningdek, ibodatxona yoki mahalliy xudoga bag'ishlangan sana bilan bog'liq bo'ladi. Bayram ko'tarinki kayfiyatda o'tadi. Ruhoniylar bayram haqida faqatgina doimiy ibodatga keladigan kishilarni emas, barcha aholini xabardor qiladilar. Mosuri bayramida juda ko'p odam to'planib, ular katta tantanalar bilan o'yin-kulgu qiladilar. Ayrim ibodatxonalarda Mosuri rang-barang karnaval ko'rinishida o'tadi.

YAHUDIYLIK

Yahudiylikka e'tiqod qiluvchilar Isroilda 4,7 mln. (aholining 80 %), AQShda 6 mln. (40 % Nyu Yorkda), Rossiyada 1,5 mln., G'arbiy Yevropa davlatlaridan Fransiyada 0,6 mln., Buyuk Britaniyada 0,4 mln. va boshqa mamlakatlarda yashaydilar.

Paydo bo'lishi. Yahudiylik m. avv. 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan, yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan, faqatgina yahudiy xalqiga xos. Beruniy yahudiylar bu so'zni somiy tillaridagi *hoda* – «tavba qilmoq, tavba qilganlar» so'zidan kelib chiqqan deb da'vo qilsalar-da, aslida bu fikr noto'g'ri, «yahudiy» so'zi Ya'qub(as)ning o'g'li Yahudo nomiga nisbat berilgan. 2- nomi Banu Isroil bo'lib, *Isroil* – Ya'qub(as)ning 2- ismidan olingan. *Yevrey* so'zi «yahudiy» so'zining aynan tarjimasini emas, qadimiy somiy tillardagi *ibriy* so'zining o'zgargan shaklidir. *Ibriy* so'zi (arab. *'abara-ya'buru* – «kechib o'tmoq» fe'lidan) «kechib o'tganlar» ma'nosini beradi. Yahudiy qabilalari Urdun daryosini kechib, Falastinga kelganlar. Shuning uchun ularga *ibriylar* yoki *ibroniylar* («kechib o'tuvchilar») nomi berilgan.

Yahudiylik ta'limoti 4 asosga tayanadi:

1. *Yahvega imon keltirish.* Yahve soʻzi «rabb, parvardigor» maʼnosini bildiradi. Tavrotning «*Chiqish*» kitobida Xudoning Muso as.ga: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Isʼhoq, Yaʼqublarning parvardigori, u meni sizga yubordi» (Chiqish: 3). M. av. VI asr oxirlarida yahudiy ruhoniylari oddiy xalq hurmatini pasaytirib qoʻymasliklari uchun Yahve soʻzi oʻrniga murojaat uchun «Adonay» («Rabb, Xoja») soʻzini qoʻllashni buyurganlar. Faqat ruhoniylargagina ibodat vaqtida Yahve nomini tilga olishga haqli edi. Yahve yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi.

2. Yahudiylar yer yuzidagi xalqlarning «*eng mumtozi*» va u «*dunyoda berilajak inʼomlarning eng haqlisi*» ekanligi.

3. *Messiya* – xaloskorning kelishi haqida. Oxirzamonda yahudiylardan bir xaloskor chiqadi va vazifalari: 1) dunyoni isloh qilib, qaytadan quradi; 2) yahudiylarni *Sinion* atrofida toʻplaydi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.

4. *Oxirat kuniga ishonish* haqidagi tasavvurlar, asosan Talmudda aytilgan. Unga koʻra, Yahvega chin eʼtiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar.

Muso (as) Tur togʻida Yahve bilan uchrashganda 10 ta lavha tushirilgan. Lavhalarda din asosini tashkil etgan 10 ta nasihat bor edi. Ular «*Ikkinchi qonun*» kitobida boʻlib, quyidagilardir:

1. Yahvedan boshqani iloh deb bilmaslik; 2. But, sanam va rasmlarga sigʻinmaslik; 3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik; 4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bagʻishlash; 5. Ota-onani hurmat qilish; 6. Nohaq odam oʻldirmaslik; 7. Zino qilmaslik; 8. Oʻgʻrilik

qilmaslik; 9. Yolgʻon guvohlik bermaslik; 10. Yaqinlarning narsalariga koʻz olaytirmaslik.

Talmudda marosimlar tizimi ishlab chiqilgan. Unda yahudiylar amal qilishi va bajarishi lozim boʻlgan 248 ta buyruq, 365 ta taqiq mavjud. Har bir yahudiy ushbu buyruq va taqiqlarga umri davomida rioya qilishi shart. Masalan, har bir yahudiy farzandi tugʻilganining 8-kuni xatna qilinadi. Maxsus qassoblar – *shoyixet* tomonidan diniy qoidalariga muvofiq soʻyilgan goʻshtlarnigina (toʻngʻiz goʻshti harom) yeydilar. Kiyinish qoidalari, asosan, erkaklarga tegishli. Kiyimlari bir rangli matodan uzun qilib tikilgan boʻlishi, choʻntaklari beldan pastda joylashishi, boshlari esa, doimo, hatto uyquda ham yopilgan boʻlishi kerak. Ibodat paytida maxsus ibodat choyshabi – «*tales*»ni yelkalariga tashlab oladilar. Uning qirgʻoqlarida 613 ta tugun tugilgan boʻlib, bu narsa «248 ta buyruq va 365 ta taʻqiqqa amal qilaman, deganidir.

Tavrot manbalari. 2ta manba boʻlib, biri – m. av. XIII asrda yashagan Muso (as)ga Tur togʻida berilgan **Tora** (Tavrot; Torah of Moses; Totah shebikhtav), 2-si **Talmuddir**. Bu 2 manba Bibliyaning tarkibiy qismlaridir (aynan emas). Xristianlar va yahudiylar *Bibliya* soʻzini turli tushunadilar. Yahudiylar uchun *Ibriy Bibliyasi* (Hebrew Bible) xristianlarning *Qadimiy Ahd*i (Old Testament). Yahudiylar *Bibliya* soʻzi ostida koʻpincha oʻzlarining *Tanaxlarini* (Tanakh) tushunadilar. 5 kitob «**Tavrot**» deb ataladi va quyidagilar: 1) «*Borliq*» yoki «*Ibtido*»; 2) «*Chiqish*»; 3) «*Levit*»; 4) «*Sonlar*»; 5) «*2-qonun*».

*Qadimiy Ahd*ning ichidagi diniy taʼlimot va aqidaga bagʻishlangan eng asosiy va obroʻli qismi Tavrotdir. Uni xristianlar «*Besh kitob*», yahudiylar «*Tora*» (taʼlimot) deyishadi. «*Ahd*» soʻzi xudoning insonlar

bilan maxsus aloqasini bildiradi. *Qadimiy Ahd* matni ibriy (eski yahudiy) va oromiy tillarida. U qadimgi payg‘ambarlarning kitoblari (Ketuvim), Sulaymon (as)ning matallari (Nevi‘im) va (Torah) nomli kitoblardan iborat. Unda «Xudo yarlaqagan» Isroil xalqining tarixi haqida hikoyalar beriladi.

Talmud. I-IV asrlarda yahudiy davlatining iqtisodiy va ijtimoiy tanazzuli ruhoniylar obro‘yini oshirdi. Ular o‘zlarini *ravvinlar* (*hazrat, janob*) deb atadilar. 66-70 yillardagi qo‘zg‘olonda Isroil xalqini halokatdan qutqarib qolgan *Ioann ben Zakkai* nomli shaxs yashirincha O‘rta yer dengizi bo‘yida *Yavne* (*Yavneh*) degan joyda tashkil qilgan diniy maktab *ravvinlar* ta‘limotini tarqatish markazi bo‘lib qoldi. Natijada Lidda, Sepforis, Ush, Tiveriada degan joylarda shunga o‘xshash maktab – «akademiya»lar tashkil etildi. Bu akademiyalarning rahbarlari «*nasi*» (*knyaz*) yoki *patriarx* deb ataldi. Ular bu maktablarga rahbarlik, hakamlik vazifalarini bajardilar hamda jamoaning barcha ishlarida rahbar, barcha yahudiylarning diniy rahnamosi hisoblanar edilar.

Mazkur patriarxlar boshqargan maktablarda «Talmud-xoxomlar», ya‘ni yahudiy diniy qonunchilari avvalgi «Galaxa» (yahudiy diniy qonunlari)ni sharhlash va yangilarini ishlab chiqish bilan shug‘ullandilar. Shu davrdan boshlab *Galaxalarni* sistemalashtirish ishlari boshlandi. *Galaxalar* uzoq davr og‘zaki ravishda avloddan-avlodga o‘tib kelgan edi. Bizgacha yetib kelgan «Mishna» (Mishnah) nomli *Galaxalar* to‘plami 210 yil atrofida III asrda yashagan Yuda Ha-Nasi (Judah Ha-Nasi) ismli patriarx tomonidan yozilgan. Keyinchalik Mishnaga ko‘p o‘zgartirishlar kiritilgan va unga turli shaxslar tomonidan sharhlar bitilgan. Unga yozilgan sharhlar «Gemara» (Gemara) deb atalgan. Mishna va

Gemaraning, ya'ni *Galaxalar* va ularning keyingi sharhlarining to'plami birgalikda Talmudni tashkil etadi.

Talmud (qad. yahud. "lameyd" – "o'rganish") mil. avv. IV asrlarda vujudga kelgan va yozma Toradan farqli o'laroq, avlodan-avlodga og'zaki ravishda o'tib borgan. Shuning uchun Tora «yozma qonun» (*Torah shebikhtav*), Talmud esa «og'zaki qonun» (*Torah shebe'al peh*) deb yuritilgan. Talmudning Falastin (Yerushalmi) va Vavilon (Bavli) nusxalari mavjud. Yerushalmi Talmudi milodning 390 yili atrofida, Bavli Talmudi milodning 499-yili atrofida tahrir qilingan.

Unda yahudiylarning esxatologik (oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo haqidagi) tasavvurlari o'z aksini topgan. Talmudda yahudiylikning marosimlari, urf-odatlari aniq bayon etilgan bo'lib, ular 248 ta vasiyat va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yahudiylar orasida din, firqa, guruhlar (sadduqiylar, farziylar, yesseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar yahudiy dinining asosini tashkil etadi.

Yahudiylarning Talmud qatoriga kiruvchi yana bir diniy manbasi *Midrashlar* (tafsir) hisoblanadi. Ular ham Talmud singari diniy qonun qoidalar to'plami bo'lib, yahudiy ravvinlarining Toraga yozgan sharh-tafsirlari hisoblanadi. Ular *Midrashlardan* ko'proq sinagoga targ'ibotlarida foydalanadilar.

Yahudiylikdagi oqimlar. Yahudiylikdagi oqimlar haqida so'z yuritganda ularni qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo'lish kerak. Qadimiy oqimlarga saduqiylar, farziylar, yesseylar kiradi. Zamonaviy oqimlarga esa sionizm kiradi.

Saduqiy nomi podshoh Dovud payg‘ambar davrida yashagan ruhoniylar Saduq ismi bilan bog‘liq. Ko‘plab mansabdor ruhoniylar saduqiy bo‘lganlar. Ular diniy ishlarda faqat qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so‘z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun saduqiylar qiyomatda o‘lganlarning qayta tirilishiga ishonmaydilar.

Farziy nomi qadimiy yahudiy tilidagi «tushuntirish», «ajratib ko‘rsatish» so‘zidan olingan bo‘lib, ular Musoning Qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o‘rgatganlar. Farziylar Muso zamonidan beri og‘zaki an‘ana davom etib kelyapti deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun Qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.

Ular muqaddas manba sifatida nafaqat Musoning Qonunini, balki boshqa payg‘ambarlarning ham muqaddas yozuvlarini, hatto o‘zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va bularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Shuning uchun ular taomga, kiyimga va boshqa narsalarga juda ehtiyotkor bo‘lganlar. qo‘l va badanlarining ozodaligiga katta e‘tibor berganlar. Farziylar qiyomatga, o‘lganlarning qayta tirilishiga ishonganlar.

Yesseylar Quddusdagi ko‘pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba‘zi diniy mansablarga Musoning Qonuniga nomuvofiq munosib bo‘lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko‘rgan bir guruh ruhoniylar Quddusda ibodat qilish va qurbonlik qilish Qonunga to‘g‘ri kelmay qoldi, deb hisobladilar va Quddusni tashlab, yahudiy sahrolariga chiqib ketib, o‘sha yerda o‘z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni *yesseylar* deb atashdi.

Yesseylar Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor – Messiyaning kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Sionizm (Zionism) nomi Quddusdagi Sion (Zion) tog‘i bilan bog‘liq. Bu oqim avstriyalik yahudiy jurnalist T. Herslning (Theoder Herzl; 1860-1904) nemis tilidagi «Yahudiy davlati» (Der Judenstaat) risolasi asosida XIX asr oxirlarida tuzilgan. Sionizm ilk davrda ravvinlar tomonidan qo‘llab quvvatlangan.

Bu oqimning maqsadi – yahudiylarning xudo tomonidan tanlangan mumtoz xalq ekanini targ‘ib etish va ularning o‘zlari yashab turgan turli o‘lkalardan chiqib, Falastinda «milliy birlashishi»ga erishishdir. Sionizm «jahon yahudiy millati» – «oliy millat» kabi g‘oyalarni ilgari suradi. G‘oyasiga ko‘ra sionizm siyosiy oqim bo‘lib, maqsadiga erishish yo‘lida yahudiy dinidan foydalanadi.

Qayta quruvchilar. Yahudiy ilohiyotchilari orasida yahudiy dinini isloh qilish va uni o‘rta asrlardagi holatiga qaytarish tarafdorlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ularning fikricha, dinni qaysidir bir jihatdan tanqid qilish uning ta’sir kuchini kamaytiradi. Shuning uchun dinning o‘zi qanday bo‘lsa, uni shundayligicha qabul qilish kerak. Bu fikr tarafdorlari yahudiy ruhoniylari orasida va Isroil davlat arboblari o‘rtasida keng tarqalgan. Ular o‘zlarini «qayta quruvchilar» deb ataydilar. qayta quruvchilar yahudiylikni sionizmning millatchilik g‘oyalari bilan qayta ishlab, uni o‘rta asrlardagi ravvinchilik holatiga qaytarishga urinadilar.

Yahudiy marosimlari va bayramlari yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat. Ibodat uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Sinagoganing sharqida Toraning nusxalari saqlanadigan sandiq va ravvin uchun minbar bor. Ayollar alohida ibodat

qiladilar. Sinagogadagi ibodat xor shaklida, o'g'il bolalar 8- kuni xatna qilinadi. Ba'zi oziq-ovqatlar, cho'chqa, quyon, qo'shoyoq, tuya, yaxlit tuyoqlilar, o'laksaxo'r qushlar kabilar yeyilmaydi.

Yillik bayramlarining eng e'tiborlisi Peysax (Pessah; Pasxa). U xristianlarnikidan farqli o'laroq, Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimda *Pasxa* deb qo'zichoq go'shti va sharobdan iborat kechki ovqat bo'lgan. Xudo Misrdagi noyahudiy go'daklarni qirishga qaror qilganda, ular uylari peshtoqini qon bilan bo'yaganlar. Pasxadan keyin 7 kun tuzsiz, xamirturushsiz patir – *masa* tanovul etishi bilan har bir yahudiy ota-bobolarining mashaqqatlarini his etadilar. Bu bayram yahudiylarning quyosh-oy kalendari bo'yicha *nison* oyining 14 kuni nishonlanadi (bu sana aprel oyining o'rtalariga to'g'ri keladi).

Pasxadan keyingi 50-kuni yahudiylar Shabuot, yoki Shevuot bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami bo'lgan, keyinchalik Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayramga aylangan. U yahudiylarning kalendari bo'yicha *sivona* oyining 6- va 7-kunlari nishonlanadi.

Kuzda yahudiy kalendaridagi *tishri* oyining 1- va 2-kunlari (sentabr oxiri-oktabr boshlari) yangi yil bayrami – Rosh-Ashona nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qo'chqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, cho'ntaklarini to'ntarib yaxshilab qoqadilar.

Tishri oyining 9 kuni gunohlardan poklanish bayrami – Yom-Kippur nishonlanadi. Rosh-Ashona va Yom-Kipur bayramlari o'rtasida

yahudiylar ro‘za tutadilar. Ro‘za kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski-tuski kiyimlarga o‘ranib yuradilar, sinagogada nadomatlar bilan yig‘lab tavba qiladilar.

Purim (qur‘a) bayrami yahudiy bayramlarining ichida eng quvnog‘i hisoblanadi. Bu bayram yahudiylarni qirib tashlamoqchi bo‘lgan fors podshohi Homon zulmidan qutilganliklari sharafiga bahorda nishonlanadi. Ularni Homondan o‘z amakisi Mordexay tarbiyalagan Yesfir ismli qizcha qutqargan. Shuning uchun bu kuni yahudiylar «Homonga la‘natlar bo‘lsin», «Mordexayga Xudoning rahmatlari yog‘ilsin», deb qichqiradilar.

O‘rta Osiyoga yahudiylar Eron orqali kelganlar. O‘rta Osiyoga hijrat ko‘p asrlar davom etdi. Ossuriya quvg‘inlari paytida – mil. avv. VII-VI asrlarda Eronga ko‘chib kela boshlaganlar. Hatto mil. avv. VIII asrlarda ba‘zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o‘lkalarda boshpana topganliklari haqida ham xabarlar bor. Yahudiylar II asrda Eron orqali Marvga kelib, shaharlarga tarqaldilar. Mahalliy yahudiylarning fors lahjalarining birida gaplashishadi. Ispaniyalik yahudiy sayohatchisi Benjamin de Tudelning ma‘lumotiga ko‘ra, 1165-yilda Samarqandda 30 mingga yaqin yahudiylar yashagan. Ma‘lumotlar afsonaviy.

XVIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg‘oniston, Xiva, Qo‘qon va Buxoro jamoalariga bo‘linib ketdi. Asosiy qismi Buxoro shahri va uning atroflarida yashaganligi tufayli O‘rta Osiyo yahudiylari «Buxoro yahudiylari» nomi bilan tanildilar. XVIII asrda O‘rta Osiyo yahudiylari tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793-yili asli G‘arbiy Afrikalik, Falastinning sfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag‘ribiy o‘z shahri

yahudiylari uchun moddiy yordam to‘plash maqsadida Buxoroga keladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko‘rganlar. O‘rta Osiyo yahudiylari Buxoro yahudiylari deyilsa-da, ular ko‘proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o‘rtalarida Nodirshoh (1736-1747) Samarqandni bosib olganda lashkarlarida turklar, lezginlar, afg‘onlar, ironiylar, yahudiylar bo‘lganlar. Ular Samarqandning Shoh-Kash, Chor-Raga, Novadon, Qo‘shhovuz kabi guzarlarida yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodirshoh davrida yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo‘lgan.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Hinduizm dinining mazmun mohiyati?
2. Vedalar. Braxmanlik. Haqida qanday ma‘lumotga ega bo‘ldingiz?
3. Konfutsiylik ta‘limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar nimalar o‘z ichiga olgan?
4. Yahudiylik dinining yuzaga kelishi.?
5. Yahudiylik din va ularning marosimlari?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.

4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Milliy dinlar mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

1. Sintoiylik dini qaysi davlatda vujudga kelgan?
 - A. Yaponiya
 - B. Xitoy
 - C. Hindiston
 - D. Tibet
2. Konfutsiy ta'limotida qaysi muammolar asosiy o'rin tutadi?
 - A. Ijtimoiy-axloqiy
 - B. Falsafiy
 - C. Estetik
 - D. Siyosiy
3. Daosizm qayerda paydo bo'lgan?
 - A. Yaponiya
 - B. Xitoy
 - C. Hindiston
 - D. Tibet
4. Konfutsiychilikning asoschisi kim?
 - A. Pan Gu
 - B. Lao Szi
 - C. Kun Szi
 - D. SHan Di
5. Sintoizmning bosh xudosi kim?
 - A. Quyosh ma'budasi Amaterasu
 - B. Oxirgi paygambar Jina
 - C. Saqlovchi xudo Vishnu
 - D. Yaratuvchi xudo Braxma
6. Jaynizm qaysi davlatning milliy dinidir?
 - A. Yaponiyaning
 - B. Xitoyning
 - C. Hindistonning
 - D. Mongoliyaning
7. Yahudiylik ta'limotida ular bilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar qanchani tashkil etadi?
 - A. 613 ta;
 - B. 546 ta;
 - C. 248;
 - D. 365;
8. Yahudiylik ta'limotida ular bilishi kerak bo'lgan taqiqlar qanchani tashkil etadi?
 - A. 613 ta;
 - B. 546 ta;
 - C. 248;
 - D. 365;
9. Hinduizm dinidagi oliy xudoni toping?
 - A. Shiva;

B. Braxma;

C. Vishnu;

D. Sinto.

10. Konfutsiyning shogirdlari

qancha bo'lgan?

A. 3 ming;

B. 72 ta;

C. 2,5 ming;

D. Shogirdlari bo'lmagan.

3-MAVZU. BUDDIZM DINI TARIXI VA ASOSIY G‘OAYALARI

Darsning maqsadi: Buddaviylik dini darsida ushbu dinning tarixi, rivojlanishi, ta’limoti, asosiy manbaalari, o‘tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o‘rni haqida talabalarga ma’lumot berish.

REJA:

1. Buddaviylik dinining paydo bo‘lish tarixi, asosiy ta’limotlari, oqimlari va manbalari.
2. Tripitaka va buddaviylikning muqaddas manbalari.
3. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi.
4. O‘zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.

Tayanch tushunchalar: *Budda, to‘rt oliy haqiqat, najotning oliyjanob sakkiz yo‘li, “Tipitaka”, “Pancha shila”, “mahayana”, “xinayana”, “vajrayana”, lamaizm, “botthisatva”, “sansara”, “nirvana”, axloq, donolik, mediatatsiya.*

Buddaviylik (Buddizm) – uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e’tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy

Osiyo mamlakatlarida, Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tayland, Laosda va qisman Yevropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari - Buryatiya, Qalmiqiyada istiqomat qiladilar.

Hozirgi kunda dunyoda buddaviylar soni 750 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga yaqini monaxlardir.

Buddaviylikni din yoki falsafa, mafkura yoki madaniyat qonunlari to'plami yoki hayot tarzi deb baholash mumkin.

Buddaviylik asoschisi haqida xabar beruvchi folklor va badiiy adabiyotlar uni Siddxartxa Gautama, Shakyamuni, Buddha, Tadxagata, Djipa, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etadilar. Bu ismlarning ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa - shaxsiy ismi, Gautama - urug' ismi, Shakyamuni - shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Buddha - nurlangan, Tadxagata - shunday qilib, shunday ketgan, Djina - g'olib, Bxagavan - tantana qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashhuri Buddha ismi bo'lib, uning ismidan dinga buddaviylik nomi berilgan.

Hozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma'lumdir: "Maxavostu" – milodning II asrida yozilgan, "Lalitavistara" - milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, "Buddaxacharita" - Buddha faylasuflaridan biri Ashvagxoshey tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan, "Nidanakatxa" – milodning I asrida yozilgan va "Abnixishkramansutra".

Budda mil. avv. 563-yilda tug'ilib, 483-yilda vafot etgan. Siddxartxa Shakya qabilasining podshosi Shuddxodananing o'g'li edi. Uning saroyi Himolay tog'lari etagida Kapilavasti degan qishloqda bo'lgan (hozirda Nepal hududida). Onasi - malika Mayya. Podshoh o'g'lini orzu-havaslar

og‘ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxartxa ulg‘ayib qo‘shni podshohlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o‘g‘il ko‘rib, unga Raxula deb ism qo‘yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko‘rmay o‘sgan Siddxartxa bir kuni keksa chol, bemor hamda og‘ir mehnatli rohibni uchratadi, va nihoyat, bir kishining vafotiga guvoh bo‘ladi. Bundan qattiq ta’sirlangan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo‘llarini axtarib saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U besh rohib bilan qishloqma - qishloq kezib yuradi. Ko‘p vaqt bu rohiblarga hamrohlik qilib, ularning yo‘llarida ma’lum maqsad yo‘qligini, bu yo‘l o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi – insoniyatni azob uqubatdan qutqarishga olib bormasligini anglaydi va rohiblar jamoasidan ajraladi.

U chakalakzor o‘rmonlarda kezib, charchab bir daraxtning tagida dam olish uchun o‘tiradi va o‘zicha, to haqiqatni topmaguncha shu yerdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o‘tirishning 49 kuni uning qalbidan “Sen haqiqatni topding” degan sado keladi. Shu paytda uning ko‘z oldida butun borliq namoyon bo‘ladi. U hamma joyda shoshilinch qayoqqadir intilishni ko‘radi. hech bir joyda osudalik yo‘q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko‘zlab o‘tib ketayotgan edi. Inson aqli yetmas bir kuch. Trishna - yashash, mavjud bo‘lish umidi barchani tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratardi. Mana endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Budda – “nurlangan” deb ataldi. U tagida o‘tirgan daraxt esa – “nurlangan daraxt” - Botxa deb atala boshladi.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida, o'zining besh rohib do'stlariga qildi va ular uning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

Shu kundan boshlab Budda o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o'z ta'limotni tarqatib, o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil davomida o'z ta'limotini Hindistonning turli joylariga yetkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tdi. Uning jasadi, hind udumiga ko'ra, u yerda kuydirilib, uning xoki 8 ta budda jamoalariga bo'lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etishgan.

Buddaning hayoti haqida turli afsonalar ham to'qilgan. Bu afsonalarda aytilishicha, Budda ko'p yillar davomida Yer yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan: 84 marta ruhoni, 58 marta podshoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi qiyofalarda qayta tug'ilgan. Jami 550 marta qayta tug'ilgan. U doimo qayerda, qay qiyofada tug'ilishini o'ziga o'zi belgilagan.

So'nggi marta uni xudolar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko'ra, Yer yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o'tgan. Shuning uchun buddaviylikning ba'zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o'tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o'tgan desa, ayrimlari minglab Buddalar o'tgan deb da'vo qiladi.

Buddaviylik ta'limoti qadimiy hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy tizimdir. Budda yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan.

Balki har bir inson tug‘ilish va o‘lim mashaqqatlaridan qutilishi uchun amal qilishi lozim bo‘lgan bir necha ko‘rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta‘limoti insoning hayolida, ishlarida va o‘zini tutishida samimiy olijanoblik g‘oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta‘limotini inkor qildi, hayvonlarni qonli suratda qurbonlik qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda oliy yaratuvchi kuchning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu hayot kechirishidir.

Budda ta‘limotining asosi “hayot – bu azob-uqubat” va “najot yo‘li mavjud” degan g‘oyadir. Buddaviylik qonuniyatlariga ko‘ra, inson o‘ziga moslashgan mavjudot bo‘lib, o‘zida tug‘iladi, o‘zini-o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da‘vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o‘z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat - “Azob-uqubat mavjuddir” har bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot – qiynoq, azob-uqubatdir.

Tug‘ilish – qiynoq, kasallik – qiynoq, o‘lim – qiynoq, yomon narsaga duch kelish – qiynoq, yaxshi narsadan ayrilish – qiynoq, yomon narsadan ayrilish – qiynoq, o‘zi xohlagan narsaga ega bo‘lmaslik – qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog‘liqlik. Hech bir narsa ma‘lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddaviylik dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddaviylik ta‘limotiga ko‘ra, har qanday narsa yoki hodisa u hoh moddiy, xoh ma‘naviy bo‘lsin, dxarma (element)lardan tuzilgan. Bu

elementlar esa o‘z xususiyatiga ko‘ra, harakatsiz bo‘lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning xayol va so‘zlaridir. Obyektiv haqiqat bu doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi dxarmalar oqimidir. Harakatdagi dxarmalar mavjudligining 5 formasi – tana, sezgi, his-tuyg‘u, harakat, anglashni yaratadi. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqa qiladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o‘limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (skandx) o‘z navbatida qayta tug‘iladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo‘luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va norma. Bu jarayon “hayot g‘ildiragi”ni tashkil qiladi. “Hayot g‘ildiragi”da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo‘ladi.

Ikkinchi haqiqat - “qiynoqlarning sabablari mavjuddir”.

Inson moddiy narsalar yoki ma’naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo‘lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug‘ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo‘lish davom etadi. Buddaviylar fikricha, Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat - “qiynoqlarni tugatish mumkin”. Yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to‘g‘ri keladi. Bu holatda inson qayta tug‘ilishdan to‘xtaydi. Nirvana holati, buddaviylar fikricha, “hayot g‘ildiragidan” tashqariga chiqish, “men” degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg‘ullarini to‘la tugatishdir.

To‘rtinchi haqiqat - qiynoqlardan qutilish yo‘li mavjuddir. Bu yo‘l - “Sakkizta narsaga amal qilish, to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri harakat qilish, to‘g‘ri muomalada bo‘lish, fikrni to‘g‘ri jamlash”. Bu yo‘ldan borgan inson Budda yo‘lini tutadi.

Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddaviylik ta‘limoti asosan uch qismdan iborat: meditatsiya, axloq normalari, donishmandlik.

1. Meditatsiya deganda quyidagilar tushuniladi:

To‘g‘ri tushunish (e‘tiqod qilish) – Buddaning birinchi da‘vatida yuritilgan so‘z to‘rt haqiqatni bilish va unga ishonish;

To‘g‘ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo‘lishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar yetkazib qo‘yishdan saqlanishga intilish;

To‘g‘ri o‘zini tutish – o‘zingniki bo‘lmagan narsani olmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;

To‘g‘ri anglash – o‘z tanasi va ruhiga o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan darajada nazoratda bo‘lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo‘yish;

To‘g‘ri harakat qilish – o‘zidagi yomon tuyg‘ularni jilovlash hamda ezgu tuyg‘ular va harakatlarni rivojlantirish;

To‘g‘ri hayot kechirish – noma‘qul hayot tarzidan saqlanish;

To‘g‘ri fikr yuritish – kamolotning to‘rt bosqichini ketma-ket bosib o‘tish;

To‘g‘ri gapirish – yolg‘ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

2. Axloq normalari – bu Budda “Pancha Shila” besh nasihati:

Qotillikdan saqlanish;
O'g'rilikdan saqlanish;
Gumrohlikdan saqlanish;
Yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish;
Mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

3. Donishmandlik – bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan uch amaliyot bosqichini o'tagan inson oxir oqibatda oliy saodatga, ya'ni nirvana holatiga erishadi. Nirvana so'zmaso'z "o'chish, so'nish" ma'nolarini anglatadi. Unda hayotning har qanday ko'rinishiga intilish yo'qoladi.

Buddaviylikning yoyilishida Sangxa - buddaviylik jamoalarining roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi bo'lgan 9 oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, ular aholisini buddaviylikka da'vat qilib, ularga Buddha ta'limotini o'rgatib yurishgan. Faqatgina Musson yomg'irlari tinmay quygan 3 oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib ibodat bilan shug'ullanganlar.

Miloddan avvalgi 273-232 yillarda hukmronlik qilgan Imperator Ashoka davri buddaviylikning keng hududga yoyilishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Ashoka o'zining ilk hukmronlik paytidanoq buddaviylikka e'tiqod qila boshladi. U buddaviylikka, monaxlariga, ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik qildi. Ular o'z da'vatlari asosida biron-bir yerlik aholi yoki ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchrasalar ham hech qanday qarshi harakat qilmay, o'z yo'llarida davom etganlar. Agar mahalliy aholi

tomonidan o‘zlariga nisbatan xayrixohlik sezilar, o‘sha yerga ko‘proq ahamiyat berib, ularni ko‘proq da’vat qilishgan.

Buddaviylik jamoalari har qanday boshqa din, madaniyat va urf-odatlar qamrovida yoki aralashuvda bir necha yuz yillab o‘zlarini saqlab qolish hamda fursat kelganda ularga o‘z ta’sirlarini o‘tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlar davrida, Shri-Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya konfutsiychilari davrida, Janubi-Sharqiy Osiyoga buddaviylikning yoyilishida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Buddaviylikning maxayana yo‘nalishi Xitoyga milodning birinchi asrida kirib kelgan. III-VI asrlarda buddaviylik Xitoy hududida keng tarqaldi. Bu vaqtda poytaxt yaqinidagi Loyana hamda Chanani kabi shaharlarda 180 ga yaqin budda ibodatxonalari hamda diniy markazlar faoliyat yuritgan.

Maxayananing shakllanishida Kushon davlatining roli katta bo‘lgan. Mana shu yerdan, Kushon davlatidan, ayniqsa, Kanishkaning hukmronlik davridan so‘ng buddaviylikning maxayana yo‘nalishi Sharqda, Markaziy Osiyoning davlat va shaharlariga tarqala boshladi. Buyuk Ipak yo‘li orqali birinchi buddaviylik targ‘ibotchilari Xitoyga kelgan edilar. Keyingi buddaviylar buddaviylikning Xitoyda paydo bo‘lishi haqida ko‘plab rivoyatlar va afsonalar to‘qiganlar. Biroq Xitoy manbalarida ham, buddaviylar rivoyatlarida ham Xitoydagi birinchi buddaviy haqida biror aniq ma’lumot mavjud emas. Mazkur eslatmalar ichida mashhurrogi imperator Min-Dining tushi haqidagi xabar hisoblanadi. Aytilishicha, u tushida oltindan yasalgan bir but ko‘rgan, uning Buddha ekanligini maslahatchisi Fuidan so‘rab bilgach, milodning 60-yillarida Buddha

haqida ma'lumotlar hamda diniy matnlar keltirish uchun Hindistonga elchilar yuborgan. Shundan so'ng Xitoyga Hindistondan bir necha buddaviylik targ'ibotchilari kelib, ular uchun maxsus qurilgan "Baymasi" (oq ot ibodatxonasi)ga joylashgan. Biroq tadqiqotchilarning aniqlashlaricha, bu kabi rivoyatlar ilmiy asosga ega emas. Xitoy hududiga kirib kelgan birinchi buddaviy kim ekanligi, qachon kirib kelganligi aniq emas.

Buddaviylikning xitoylashuvi va keng tarqalish jarayoni qiyin va murakkab kechgan. Buddaviylikning ilk g'oyalari va targ'ibotchilari Xitoyda paydo bo'lgandan boshlab bir necha asrgacha uning tarqalish jarayoni davom etdi. Buddaviylik Xitoy hududida keng yoyilishi bilan alohida yangi shakl ham kasb etdi. IV-V asrlarda buddaviylik katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu ta'limot o'lkaning janubiy viloyatlariga yanada chuqurroq kirib bordi. IV asrning oxirida Sharqiy Szin davlatining o'zida 1786 ta buddaviylik ibodatxonasi, 24 ming monax mavjud bo'lgan. IV asrning o'rtalariga kelib Xitoyda ayollar ibodatxonalari, ayol monaxlar va tinglovchilar paydo bo'lgan. Sal o'tmay, IV asrning oxiriga borib, podshohlar buddaviylik ibodatxonalariga tez-tez katta miqdordagi xayriyalar beradigan bo'lganlar. Xususan, imperator Siyaou-di 381 yil birinchi bo'lib o'zini buddaviy deb e'lon qildi va o'z saroyida ibodatxona barpo qildirib, unga monax keltirishni buyurdi. Lyao sulolasidan bo'lgan U-di hokimligi davrida (502-549) buddaviylik mamlakat janubida rasmiy din etib e'lon qilingan edi.

Shunday qilib, buddaviylik miloddan avvalgi 1 ming yillik oxirlarida Shri-Lanka, Markaziy Osiyo hamda Old Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorumizda olib borilgan arxeologik

qazilmalar asnosida O‘ratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzalaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari va ramziy g‘ildiraklar guvohlik berishicha, Kushon imperiyasida buddaviylikka katta ahamiyat berilgan.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda Koreya, VI asrda Yaponiya, VII asrda Tibet, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliya, XVII asrdan XVIII asrgacha Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda Amerika va Yevropa qit‘alariga kirib borgan.

Buddaviylik o‘z ta‘limotida hech qachon boshqa xudolarga sig‘inishni taqiqlamagan. Budda ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berishi mumkin, biroq ular nirvana holatiga olib bormaydi deb aytgan. Shu sababli, buddaviylik ta‘limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan xudolari yoki ulug‘langan shaxslari timsollari ibodatxonalarni egallagan.

Buddaviylik ta‘limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to‘plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) – uch savat ma‘nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo‘lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Buddaviylikning bu yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan. Ular – budda targ‘ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi va xonaqohlar nizomlariga bag‘ishlangan vinaya matnlari – Vinaya-pitaka, buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag‘ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan,

ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

Buddaviylik O‘zbekistonning janubiy hududlarida yangi eraning boshlarida o‘rnashdi. Buddaviylikning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishini odatda kushonlarning hukmronligi bilan bog‘laydilar. Imperator Kanishkaning hukmronligi davrida Kushon podshohligi ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan. Milodning birinchi asrida Amudaryo havzasi bo‘ylarida buddaviylik hukmron din sanalgan va bu yerda arablar kelishiga qadar boshqa joylardagiga nisbatan uzoqroq vaqt saqlanib turgan.

Kushon podshohi Kanishka buddaviylik diniga e‘tiqod qilgan. U zarb qildirgan tangalarda boshqa ilohiyatlar bilan bir qatorda Budda tasviri ham uchraydi. Xitoylik Syuan-Szyan bergan xabariga ko‘ra, VII asrning boshlarida Termizda 10 ta buddaviylik monastirlari (sangarama) va mingta rohib bo‘lgan.

V-VIII asrlarda Eftalitlardan keyin buddaviylik Markaziy Osiyoda tanazzulga yuz tuta boshladi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, baktriyaliklar san‘atga o‘z madaniy an‘analarini olib kirdilar.

Buddaviylikda Budda ta‘limoti va hayotining botiniy mohiyatini ifodalovchi ramz-timsollarning butun boshli bir tizimi shakllantirilgan. Ko‘proq tarqalgani Budda va uning ta‘limotini anglatuvchi g‘ildirak yoki yarqirab turuvchi aylana tasviridir.

Buddaning hayotiy aylanishlari bosqichlarini ifodalovchi ho‘kiz, sher, fil, ot ramzlari keng tarqalgan (masalan, fil – Yer uzra ko‘tarilgan Budda ramzi).

Shuningdek, Budda tagida o‘zining ilk va’zlarini aytgan muqaddas Bodxa daraxti tasviri ham buddaviylikning badiiy-diniy ramzi hisoblanadi. Arxitektura majmuasi tashkiloti buddaviylikda qat’iy qonunlar asosida amalga oshirilgan va bo‘rttirib ishlangan rasmlar, haykal, tasvirlar joyi va xarakterini belgilagan.

XX asrning boshlaridayoq Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida buddaviylikka oid ko‘p sonli tangalar, haykaltaroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklarni topganlar; ko‘pincha ular qimmatbaho metallar – oltin yoki kumushdan yasalgan (odamlar va hayvonlarning haykalchalari).

1927 yilda Sharq madaniyatlari muzeyi ekspeditsiyasi qadimiy Termizni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot o‘tkazib, u yerda qator grek-buddaviylik yodgorliklari mavjudligini aniqladi. Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining (TAKE) ishlari natijasida Qoratepa va Chingiztepa balandliklarida ikkita yirik buddaviylik monastiri bo‘lganligi aniqlandi va buddaviylik me‘morchiligi va haykallarining parchalari topilgan o‘nlab joylar qayd etildi.

Ular orasida Ayritom shaharchasi alohida o‘rin egallaydi. U Termizdan 17 km. masofada, Termizdan Pomiroldi o‘lkalariga ketaverishda, Amudaryoning qadimiy kechuvi yaqinida, tik qirg‘oqning o‘ng tomonida joylashgan. Mazkur joyning o‘rta asrga qadar davri haqidagi batafsil ma’lumotlar VII asrda yashab o‘tgan Xitoy ziyoratchisi Syuan-Szyan tomonidan qoldirilgan. Ko‘hna shahar uch tomoni devor bilan o‘ralgan tepalik mavjud va tepalik tevaragidagi qishloq qoldiqlaridan iborat. Ko‘hna shaharning sharq tarafida aftidan buddaviylik stupasiga o‘xshash minora shaklidagi xom g‘ishtdan qurilgan

bino joylashgan. Arxeologlar bu binoni buddaviylik monastiri deb hisoblaydilar. Bu monastir o'z ichiga ibodatxonalardan tashqari rohiblar uchun yotoqxona va qator xizmat xonalari, ya'ni oshxona, omborxonalarni oladi.

Ayritom monastirlar qishlog'iga hindistonlik qandaydir buddaviylik jamoasi a'zolari tomonidan asos solingan bo'lishi ehtimol. Ayritom monastir qishlog'i hududida mavjud ishlab chiqarish hunarmandchiligidan kulolchilik, metall buyumlar ishlash, idish-tovoqlar ishlab chiqarish, mergel ohaktoshdan me'moriy detallar ishlash kasblari aniqlandi.

Ayritomdagi ibodatxona buyumlaridan quyidagilar topildi: ostida Budda nurlangan daraxt ramzidagi besh qavatli loydan yasalgan chaytya, u odatda diniy marosimning idishi – relikvari ustida bo'lgan yoki stupaning sirtqi qismi bo'lib xizmat qilgan; yana ustida palmetta tasvirli gardish ushlagan o'smir ifodalangan tosh topilgan bo'lib, aftidan, u yigit donator-ibodatxona xizmatchisi bo'lgan; bodxisatvaning bolalikdagi o'yinlari haqidagi xotiralar bilan bog'liq bo'lgan, buddaviylarning sevimli tasviri – loydan yasalgan qo'y kallasi; loydan yasalgan stolchalar – diniy marosim buyumlari uchun poya hisoblanib, ularga Buddaning o'tirgan holdagi haykal-namunalari qo'yilgan.

Qoratepa nomi bilan mashhur tepalik buddaviylikning eng yirik ruhoniylar markazi hisoblangan. Kushonlar davrida Qoratepa Termizning tashqi devori himoyasi ostida shahar tashqarisida joylashgan.

Buddaviylik tarqalgan davrda qadimiy e'tiqodlar ta'sirining barqarorligi haqida qo'sh alanga qurshovida o'tirgan Budda tasviri

guvohlik beradi. Uning yonida IV-V asrlarga tegishli bo‘lgan va tirnab yozilgan baktriya yozuvida “buddamazda” so‘zi ifodalangan.

Ibodatxona to‘rtburchakli hovliga ega bo‘lib, uning atrofiga shu xovliga chiquvchi 19 ta bino joylashgan. Hovlini barcha to‘rt devori bo‘ylab supa qilingan bo‘lib, ular muqaddas ohak toshlari asosida qurilgan ustunlarga suyanib turgan ayvon bilan yopilgan. Hovli devorlari naqshlar bilan qoplangan. Xususan, markazida ibodatxona tasvirlangan janubi-g‘arbiy devorda rohib kiyimidagi Buddha chizilgan bo‘lib, uning atrofini kichik Buddha haykalchalari o‘rab turibdi. Mehrob devorlari ham yozuvlar bilan qoplangan. Devorlardan birida ikkita tik turgan Buddha suratlari tasvirlangan bo‘lib, ularning har ikki tarafiga ikkita ayol ko‘rinishlari tasvirlangan. Qarama-qarshi devorda sovg‘a ulashuvchi erkaklar tasvirlangan, bundan tashqari boshqa mazmundagi suratlar ham mavjud. Chizmalarning o‘ta qimmatbaholigidan tashqari, Buddalarning bu jonli tasviri dunyodagi eng qadimgi sanaladi. Ular milodiy I-II asrlarga tegishlidir.

1962 yilda Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa degan joyda buddaviylik ibodatxonasi, vino tayyorlash qurilmalari, dafn qilish joyi – naus topilgan. Shahar hududida kulol, hunarmand va boy zodagon uylarining qoldiqlari, shuningdek, mashhur oltin dafina va fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan.

Markaziy Osiyo hududlarida birinchi marta loydan yasalib yaxshi saqlangan Buddha tasviri, ko‘plab haykalchalar, bezaklar, diniy marosim buyumlari va tangalar topilgan, ular II asr oxiri III asr boshidagi buddaviylik ibodatxonasining markaziy binolari ichida saqlangan.

Boshqa binolarda katta miqdorda haykalchalar bo‘laklari, taqinchoqlar topilib, ularning ko‘pchiligiga oltin suvi yuritilgan. Buddha tasvirlangan rasm parchalari, ko‘plab sopol idishlar, jumladan: devorlarida qadimgi yunon, hind yozuvidagi braxma bitiklari saqlangan ko‘za qoldiqlari, chiroqlari topilgan.

1957 yilda Farg‘ona vodiysidagi Quva shahri vayronalarida arxitektura va haykaltaroshlikning ajoyib namunasi bo‘lgan buddaviylik ibodatxonasi qoldiqlari topilgan. Ushbu ashyoviy dalillar Farg‘ona viloyatida VII asrda buddaviylik dini keng tarqalganini tasdiqlaydi. Holbuki, bu davrda Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida zardushtiylik dini hukmron bo‘lgan.

1974 yilda Zartepada O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining qazish ishlari olib borilishi natijasida buddaviylik ibodatxonasi topilgan. Bu yerda Buddaning oltin suvi yuritilgan haykali va ikkita bronza shamdon topilgan.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Buddaviylik dini qachon paydo bo‘lgan?
2. Siddhartha Gautama haqida nimalarni bilasiz?
3. “Nirvana” nima?
4. Buddaning “najatning oliyjanob sakkiz yo‘li” haqidagi qarashlarining ahamiyati nimada?
5. Buddaviylikning qanday muqaddas kitoblari mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Buddizm dini tarixi va asosiy g‘oyalari mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

1. Buddaga dastlab necha kishi hamroh bo`ladi?
 - A. 5 kishi;
 - B. 6 kishi;
 - C. 7 kishi;
 - D. 8 kishi.
2. Buddaviylik dinida azoblardan qutulish uchun inson qanday holatga erishishi kerak?
 - A. Meditatsiya;
 - B. Donolik;
 - C. Trishna;
 - D. Nirvana.
3. S. Gautama necha yoshida saroyni tark qiladi?
 - A. 30 yosh;
 - B. 33 yosh;
 - C. 40 yosh;
 - D. 20 yosh.
4. Buddizm dini qachon paydo bo`ldi?
 - A. Milodimizdan avv. V asrda;
 - B. Milodimizdan avv. VI-V asrda;
 - C. Milodimizning I asrida;
 - D. Milodimizgacha XIII asrda.
5. Buddizmda ishongan kishining asosiy maqsadi nima?
 - A. «Muqaddas qadamjo»larga sig`inish
 - B. Rohiblikni qabul qilish ;
 - C. Qayta tug`ilish zanjiridan o`tish;
 - D. Ilohlarga sig`inish.
6. Buddaviylik dinining asoschisi Siddxarta Gautama kim bo`lgan?
 - A. Dehqon;
 - B. Cho`pon;
 - C. Savdogar;
 - D. Shahzoda.
7. S. Gautama haqiqatni anglashda necha kun daraxt tagida o`tirdi?
 - A. 44 kun;
 - B. 49 kun;
 - C. 55 kun;
 - D. 30 kun.
8. Buddaviylik dinida inson erishishi mumkin daraja qanaday nomlanadi?
 - A. Rohib;

- B. Ruhoniy;
- C. Ravvin;
- D. Nirvana.

A.

8. Nechanchi yilda ko‘tarilgan
qo‘zg‘olon natijasida Xitoyda
Yuan sulolasi tugatilgan?

- A. 1337-yili
- B. 1366-yili
- C. 1368-yili
- D. 1377-yili

9. Buddaviylikda Budda o‘tirgan
daraxt qanday nomlandi?

- A. Trishna;
- B. Mayya;
- C. Botxa;
- D. Gautama.

10. Buddaviylik dinida azoblardan
qutulish uchun inson qanday
holatga erishishi kerak?

- A. Meditatsiya;
- B. Donolik;
- C. Trishna;
- D. Nirvana.

4-MAVZU. XRISTIAN DINI TARIXI VA ASOSIY G‘OYALARI

Darsning maqsadi: Xristianlik dini darsida ushbu dinning tarixi, rivojlanishi, ta’limoti, asosiy manbaalari, o‘tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o‘rni haqida talabalarga ma’lumot berish.

REJA:

1. Xristianlikning paydo bo‘lishi, aqidalari, asosiy yo‘nalishlari, ta’limotlari va manbalari.
2. Katolitsizm, pravoslavlik va protestantlik dini yo‘nalishlarining o‘zaro farqli tomonlari.
3. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o‘rni.

Tayanch tushunchalar: *Qadimgi Ahd, Tavrot, Zabur, miro moyi, katolik, provoslav, protestant, muqaddas ruh.*

Xristianlik tarixi. Milodiy yil hisobining boshlanishi xristianlik tarixi bilan bog‘liq. Chunki ushbu hisob xristianlik manbalarida Iso Masih (Isus Xristos) ning tug‘ilishidan boshlangan deb hisoblanadi. Iso Masih haqidagi birlamchi xabarlar asosan diniy manbalarda keladi.

Hozirgi kunda xristianlik jahon dinlaridan biri hisoblanadi. U e’tiqod qiluvchilarining soniga ko‘ra boshqa jahon dinlari (buddaviylik va islom) orasida eng yirigi hisoblanadi. Xristianlikka e’tiqod qiluvchilarning soni 1 mlrd. 600 mln. bo‘lib, bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga

to'g'ri keladi. Xristianlik hozirgi kunda ko'proq Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alarida tarqalgan.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin yerlarida vujudga keldi. Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, Iso Masih Rim imperiyasi tashkil topganining 747-yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq.

Xuddi shu davrda yahudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Iso Masihni 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga hukm qildilar.

Diniy bo'lmagan manbalarda Isoning nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxsdir deguvchilar ham bor.

Iso nomiga qo'shiluvchi Masih so'zi qadimiy yahudiy tili - ivritdagi "moshiax" so'zidan olingan bo'lib, "silangan" yoki "siylangan" ma'nolarini beradi. Grekchada bu so'z "xristos" ("christos") shakliga ega. Bu dinning "xristianlik" yoki "masihiylik" deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq.

Manbalarning xabar berishicha, xristianlik yahudiy muhitida yuzaga kelgan. Bu esa xristianlikning yahudiylikdan ko'p jihatdan ta'sirlanishiga

sabab bo‘ldi. Xristianlikning asosiy g‘oyasi – Iso odamzodning xaloskori “messiya” ekani yahudiylkda mavjud bo‘lib, oxirzamonga yaqin qolganda qaytib kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta’limotdan kelib chiqqan.

Keyinchalik bu ta’limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil – odam va xudo mohiyati haqida “gunohni yuvish”, ya’ni Isoning o‘zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta’limot bilan mustahkamlanadi. Xristianlik Ota-Xudo, O‘g‘il-Xudo va Muqaddas Ruh – Uch qiyofali Xudo (Troitsa – Trinity) to‘g‘risidagi ta’limotni, jannat va do‘zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Bibliya yahudiylk va xristianlik dinlari ta’limotiga ko‘ra, u Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o‘zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

Bibliya (biblia) so‘zi grek tilida “kitob”, “o‘ram” ma’nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72 ta kitobdan, protestant nashrlarida esa 66 kitobdan iborat. Yahudiylarning yana bir diniy manbasi Talmudning xabar berishicha, Qadimiy ahdda 24 ta kitob bo‘lishi kerak. Qadimiy yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning aytishicha, 22 ta kitob bo‘lishi kerak. Protestantlar va yahudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563), katoliklar ham qadimiy ahd tarkibiga 45 ta kitob kiritadilar. Bu son bilan yuqorida keltirilgan son o‘rtasidagi tafovutni keyinchalik ba’zi kitoblar bir necha mustaqil kitoblarga bo‘linib ketganligi bilan izohlash mumkin. Masalan, “Musoning besh kitobi” avval bir butun bo‘lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga ajratib yuborilgan, “kichik payg‘ambarlar kitobi” 12 kitobga ajratib yuborilgan.

“Injil” so‘zi yunoncha “evangelion” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, xushxabar ma’nosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblanmish Iso Masihning Yer yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi.

Injil milodning birinchi asrida yozilgan, 27 bo‘limdan iborat. Injil Iso Masihni ko‘rib, uni yaqindan bilgan, uning ta’limotini sinchiklab o‘rgangan mualliflar tomonidan yozilgan.

Xristianlik ta’limoti. Xristianlik ota-xudo, o‘g‘il-xudo va muqaddas ruh – uch ko‘rinishga ega xudo to‘g‘risidagi ta’limotni, jannat va do‘zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Xristian jamoasining shakllanishi, uning aqidalarini tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asri boshlarida 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e’lon qilinganidan so‘ng amalga oshdi.

325-yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. Unda pasxani bayram qilish vaqti belgilangan, 381-yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo‘lib o‘tdi. II Jahon sobori “troitsa” haqidagi qoidani ishlab chiqqan va “e’tiqod timsoli”ni qonunlashtirgan. Konstantinopol patriarxi Rim patriarxi kabi barcha boshqa yepiskoplarga nisbatan imtiyozlarga ega degan qoidani kiritgan. Bu soborda qabul qilingan “e’tiqod timsoli” 12 qismda ifodalandi:

Birinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida;

Ikkinchi qismda xristianlikda Xudoning o‘g‘li hisoblangan Iisus Xristosga imon keltirish haqida;

Uchinchi qismda ilohiy mujassamlashuv haqida soʻz yuritilib, unga koʻra, Iso Xudo boʻla turib, bokira Bibi Maryamdan tugʻilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;

Toʻrtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va oʻlimi haqida soʻz ketadi. Bu gunohlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va oʻlimi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechiriladi deb eʼtiqod qilinishi haqida;

Beshinchi qismda Isoning xochga mixlanganidan soʻng uch kun oʻtib qayta tirilganligi haqida;

Oltinchi qismda Isoning meroji haqida;

Yettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba yerga qaytishi) haqida;

Sakkizinchi qism Muqaddas Ruhga imon keltirish haqida;

Toʻqqizinchi qism cherkovga munosabat haqida;

Oʻninchi qismda choʻqintirishning gunohlardan forigʻ qilishi haqida;

Oʻn birinchi qism oʻlganlarning ommaviy tirilishi haqida;

Oʻn ikkinchi qismda abadiy hayot haqida soʻz yuritiladi.

Xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustinning taʼlimoti katta ahamiyat kasb etdi. V asr boʻsagʻasida u dinning bilimdan afzal ekanligini targʻib qila boshladi. Uning taʼlimotiga koʻra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulugʻ va qudratli Yaratuvchining irodasi yashiringan.

Avliyo Avgustinning taqdir haqidagi taʼlimotida aytilishicha, Xudoga imon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan oʻrin egallashi mumkin, chunki imon taqdir taqozosidir.

Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul Patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan jarayonlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istanbul patriarxi Fetiyl orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katoliklikdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakatlari vujudga keldi. Buning doirasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi.

Xristianlik marosimlari. Xristianlikda sirli marosimlar (tainstva) katta o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi. Ularning "sirli marosim" deb atalishiga sabab xristianlik aqidasi ko'ra bu amallar bajarilayotgan vaqtda Muqaddas Ruh ham qatnashadi. Bu marosim va bayramlar barcha xristian yo'nalishlarida mavjud, faqat ularni amalga oshirish shakli va o'tkazilish vaqti turlicha.

Cho'qintirish (kresheniye – suvga botirish). Xristianlik ta'limotiga ko'ra, cho'qintirish orqali kishi dinga qabul qilinadi, ya'ni cherkov a'zosiga aylanadi.

Bu marosim insonni uch marotaba suvga botirish yoki boshidan suv quyish bilan birga, ruhoniy tomonidan maxsus so'zlarni aytish orqali amalga oshiriladi. Injilga ko'ra, cho'qintirish va Muqaddas ruhning kelishi osmondan tug'ilishning maxsus shartlaridan biridir. Uning asosi sifatida Injildan misollar keltiriladi: "Iso javob berdi: "Senga to'g'risini

aytay, agar kim suvdan va Ruhdan tug‘ilmas ekan, Xudo saltanatiga kirmaydi” (Ioanndan, 3:5).

Suvga botirish marosimi birinchi bo‘lib Ioann tomonidan amaliyotda qo‘llangan. Shu kabi amaliyot Tavrotda aytib o‘tilgan “prozema”, ya’ni “butparastlarni dinga kiritish marosimi”ga o‘xshab ketadi. Unda erkaklar dinga kirishi uchun xatna qilinishi kerak bo‘lsa, ayollar uchun esa faqat diniy ritualni bajarish marosimi shart qilingan.

Xristianlikning har bir yo‘nalishida cho‘qintirish marosimi turlicha talqin etiladi. Pravoslav va katolik cherkovlarida cho‘qintirish sirli marosim sifatida e’tirof etiladi. Bu hodisa Ioann cho‘qintiruvchining faoliyati ya’ni Iordan daryosida uning oldiga keluvchi insonlarni suvda tozalanishi, yomon illatlarni qayta qilmasliklari, Masihni toza qalb bilan kutib olish maqsadida amalga oshirilgan. Masih kelishini Ioann targ‘ib qilgan, cherkov nuqtayi nazaridan cho‘qintirish paytida inson hayotda shahvoniy jihatdan o‘lib, Muqaddas Ruh tomonidan ma’naviy hayotga qayta tiriltiriladi degan aqida mavjud. Marosim vaqtida inson nafaqat barcha qilgan gunohlaridan poklanadi, shu jumladan, gunohlaridan ma’naviy forig‘ bo‘ladi.

Suv yordamida “o‘ldirish, jonsizlantirish” – mavjud bo‘lgan qusurlardan tozalanish hisoblanadi. Albatta u mutlaq poklanish bo‘lmasada, to‘xtovsiz yovuzlikni, yomonlikni to‘xtatadi, deb ta’kidlanadi. Rim nomalarida bu haqda shunday yoziladi: “Cho‘qintirilayotgan Iso bilan birga o‘lib, u bilan birga abadiy hayotda tiriladi. Shunday qilib biz cho‘qintirilib u bilan birgalikda o‘limga dafn qilindik, zeroki Ota nomi bilan Iso o‘liklardan tirilgani kabi, biz ham yangilangan hayotda yashaymiz” (Rim, 6:4).

Cho‘qinishdan so‘ng inson gunoh ishlarni qilsa u Xudoning marhamatidan voz kechgan bo‘ladi: “Agar Xudoni anglab, bizning xaloskorimiz Isoni tan olib turib, eski yillariga, eski xolatiga qaytsalar, buning oxiri avvalgidan ham og‘irroqdir” (2 Petr, 2:20).

Cho‘qintirish marosimi xristian dinining eng muhim va asosiy marosimlaridan biridir. Bu marosim asosan cherkovda o‘tkaziladi. Xristianlar e‘tiqodiga ko‘ra, inson tug‘ma gunohkor bo‘lib tug‘iladi va undan forig‘ bo‘lish uchun muqaddas suv yordamida poklanadi. Shundan so‘ng poklangan bola cherkov a‘ziligiga qabul qilinadi.

Cho‘qintirishga o‘xshagan marosim qadimgi Hindiston, Rim, Misr, Kichik Osiyo va boshqa davlatlar hududlarida yashagan xalqlar orasida ham mavjud bo‘lgan. Xristianlikda cho‘qintirish marosimi milodning I asri oxirlarida paydo bo‘lgan. IV asrda birinchi xristian jahon soborining qaroriga muvofiq, bu marosim har bir xristian uchun majburiy deb e‘tirof etilgan va “e‘tiqod ramzi” sifatida qabul qilingan. Shu vaqtdan boshlab “cho‘qintirilgan” so‘zi “xristian” degan so‘z bilan teng ma‘no kasb eta boshlagan.

Xristianlar boshqa dindagi hamma kishilarni “cho‘qinmaganlar” (“Isoni tanimaganlar”) deb atay boshlaganlar. Cho‘qintirish marosimini tartibga solish maqsadida Qadimgi Karfagen cherkovi ishlab chiqqan 124 qoidadan birida ushbu normalar belgilangan: “Go‘daklar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni cho‘qintirmaganlarga la‘nat bo‘lsin”.

Pravoslav yo‘nalishida cho‘qintirish marosimi asosan yangi tug‘ilgan chaqaloqqa o‘tkaziladi. Ota-ona o‘z farzandlarining diniy bilimiga mas‘ul bo‘lib, cho‘qintirilayotgan bola e‘tiqodiga kafil hisoblanadilar. Cho‘qintirilayotgan bola o‘g‘il bo‘lsa, uni erkak kishi ko‘taradi, agarda

qiz bo'lsa, ayol kishi tomonidan amalga oshiriladi. Bu holatda rohib ota-ona vazifasini bajara olmaydi. Qadimda cho'qintirish marosimini voyaga yetganlar qalban his qilgandagina o'tkazilgan.

Xristianlikning ilk davrida ba'zilar go'daklarni gunohsiz deb bilib, agar olamdan o'tsa jannatga tushadi, shu sababli ularni go'daklikda cho'qintirish shart emas deb hisoblaganlar. Boshqalar esa bolani cho'qintirish lozimligini takidlaganlar. Ko'p insonlar cho'qintirish marosimini juda ham ortga surganlar. Ba'zilar o'limi oldidan bu marosimni o'tkazganlar. Toki ular umr mobaynida qilib o'tgan gunohlaridan shu yo'l bilan poklanib ketmoqchi bo'lar edilar. Shuning uchun cherkov bu an'anaga qarshi chiqib, go'dak tug'ilgan kundan boshlab sakkiz kun ichida bu marosimni bajarish lozimligini talab darajasiga ko'targan.

Yevxaristiya (yun. non va sharob totish marosimi) xristianlikdagi eng muhim marosimlardan ikkinchisidir. Rus tilida bu marosim "Prichastiye" deb nomlanadi. Yunon tilida "Yevxaristiya" deb ataladigan mazkur marosim, xochga mixlanishdan oldin Isoning havoriylar bilan birga tanovul qilgan eng oxiri kechki ovqat xotirasi, sifatida e'tiqod qilinadi. Bu kecha tanovul kechasi ham deb ataladi. Avliyo Pavel keyinchalik bu hodisani sharhlab bergan. Cherkov esa uni marosim holiga keltirgan. Dastlab yilda bir marta amalga oshirilgani holda, keyinchalik har xaftada qilinadigan bo'lgan. Qadim xristianlar, "yevxaristiya"ni qurbonlik sifatida bilganlar. Bugun ham cherkovlarda amalga oshiriluvchi yevxaristiya marosimida beriluvchi non va sharobni qurbonlik sifatida yeb-ichadilar.

Xristianlar non bilan sharobni tanovul qilar ekanlar, bu bilan ular Isoning tanasi va qonini tatib ko‘rdik, endi xudoga yaqinroq bo‘ldik, deb hisoblaydilar. Bu marosim ertalab yoki tushki ibodatda asosiy o‘rinni egallaydi.

Bugungi kunda yevxaristiya cherkovda yakshanba kuni amalga oshiriladi. Bu marosim borasida yo‘nalishlar orasida, mintaqa va madaniyatlardan kelib chiqib farqli ba’zi bir jihatlar mavjud. Jumladan, katoliklarda mazkur marosimda yaqin-yaqinlargacha faqat ruhoniylargina ham non ham vino iste’mol qilishgan. Oddiy insonlar (“miryane”) faqatgina non bilan poklanishgan. Pravoslav va protestant yo‘nalishlarida esa bu borada ruhoniylar va oddiy insonlar farqlanmaydi. Shuningdek, yo‘nalishlar orasida non va vinoning tarkibi borasida ham farqlar kuzatiladi. Masalan, katolik va protestantlarda muqaddas non xamirturushsiz hamda vino suv qo‘shilmagan holda bo‘ladi. Pravoslavlarda esa, aksincha, non xamirturushli va vinoga suv qo‘shilgan bo‘ladi.

Konfirmatsiya (yun. miro moyi surtish marosimi; ruschada – miropomazaniye). Zaytun yog‘idan tayyorlangan muqaddas moy surtish sirli marosimlardan biri bo‘lib havoriylar davrida yo‘lga qo‘yilgan.

Miro moyi – (yun. – xushbo‘y moy) cherkov yepiskopi tomonidan oliy navli zaytun yog‘iga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo‘shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

Cho‘qintirilgan bolaning, muqaddaslashtirilgan yog‘ (xushbo‘y miro moyi) bilan, vujudining turli joylariga surtish marosimi. U Sharq cherkovlarida cho‘qintirilgandan darhol keyin, G‘arb cherkovlarida esa

keyinroq qilinadi. Pravoslavlarda cho‘qintirish bilan konfirmatsiya orasida yaqin bir bog‘liqlik bo‘lganligi uchun ularning ketma-ket qilinishi afzal, deb bilinadi. Katoliklarda esa, mazkur marosim bola sakkiz yoshga to‘lgachgina amalga oshiriladi. Bunda, miro surtilayotgan kishining peshona, yonoq, og‘iz qismi, yelkalari va qorniga xoch shaklida suriladi. Protestant yo‘nalishlari esa mazkur marosimni yo umuman rad etadilar, yo bo‘lmasa uni “sirli” deb tan olmaydilar.

Miro moyi tayyorlash cherkovning maxsus ichki marosimlaridan hisoblanib, uni tayyorlash huquqiga faqat yepiskoplar ega. Pravoslavlikda, miro tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘lgan cherkovlarga avtokefallik maqomini olishi mumkin.

Miro surtilgan bola, cherkovning bu ish uchun ajratilgan joyiga olib boriladi. U yerda unga konfirmatsiya noni yediriladi. Yeya olmas darajada kichik bo‘lsa, lablariga tekkiziladi. Shunday qilib u, cherkovning bir a‘zosiga aylanadi.

Tavba-tazarru qilish marosimi. Bunda inson o‘zi qilgan gunohlariga iqror bo‘lishi, keyinchalik shu gunohlarni qilmaslik uchun mag‘firat so‘rashi lozim. Bu xristianlikda keng yoyilgan gunohlarni e‘tirof qilish marosimi hisoblanadi. Bu marosim, asosan gunoh qilish orqali yo‘qolgan cho‘qintirish inoyatini qayta qo‘lga kiritish uchun qilinadi. Buning asosi sifatida Bibliyada keltirilgan quyidagi matnlar olingandir: “Xoh ayol bo‘lsin, xoh erkak bo‘lsin qandaydir gunoh sodir etgan bo‘lsa, istig‘for aytib, gunohlariga tavba qilsin” (Sonlar, 5:5,6).

Bu marosimning asosiy mohiyati dindor cherkovga kelib, qilgan gunohlari uchun tavba qiladi, ya‘ni ruhoniya o‘zining hamma gunohlarini batafsil so‘zlab beradi, xattoki, qalbi tubidagi yashirin

sirlarini ham ruhoniy “ota”ga so‘zlab beradi. Cherkov nomidan gunohlarni kechirish huquqiga ega bo‘lgan ruhoniy uning gunohlaridan o‘tadi va unga nasihat qilib, uni to‘g‘ri yo‘lga soladi va Muqaddas Ruhning kuchi bilan uni gunohlaridan pok qiladi.

Yeley surtish marosimi (rus. soborovaniye). Muqaddaslashtirilgan zaytun yog‘ining ham shifo, ham gunohlarning kechirilishi hamda bemalol o‘lish uchun kasallarga surtish marosimidir. Bu bemorning peshona, yonoq, lab va qo‘llariga muqaddas deb bilingan zaytun moyi surtish ko‘rinishida kechadi. Mazkur marosim, cherkov ta’limotiga ko‘ra, insonning jismoniy va ruhiy kasalliklarini davolaydi. “...qo‘llariga ilon olib ko‘tarsalar yoki zahri qotil biror narsa ichsalar ham ularga zarar yetmaydi. Bemorlarga qo‘llarini qo‘ysalar ular sog‘ayib ketarlar” (Mark 16:18).

Bu marosim ayni paytda tavbasiga tayanib ulgurmagan bandalarning gunohlardan xalos etib, osongina jon topshirishlariga yordam beradi, deb hisoblanadi.

Ruhoniy unvonini berish marosimi. Bu ruhoniylik martabasiga ko‘tarilish bilan bog‘liq marosimdir. U “Xirotoniya” (yun. “xir” – qo‘l va “tefimi” – qo‘yaman) deb nomlanadi. Diniy ta’limotga ko‘ra, ruhoniy bo‘ladigan shaxsning boshiga yepiskop qo‘l tekkizganidan keyin, u “Muqaddas Ruh” ning alohida marhamati bilan odamlar o‘rtasidagi vositachilik qilish xususiyatiga ega bo‘ladi. Shundan so‘ng mazkur inson xuddi Isoga uning havoriylari xizmat qilganidek o‘z zimmasiga Xudo va odamlar orasida vositachi bo‘lib xizmat qilish majburiyatini oladi. Ma’lumki, xristianlik dinida ruhoniylik unvonlari – dyakon, presviter, yepiskop kabi uch turli darajaga ega.

Dyakon (yunon. xizmatchi) – xristian cherkovidagi eng quyi ruhoniyluk darajasi. U marosimlarda yepiskop va presviterlarga yordamchilik qilish bilan shug‘ullanadi.

Presviter (lot. oqsoqol) – xristian ruhoniylar iyerarxiyasida yuqori darajaga ega ruhoniylar. Qadimda yepiskoplar ham shunday nom bilan atalgan. Jamoa tarafidan saylab qo‘yiluvchi ruhoniylar bo‘lib, dastavval, u pastor bilan birgalikda diniy marosimlarga rahbarlik qilgan.

Yepiskop (yunon. nazoratchi) – xristianlikdagi oliy darajadagi ruhoniyluk unvoni. Katolik e‘tiqodiga ko‘ra yepiskoplar havoriy Pavelning izdoshlari xisoblanadi. Shuningdek, yepiskop o‘zi miro moyini tayyorlash, ruhoniyluk darajasini berish, hamda diniy marosimlarni boshqarish huquqiga ega.

Nikoh marosimi. Xristianlikda kelin va kuyovlarning o‘zaro xohishlari asosida kelgusi hayotlarida er-xotin bo‘lib birga yashashlarini ta‘minlash uchun amalga oshiriladigan sirli marosim. Nikohda ham sirlilik bor, erkin tarzda ruhoniylar va cherkov huzurida er va ayol tarafidan oilaga sadoqatli bo‘lishga va‘da beriladi. Ularning oilalariga Isoning ruhi birlashib ketishiga oq fotiha beriladi va ulardan sof e‘tiqodli xristian bolalar tug‘ilishi va tarbiyalanishi Xudodan so‘raladi.

Ushbu marosim XVI asrda paydo bo‘lgan. Katolik yo‘nalishiga ko‘ra, nikoh Iso va cherkov orasidagi uzviy bog‘liq ruhiy munosabatning bir ko‘rinishidir va shuning uchun ham muqaddas marosim sanaladi. Bir marosim sifatida nikoh, ikki kishi orasidagi ahdlashuvning cherkov tomonidan muqaddas deb bilinishi va bu juftlikning cherkovda muqaddas bir bog‘ich bilan bog‘lanishidir. Nikoh Xudo tomonidan yuzaga

keltirilgan bir jamlanish bo‘lgani uchun, qadim-qadimdan muqaddas deb bilingan. Xudoning o‘zi odamlarning nikoh ittifoqini himoya qiladi.

Cherkovning ta’kidlashicha, nikohda asosiy narsa huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki axloqiy jihatdir. Ayni paytda, bu axloqiy jihat, diniy jihat bilan aynan bir narsadir. Shuning uchun ham nikoh marosimini o‘tkazmay turib, chinakam axloqiy, oilaviy munosabatlarning bo‘lishi mumkin emas. Cherkovda o‘tkazilgan nikoh xristian oilasining qonuniy asosi hisoblanadi. Shu bois, uni buzishlik mumkin emas deb uqtiriladi.

Yuqorida qayd etilganidek, bu marosim xristianlikning turli yo‘nalishlarida turlicha shaklda amalga oshiriladi. U pravoslavlikning ham asosini tashkil etadi. Faqat ularning bajarilishida katoliklar bilan pravoslavlar orasida ba’zi farqlar bor.

Rojdestvo – Isoning tug‘ilishi munosabati bilan o‘tkaziluvchi, xristianlik dinidagi eng muhim bayramlardan biridir. Katolik, protestant va pravoslav yo‘nalishlariga ko‘ra, yangi taqvim hisobi bo‘yicha (Grigoryan yil hisobi bo‘yicha) 25 dekabrda nishonlanadi. Rus pravoslav cherkovlarida esa, eski taqvim (Yulian) yil hisobi bo‘yicha 7 yanvarda nishonlanadi.

Dastlabki davrda “Rojdestvo” va “Xudoning zohir bo‘lishi” bayramlari bir-biriga mos kelgan. Bayram kunlarini tanlash cherkov an’analari bo‘yicha “Ilohiy xushxabar” bayrami (Yulian taqvimi hisobida 25 mart kuni) bilan aloqadorlik asosida va undan keyingi to‘qqiz oy ichidan tanlab olingan. Ma’lumki, yahudiylik bo‘yicha “Xanukka”, rimliklar hisobida esa “Saturnali”, Rim imperiyasida Mitra xudosining tug‘ilgan kuni nishonlanadi. Xristianlikkacha bo‘lgan normalar Xaloskorning g‘orda tavallud topishi, uning bolaligi, o‘zga narsalar bilan

munosabati, Sulaymon (Salomon) haqidagi, Vifleyem yulduzlari haqidagi apokriflar hikoyalarida va xalq og‘zaki ijodida namoyon bo‘ladi. Qadimgi davrga oid qabr toshlaridan birida shunga tegishli surat saqlanib qolgan.

Pravoslav yo‘nalishida Rojdestvo Pasxadan keyingi o‘rinda turuvchi muhim bayram hisoblanadi, katolik yo‘nalishida esa yillik eng asosiy bayram sifatida nishonlanadi. Pravoslavlikda Rojdestvo bayrami qirq kunlik Postdan avval o‘tkaziladi. Maxsus va qat’iy tartib asosida, bu marosim osmonda birinchi yulduz paydo bo‘lguncha bajariladi. Bu qoida “sochelnik” deb nomlanadi. V asrda Anatoliy Konstantinopolskiy, VII asrda Andrey Iyerusalimskiy, VIII asrda Ioann Damaskiylar tarafidan bu bayramda ijro etiladigan Rojdestvo kuyi ham yaratilgan.

Agar Rojdestvo shanba yoki yakshanba kuniga to‘g‘ri kelsa Ioann Zlotoust yoki Buyuk Vasiliy liturgiyalari bajariladi. Rojdestvodan cho‘qintirishga qadar bo‘lgan vaqt rus xalqi an‘analariga ko‘ra “svyatka” deb ataladi. Ular bu vaqtda yovuz kuchlar kezib yuradi deb hisoblaydilar.

Oddiy xalq e‘tiqodiga ko‘ra, agar Rojdestvo kuni qor yog‘sa, yoki kun issiq bo‘lsa, qirov bo‘lsa don mo‘l bo‘ladi. Osmon yulduzli bo‘lsa no‘xot mo‘l bo‘ladi. Bo‘ron asal mo‘l bo‘lishini anglatadi. Rojdestvo agar 31 kunlik oylarga to‘g‘ri kelsa, hosildorlik yaxshi bo‘lmaydi, deb hisoblanadi. Bundan tashqari Rojdestvo kuni bichish-tikish ishlarini bajarish mumkin emas. Bu ish bajarilsa bolalar ko‘zi ojiz tug‘ilishi mumkin, degan e‘tiqod mavjud. Bukri bolalar tug‘ilmasligi uchun shu kuni to‘quvchilik qilinmaydi. Ertalabki nonushtada suv ichilmaydi. Rojdestvo kuni nikoh tuzilmaydi.

Xristian ta‘limotiga ko‘ra, rojdestvo kuni uch mahal (quyosh chiqayotganda, ertalab va kunduzi) ibodat qilinadi. Rojdestvo belgisi

yashirin bo‘lib e‘tiqodli insonning qalbida bo‘ladi. XII asrdan boshlab katolik ibodatxonalarida Isoning chaqaloq qiyofasidagi bolalar ibodati namoyish qilina boshlagan. Uning tug‘ilgan kuni (ya‘ni Rojdestvoda) insonlar uchun qutqaruvchi va abadiy hayot eshiklari ochiladi, deb e‘tiqod qilinadi.

Katoliklarda rojdestvo posti “advent” deb ataladi. U avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada – 30 noyabrda boshlanadi. Bayram yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi uch ibodat bilan nishonlanadi va Iso Masihning Ota-Xudoning ko‘ksidan, Bibi Maryamning qornidan, dindorning ko‘nglida ramziy ma‘noda tug‘ilishini anglatadi. O‘sha kuni ta‘zim qilish uchun ehromlarda go‘dak Isoning haykalchasi qo‘yilgan belanchaklar o‘rnatiladi.

Rojdestvo oilaviy bayram bo‘lib, bu kunda faqat maxsus taomlargina dasturxonga tortiladi. Bular baliq, meva, sabzavotlar va shirinliklar. Osmonda birinchi o‘nta yulduz paydo bo‘lganda ibodatxonalarda marosimlarni bajarishga kirishadilar. Katoliklar uchun bajarishi shart bo‘lgan amallar: rojdestvoning birinchi kuni dasturxonga go‘shqli mahsulotlar, cho‘chqa, kurka, baliq go‘shli tortiladi. Dasturxon bu kunda qanchalik mo‘l bo‘lsa, kelgusi hayot shunchalik farovon bo‘ladi, deb biladilar. Shuningdek, ushbu kunda hamma joyda sovg‘alar ulashiladi.

Cherkov tomonidan Isoning tug‘ilishini bayram qilish IV asrdan boshlangan. Cherkov ta‘limotiga ko‘ra, bu bayramni Xudo tomonidan Iso sharafiga bag‘ishlab bayram qilish tavsiya etilgan.

Italiyada rojdestvo kuni uylaridan eski kiyimlarni, narsalarni, buyumlarni ko‘chaga irg‘itib yuboradilar, shu bayramda hattoki urushlar to‘xtatilgan. Ayrim arazlashib yurgan kishilar yarashganlar, bemorlar

holidan xabar olib, ularga sovg‘alar berganlar. Iso insoniyatni gunohidan ozod qilish uchun o‘z jonini fido qilish, Yer yuzida adolat o‘rnatish uchun tug‘ilgan deb tasavvur qilinadi va uning tug‘ilgan kuni bayram qilinadi.

Pasxa. Yahudiylik va xristianlik dinlarida bir xil nomlanuvchi Pasxa – xristianlarda, ayniqsa, katta tantana bilan o‘tadigan bayramdir. Pasxa (qad. yahudiycha “Peysax” – o‘tmoq) – yahudiylar va xristianlarning bahor bayrami.

Qadimda ko‘chmanchi somiy qabilalari Pasxani chorva mollarining bahorgi bolalash vaqtida bayram qilganlar. Bu qabilalarning o‘troqlashishi va dehqonchilik bilan shug‘ullanishi natijasida Pasxa yig‘im-terim bayramiga aylangan.

Pasxa yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e‘tiborlisidir. Bu bayram xristianlarning Pasxasidan farqli o‘laroq, yahudiylarning Misrdagi Fir‘avn qulligidan ozodlikka chiqqanlari (taxminan mil. av. 8-asr) munosabati bilan nishonlanadi. Yahudiylar Pasxasida keyinchalik messiyani kutish g‘oyasi ham o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqotchi A.Ranovich o‘zining “Qadimiy yahudiy dini tarixi qissalari” (“Ocherki istorii drevneyevreyskoy religii”) nomli kitobida bu bayramning kelib chiqishi, uning nishonlanish sabablari haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. Uning fikricha, dastlab bu bayram chorvador-dehqonlar tomonidan, keyinchalik esa Bibliyaga ko‘ra, misrliklar qo‘lidagi qullikdan ozod bo‘lish sharafiga nishonlangan.

Mazkur bayram Rus Pravoslav cherkovida yana “Voskresheniye Iisusa Xrista” deb ham nomlanadi. Katoliklar (G‘arbiy xristianlik)da pasxa 22-mart – 25-aprel oralig‘ida, pravoslavlar (Sharqiy xristianlik)da 4-aprel – 8-may oralig‘ida nishonlanadi. Bu bayramni nishonlanishining

ham o‘z sababi bor. Yahudiylar Pasxani Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganliklari sharafiga bayram qilsalar, xristianlar Iso Masihning qayta tirilganini nishonlaydilar.

Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, bu Iso Masih o‘limining uchinchi kuni sodir bo‘lgan. Ma’lumki, shanba yahudiylar uchun muqaddas kun hisoblanadi. Shanba kuni hech qanday ish qilmaydilar, hatto, o‘lik ham ko‘milmaydi. Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, Iso Masih juma kuni kechqurun vafot etgan. Uni yakshanba kuni dafn etmoqchi bo‘lishadi. Bir qancha ayollar Iso Masihning qabri oldiga ibodat qilish uchun keladilar. Ular orasida Mariya Magdalena ismli ayol ham bor edi. U tosh ustida ko‘rinishi chaqmoqdek yorqin, kiyimi qordek oq farishtani ko‘radi. Farishta ayollarga Iso Masihni qayta tirilgani haqida xabar beradi. Natijada bu xabar tez orada hamma joyga tarqaydi. Mariya Magdalena Rim imperatori huzuriga borganida unga qizil rangga bo‘yalgan tuxumni ko‘rsatadi va “Iso qayta tirildi”, deydi. Shuning uchun xristianlar tuxumni barcha tug‘ilishlarning avvali, deb hisoblaydilar. Shundan beri “Pasxa” bayramida tuxumni bo‘yab, bir-biriga taqdim qilish odat tusiga kirgan.

Bu bayramning asosiy g‘oyasi shundaki, Iso Masih o‘limga rozi bo‘lish bilan o‘z qavmini gunohlardan saqlab qolgan, deb e’tiqod qiladilar. Bu bayram yetti kun davom etadi. Yahudiy va xristianlarda Pasxa bayramini nishonlash vaqti bir haftaga farq qiladi. Yahudiylar uni xristianlardan avval nishonlaydilar. Bu xristianlarning xohishiga ko‘ra, Mazkur sana milodiy 325-yili Nikeya shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi butun olam savorida belgilangan.

Xristianlikda asosiy ibodatlar majmuasi liturgiya deb nomlanadi. Liturgiya (yunon. – ibodat) – pravoslavlikda ertalabki yoki tushki ibodat

(obednya), katoliklarda liturgiya messa deb ham ataladi. Unda non va vino totish marosimi o‘tkaziladi. Liturgiya uch qismdan iborat. Birinchi qism – proskomidiya deb ataladi. Unda cherkov xizmatchisi non va vino totish marosimi uchun dindorlarga non va vino tayyorlaydi. Ikkinchi qism – oshkor e‘lon qilish (oglasheniye) deb nomlanadi. Bunda cho‘qintirish oldidan xristian ta‘limoti tanishtiriladi va xohlagan kishilar ishtirok etishi mumkin. Uchinchi qism – e‘tiqodlilar liturgiyasi deb ataladi va u faqat cho‘qintirilganlarga taalluqlidir. Liturgiya vaqtida turli marosimlar bajariladi xudoga iltijolar qilinadi, diniy qo‘shiqlar kuylanadi, va‘zlar aytiladi va h.k. Cherkov liturgiyani “sir-asrorlar siri” deb atab uni faqat Iso Masihning o‘zi sirli kechada belgilagan, deb hisoblaydi.

Milodning I asri o‘rtalarida qator diniy aqidalar bo‘yicha qizg‘in bahslar olib borilgan va ular xristianlikda turli yo‘nalishlarning shakllanishiga sababchi bo‘ldi. Buning ta‘sirida cherkovda qator ajralishlar – sxizmalar – vujudga keldi. Natijada xristianlik tarkibida raqobat qiluvchi xristianlikning ko‘rinishlari bo‘lmish “e‘tiqodlar” (diniy talimotlar) vujudga keldi. Milodning V – VII asrlardayoq, Iso Masih shaxsining ilohiylik va insoniylik jihatlari mutanosibligini aniqlashga bag‘ishlangan xristologik bahslar davomida, imperiya cherkovidan bir necha yo‘nalishlar paydo bo‘ladi, ular orasida monofizitlar va nestorianlar nisbatan keng hududlarga tarqalib hozirga qadar saqlanib qolishga erishdi.

1054 yilda xristianlik dini doirasida ilk yirik bo‘linish ro‘y berib, natijada pravoslav (Sharqiy xristianlik) va katolik (G‘arbiy xristianlik) cherkovlari yuzaga keldi.

Pravoslavlik tarixan xristianlikning sharqiy yo‘nalishi sifatida shakllandi. Asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon yarim orolida joylashgan mamlakatlarda tarqalgan. Nomlanishi (yunoncha orthodoxia – “to‘g‘ri e‘tiqod” tushunchasining rus tiliga tarjimasida – Pravoslavlik) ilk bor II asrda xristian mualliflari asarlarida uchraydi. Uning marosimlari, aqidalari va ta‘limoti u hukmron davlat dini bo‘lgan Vizantiyada IV–XI asrlarda shakllandi.

Pravoslavlik ta‘limoti asoslarini Muqaddas kitob (Bibliya) va Muqaddas rivoyatlar (IV–VIII asrlarda o‘tkazilgan Butun Olam Soborlari qarorlari va Aleksandriyalik Afanasiy, Buyuk Vasiliy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi nufuzli cherkov ilohiyotchilari asarlari) tashkil etadi. Ushbu cherkov Otalari ta‘limotning asosiy qoidalari va talablarini yaratishdi.

Pravoslavlikda sirli marosimlar muhim o‘rin egallaydi, cherkov ta‘limotiga ko‘ra, ularning davomida Xudo tomonidan alohida savoblar nozil bo‘ladi. Cherkov yetti sirli marosimning barchasini tan oladi.

Pravoslavlik cherkovi bayramlar va ro‘za tutishlarga katta ahamiyat beradi. Odatda katta cherkov bayramlari arafasida ro‘za tutiladi. Uning mohiyati “inson ruhining poklanishi va yangilanishi”, diniy hayotdagi muhim hodisaga tayyorlanishdan iborat. Rus pravoslavligida uzoq vaqt davom etadigan ro‘zalar soni to‘rtta bo‘lib, ular Pasxadan avval, Pyotr va Pavel kunlaridan avval, Bibi Maryamning vafoti kunidan avval va Isoning tug‘ilishi kunidan avval tutiladi.

Buyuk bayramlarning ichida Pasxa birinchi o‘rinni egallaydi. Undan so‘ng pravoslavlik dinining o‘n ikki kunlik – o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi, ular quyidagilar: Isoning tug‘ilishi (Rojdestvo Xristovo),

Olqishlash (Sretenie), Isoni cho‘qintirish (Kreщenie Gospodne), Iso qiyofasining o‘zgarishi (Preobrajenie), Isoning Quddusga kirishi (Vxod Gospoden v Ierusalim), Isoning me‘roji (Voznesenie Gospodne), Muqaddas Ruhning tushishi yoki Troitsa kuni (pyatidesyatnitsa), Isoning xochini tiklash (Vozdvijenie kresta Gospodnya), Hushxabarning nozil bo‘lishi (Blagovещenie), Bibi Maryamning tug‘ilishi (Rojdestvo Bogorodisy), Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (Vvedenie vo xram Bogorodisy), Bibi Maryamning vafoti (Uspenie Bogorodisy).

Katoliklik xristianlik dinining eng yirik yo‘nalishi hisoblanadi. “Katolik” so‘zi butun jahon, butun dunyo (umumiy, dunyoviy) degan ma‘noga ega. Bu yo‘nalish asosan G‘arbiy, Janubiy– G‘arbiy va Markaziy Yevropa, Pribaltika, Ukraina va Belorussiyaning g‘arbiy hududlarida, Lotin Amerikasi va AQShda tarqalgan.

Katoliklik tarixida Rim Papalarining yuksalishi va ag‘darilishi, cherkovning ijtimoiy–siyosiy hayotga bo‘lgan katta ta’siri o‘z aksini topadi. Bularga XI – XIII asrlardagi salb yurishlari, “Xudo tobuti” va “Muqaddas Yerni”, ya’ni Falastin hududini, “g‘ayridin”(kofir)lardan ozod qilishlar ham kiradi. Din, e’tiqod bayrog‘i ostida sodir etilgan bu harakatlar aslida Papalar ta’sirini mustahkamlash va kengaytirish hamda cherkov boyligini ko‘paytirish maqsadida uyushtirilgan.

Katoliklik xristian dinining yo‘nalishi sifatida uning asosiy aqidalari va marosimlarini tan olishi bilan birga, ta’limoti, marosimlarni amalga oshirish, tashkil topishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Katolik ta’limotining asosini xristianlikda tan olingan Muqaddas kitob – Bibliya va Muqaddas rivoyatlar tashkil etadi. Lekin pravoslav cherkovidan farqli o‘laroq katolik cherkovi ilk yetti Butun Olam Soborlarining qarorlari

bilan bir qatorda keyingi soborlarning qarorlarini, bundan tashqari Papalar yo‘llagan noma(maktub)lari va farmonlarini ham Muqaddas rivoyatlar deb tan oladi.

Katolik Cherkovi Tashkiloti jiddiy ravishda markazlashganligi bilan ajralib turadi. Rim Papasi bu Cherkovning rahbari hisoblanadi. U din va axloq masalalari bo‘yicha qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati Butun Olam Soborlaridan yuqori turadi. Katolik Cherkovining markazlashganligi rivojlanishning dogmatik (qotib kolgan) tamoyilini tug‘dirdi, xususan, bu tamoyil diniy ta‘limotni noan‘anaviy ravishda talqin etilishida ifodalanadi. Masalan, Pravoslavlik Cherkovi tomonidan tan olingan e‘tiqod timsolining Xudoning uch qiyofasiga bag‘ishlangan aqidasida Muqaddas Ruh Ota–Xudodan kelib chiqadi (taraladi) deyilgan. Katolik ta‘limotidagi aqida esa Muqaddas Ruh ham Ota–Xudodan, ham O‘g‘il–Xudodan kelib chiqadi (taraladi) deyiladi. Shu bilan birga, Cherkovning najot ishidagi o‘rni haqida ham o‘ziga xos ta‘limot vujudga keladi. Najot asosi imon va ezgu ishlar hisoblanadi.

Katoliklik ta‘limotiga ko‘ra, Cherkov zaruriy ezgu, hayrli ishlar xazinasiga – Iso, Bibi Maryam, avliyolar, taqvodor xristianlar tomonidan yaratilgan ezgu ishlar “zaxirasiga” ega (Pravoslavlikda bunday tushuncha yo‘q). Cherkov bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya‘ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Bu huquq “indulgensiya”lar to‘g‘risidagi ta‘limotning, ya‘ni pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirishning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Bundan esa, o‘z navbatida, o‘lganlarga o‘qiladigan ibodatlar qoidalari va ruhning a‘rofdagi (do‘zax va jannat oralig‘idagi joy) turish muddatini qisqartirish bilan

bog‘liq Papaning huquqi kelib chiqadi. A‘rof haqidagi aqida faqat katolik ta‘limotida mavjud. Gunohi katta bo‘lmagan gunohkorlarning ruhi u yerda o‘tda kuyadi (ehtimol, vijdon va nadomat azobining ramziy in‘ikosidir), keyin jannatga yo‘l topadi. Ruhning a‘rofdan bo‘lish muddati o‘lganning yaqinlari tomonidan qilinadigan ezgu ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr–ehson qilish bilan) mumkin.

A‘rof haqidagi ta‘limot I asrdayoq vujudga kelgan. Pravoslavlik va Protestant Cherkovlari uni rad etadilar.

Bulardan tashqari Pravoslavlik diniy ta‘limotidan farqli o‘laroq Katoliklikda 1870-yilda Vatikanda o‘tkazilgan 1–soborda qabul qilingan Papaning begunohligi va 1854-yilda e‘lon qilingan Bibi Maryamning bokiraligi haqidagi aqidalar mavjud. G‘arb Cherkovining Bibi Maryamga bo‘lgan alohida e‘tibori 1950 yilda Papa Piy XII tomonidan Bibi Maryamning meroji haqidagi aqidaning e‘lon qilinishida o‘z aksini topadi.

Katolik ta‘limoti Pravoslavlik ta‘limoti singari yetti sirli marosimni tan oladi, ammo ularning talqinlarida farqlar mavjud. Masalan, “non va vino totish” marosimi katoliklarda xamirturush solinmagan non tamaddi qilish (Pravoslavlikda xamirturushli non bilan), ruhoniy bo‘lmagan dunyoviy kishilarga non va vino bilan, ba‘zida esa faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho‘qintirish sirli marosimini o‘tash paytida cho‘qintiriluvchi suvga botirilmaydi unga suv sepiladi. Miro surtish (konfirmatsiya) marosimi go‘daklik yoshida emas, balki 7 – 8 yoshlik paytida amalga oshiriladi.

Bu marosimda bolaga o'zi tanlagan yana bir ism beriladi, bola ism bilan birga avliyoning timsoli, amallari va g'oyalari ongli ravishda qabul qiladi va ularga rioya qilishni niyat qiladi. Shunday qilib bu marosimning o'tkazilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi lozim. Pravoslavlikda nikohsizlik rusumini faqat kora ruhoniylar (monaxlar) qabul qiladi. Katoliklarda esa oila qurmaslik (selibat), Papa Grigoriy VII tomonidan o'rnatilgan bo'lib, barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi cherkovdir. O'rta asrlar oxirida Yevropada tarqalgan arxitekturaning Gotika uslubi katolik cherkovining rivojlanishi va mustahkamlanishiga ko'maklashdi. Bayramlar va ro'za tutishlar (postlar) dindorlar maishiy hayotini tartibga soluvchi marosimlarning muhim elementlaridir.

Rojdestvo katoliklarda "advent" deb ataladi. U avliyo Andrey kundan keyingi birinchi yakshanbada – 30 noyabrda boshlanadi. Isoning tug'ilishi bayrami – eng tantanali bayramdir. Bayram yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi uch ibodat bilan nishonlanadi va Iso Masihning Ota – Xudoning ko'ksidan, Bibi Maryamning qornidan, dindorning ko'nglida ramziy ma'noda tug'ilishini anglatadi. O'sha kuni ta'zim qilish uchun exromlarda go'dak Isoning haykalchasi qo'yilgan belanchaklar o'rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: diakon, ruhoniy (kyure, pater, ksendz), yepiskop. Yepiskopni Papa tayinlaydi. Papani kardinallar yig'ilishi (kollegiyasi) saylaydi. II Vatikan soborida (1962–1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Bu jarayon birinchi navbatda

ibodat an'anasini o'zgartirdi. Masalan, ibodatni faqat lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

Protestantlik. Yevropa mamlakatlarida Katoliklikda kechayotgan jarayonlarga qarshi qaratilgan reformatsiya (lotincha reformatio – qayta tashkil qilish, o'zgartirish) harakati natijasida vujudga keladi. Reformatorlar Katoliklik amallarini Injil ideallaridan qaytish deb talqin qiladilar. Oksford universiteti professori J.Viklif (1320–1384) Rim Papalarining Angliyadan olinadigan soliqlariga qarshi chiqdi, ingliz cherkovining fuqarolar ishlari bo'yicha Angliya qiroliga bo'ysunishi lozimligi va Muqaddas kitobning cherkov rivoyatlaridan ustunligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surdi. Bu g'oyalarni ingliz "lollardlari" – "kambag'al ruhoniylari" qo'llab– quvvatladilar. Praga universiteti professori Yan Gus (1369–1415), J.Viklif g'oyalaridan ta'sirlanib, cherkov boyliklaridan voz kechishi kerakligini targ'ib qildi, cherkovga katta daromad keltiradigan va, Yan Gus fikriga ko'ra, dindorlar ongini buzuvchi indulgensiylarning sotilishiga qarshi chiqdi. Bu qarashlari uchun u 1415 yilda Konstans sobori qaroriga binoan gulxanda kuydirildi. Bu hodisadan norozi bo'lganlar gusitlar harakatiga qo'shildilar. Bu harakt rasmiy cherkov siquviga 11 yil davomida (1420–1431) bardosh berib, 1443-yilning noyabr oyida Bazal shahrida o'tkazilgan soborni gusitlarga yon berishga majbur qildi.

Protestantlik dunyoviy kishilarni ruhoniylardan ajratmaydi, bu ta'limotga ko'ra, barcha dindorlar ruhoniydir. Sirli marosimlardan faqat cho'qintirish va non bilan tamaddi qilishni tan oladi. Dindorlar Rim Papasiga bo'ysunmaydilar. Ibodat va'z o'qish, birgalashib ibodat qilish va diniy qo'shiqlar (psalomlar) aytishdan iborat. Protestantlar Bibi

Maryamni, a'rofni tan olmaydilar, tarkidunyochilik, cho'qintirish, ruhoniylar kiyadigan kiyimlarni, ikonalarini rad etadilar.

Yan Gus kuydirilgandan yuz yil keyin Germaniyada Vittenberg universiteti professori Martin Lyuter (1483– 1546) Protestantlar Cherkov asoslarini yaratadi. U ham indulgensiya sotilishini tanqid qiladi, shaxsiy e'tiqod bilan najot topish g'oyasini ilgari suradi, a'rof haqidagi aqida, o'lganlar uchun qilinadigan ibodatning kuchi hamda avliyolar xizmatlari evaziga najot topilishiga shubha keltiradi; monaxlar tarkidunyochiligini diniy hayotning namunasi deb tan olmadi, “diniy askeza” shiorini ilgari surdi. M.Lyuter diniy–axloqiy jihatdan mehnatni qadrlash lozimligi g'oyasini ilgari surdi. Lyuter reformatsiyasi erkin tadbirkorlik madaniyatining shakllanishiga asos solganligi, uning tarixiy ahamiyatini belgilaydi. Lyuterning fikricha, inson va Xudo o'rtasida bevosita aloqa bo'lishi mumkin.

1517-yilning 31-oktabrida Lyuter Vittenberg cherkovi eshigiga gunohlarning kechirilishiga bag'ishlangan nomani qoqib qo'yadi, u 95 mulohazadan (tezisdan) iborat bo'lib, Katoliklikni isloh qilish g'oyalaridan tarkib topgan.

Lyuter ta'limoti Protestantlikdagi yo'nalishlardan biri – *lyuteranlikka* asos soldi. Bu ta'limotga ko'ra, odamlar vijdoni va tavba–tazarruni ongli ravishda va muntazam nazorat qilishlari lozim. Yuqorida qayd etilgan 95 mulohazalardan birida M.Lyuter tavba–tazarru faqatgina ruhoniylarga istig'for keltirishdan iborat emas deydi; boshqa mulohazalarida esa haqiqiy tavba–tazarru bir karra istig'for keltirish emas, balki uzoq davom etadigan jarayon ekanligini qayd etadi. Lyuteranlar Papa o'zi buyurgan yoki cherkov nizomida belgilangan jazolardan ozod qilishi

mumkin, ammo cherkov insonni xudoning jazosidan ozod qilolmaydi. Papaning a'rof ustidan hokimlik qilishi quyidagi mulohazalarga ko'ra rad etiladi: "Istig'for keltirish qonunlari (ya'ni tavba keltiruvchilarga qanday jazo choralari ko'rilishi haqidagi qarorlar) tirik odamlar uchun belgilanadi", o'lganlar esa endi xudoning ixtiyoridadir. Indulgensiyalarni sotib olishning befoydaligini M.Lyuter shunday asoslaydi: "Xudo chin ko'ngildan tavba qiluvchilarning gunohidan kechadi, abadiy qiynoqlardan ozod qiladi, osiy bandalar Papaning yorlig'isiz ham bundan umid qilishlari mumkin". Dinsizlarga ham indulgensiyaning keragi yo'q, chunki ular u dunyoda jazolanishiga ishonmaydilar. Chin ko'ngildan tavba qiluvchi kishi, xudoning qahridan qochmaydi, deydilar lyuteranlar.

Lyuteranlik Germaniya, Daniya, Norvegiya, AQShda tarqalgan. Dunyodagi 408 mln. protestantlar ichida lyuteranlar 75 mln.ni tashkil etadi. Ularning faoliyati 1947-yili tashkil etilgan Jahon lyuteranlar ittifoqi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Markaziy Osiyoda xristianlik. Fanda xristianlik dinining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi ikki yo'l bilan amalga oshgani e'tirof etiladi. Birinchisi, milodning III asrlaridan to bugungi kunga qadar xristianlikni targ'ib etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik harakati bo'lsa, ikkinchi yo'l, mintaqaning Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko'plab ko'chib kelishi orqali amalga oshgan.

Zamonaviy O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida apostol Andrey Pervozvannyning diniy faoliyati ilk xristianlik tarixi manbalarida qayd etilgani diqqatga sazovor. Buning dalili sifatida bugungi qadar saqlanib qolgan hind xristianlarining "Foma qaydnomalari" va milodiy II asrda

tashkil topgan Markaziy Osiyo cherkovi taraqqiyoti haqidagi tarixiy yozma manbalar xizmat qiladi. Hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Sinszyan– Uyg‘ur muxtoriyati (Xitoy) hududida arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘plab xristianlik yodgorliklari, jumladan ibodatxona va monastirlarning harobalari, freskali ikona yozuvlari, matolarga bitilgan ikonalar (zandanachi), Injil qissalari tasvirlangan keramiklar, bo‘yinga osiladigan xoch va medallar hamda xristianlik timsoli tushirilgan davlat tangalari ahamiyatga molik. Undan tashqari minglab xoch tushirilgan qabr toshlar yoki qabr ustiga qo‘yilgan xochlar topilgan. Yuqoridagilarning aksariyati IV – XIV asrlarga mansub deb topilgan.

Missionerlar faoliyati natijasida 280-yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo‘lgan, Samarqandda (310-yildan), Marvda (334-yildan), Hirotda (430-yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430-yillar), Hirotda (658-yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo‘lgan. IV asr boshlarida tashkil etilgan Marv yepiskopligi, V asr boshida mitropoliyaga aylangan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddaviylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

431-yilda Vizantiyadagi xristianlarning Efes soborida mojaro yuz berdi – Nestorean oqimining xristianlari, hukmron din aqidalariga xilof ish qilgan deb e‘lon qilindi. Shuni aytish joizki, Nestorianlar – Konstantinopol patriarxi Nestorning izdoshlari bo‘lib, (5–asr boshlarida) – ular Xristosning ilohiy kelib chiqishi haqida gapirib, uning onasi Mariya

Xudoni emas, balki insonni dunyoga keltirib, uning tanasiga Xudo kirib olgan va shuning uchun la'natlangan deb hisoblaydilar.

Markaziy Osiyoga ilk rus pravoslavlarining kirib kelishi XIX asrning 40–yillaridagi Chor Rossiyasining Turkistonning shimoliy hududlarini egallashi natijasida Turkistonga ruslarning ko‘chib kelishi bilan bog‘liq. Har bir polkda maxsus ruhoniylar bo‘lib, askarlarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko‘chma ibodatxonalar tashkil etilgan edi. 40-yillar oxiriga kelib doimiy ibodatxonalar mahalliy paxsa uslubida qurila boshlaydi va 1850-yili Kopalda birinchi muqim ibodatxona bunyod qilinadi.

Ruslar joylashgan hududlarda kichik diniy qarorgohlar vujudga keladi. Dastlabki qarorgohlar 1850-yillarda Fort (Aralsk shahri, Koraqalpog‘iston), Perovsk (Qizil–O‘rda, Qozog‘iston), Katta Olma–Ota tumani (Olma–Ota, Qozog‘iston), Sergiopol (Ayaguz), Lepsin (Lepsinsk), 1860-yillarda Toshkent, Jizzax, Samarqand, Chimkent, Avliyoota (Jambul), To‘qmok, Katta Qo‘rg‘onda rus pravoslavlarining diniy qarorgohlari mavjud edi.

1871-yilda Toshkent gospitali huzurida arxiepiskop Yermogen (Golubev) tomonidan pravoslav qarorgohi ta‘sis etilgan. Bu ibodatxona hozirgi Uspenskiy kafedral sobori o‘rnida bo‘lgan. Dastlab Turkiston Orenburgning tarkibida bo‘lganligi bois Tomsk yeparxiyasiga bo‘ysingan. Ko‘p o‘tmay mustaqil arxierey kafedraga aylanadi.

1869-yil Turkiston mustaqil yeparxiyasini tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. 1871-yil Toshkent va Turkiston yeparxiyasini tashkil etish to‘g‘risida imperator farmoni chiqadi. Biroq mahalliy imperator amaldorlari Toshkentdagi kafedra faoliyati diniy avtoritetni

kuchaytirib asl siyosiy maqsaddan chalgʻitadi deb qarshilik koʻrsatgan. General–gubernator fon Kaufman “Toshkentda na arxiereylik, na jandarmiyaga oʻrin yoʻq” deb taʼkidlagan. Uning koʻrsatmasiga binoan yepiskop kafedrasini qarorgohi Vernyy (1854-yil asos solingan «Vernyy» shaharcha, zamonaviy Olma–Ota) shahriga koʻchirilishi kerak edi. “Toshkent va Turkiston” nomini olgan yeparxiya yepiskoplari markazdan tashqariga chiqib boshqarish mantiqsizlik ekanligi va noqulay boʻlganligi bois koʻchishdan bosh tortadi. Imperatorlik davrida Toshkent arxiereyasi kafedraning Toshkentda boʻlishi uchun kurashganlar. Nihoyat 1916-yil oxirida arxiepiskop Innokentiy (Pustynskiy) harakatlari tufayli bu masala butunlay ijobiy yakun topgan.

Dastlabki cherkovlarning koʻpchiligi odmi boʻlgan va qoʻngʻiroqlari ham boʻlmagan. Rus aholining koʻpayishi XIX asr oxirlaridan boshlab bir nechta Rossiya cherkovlaridan qolishmaydigan cherkovlarning bunyod boʻlishiga olib keldi. Ular orasida Toshkent Svyato-Preobrajenskiy (1888-yili qurilgan, 1923-yili buzib tashlangan), Vernyy (Olma ota) dagi Voznesenskiy (1907 yili qurilgan, 1995-yili qayta tiklangan), Samarqanddagi Svyato-Aleksievskiy (1911-yili qurilgan, hozirda ochiq va qayta tiklanmoqda) soborlari alohida ajralib turgan.

Markaziy Osiyoga katolik va protestant yoʻnalishi vakillarining kirib kelishiga 1879-yil 27-martdagi Rossiya imperatorining maxsus qonuniga koʻra birinchi jahon urushida asrga olingan nemis, polyak, eston, shved, litva, latish va boshqa yevropalik askarlarning Turkiston oʻlkasiga surgun qilinishi turtki boʻldi. Bu oʻz navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo boʻlishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20–30 yillariga

qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkistonda 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to'g'ri kelgan yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, 10,1 ming pravoslaviega mansub bo'lgan staroobryadchilar, 8,2 ming lyuterchilar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansub kishilar tashkil etgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912-yilda qurila boshlanib, 1917-yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlandi.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda armanlar taxminan III– IV asrlarda paydo bo'lganligi qayd etilgan. 1890-yilga kelib ularning soni 3839 kishini tashkil etgan. XIX asr oxirlaridan boshlab Echmiadzin Sinodi Turkiston o'lkalarida ibodatxonalar qurishga qaror qilgan. Samarqand cherkovi o'z faoliyatini 1903-yildan e'tiboran boshlagan.

O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga, bir tomondan koreyslarning o'z qarindosh-urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo'ldi. Xorijda ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va

AQShlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi markazlari hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda.

O'rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910-yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga yetgan. Jamoa 1912-yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917-yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925-yili O'zbekistonda adventistlarning Markaziy Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926-yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi.

1976-yil 26-avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1967-yili Toshkentda V.A.Shelkov boshchiligidagi adventist– islohotchilar paydo bo'lgan va hozirgi davrga qadar faoliyati davom etmoqda.

Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891-yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909-yil 2-iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911-yil oktabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi.

1921-yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922-yilda Toshkent baptistlar qurultoyida Markaziy Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi.

1946-yildan O'zbekiston hududida Yevangelchi xristian-baptistlar (YeXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948-yil oktabr oyidan esa T.Penkov Butunittifoq YeXB kengashining O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930-yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958-yilga kelib O'zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko'rsatgan.

1964-yilda bu jamoalar norasmiy Markaziy Osiyo Yevangelchi xristian–baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik «Osiyo janubi bo'yicha baptist birodarlar kengashi» deb nomlandi. 1992-yil noyabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan baptistlarning 1-qurultoyida

Yevangelchi xristian–baptistlar ittifoqi federatsiyasi Yevro-Osiyo YeXB ittifoqi nomiga o‘zgartirildi.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan To‘liq Injil xristianlarining (pyatidesyatniklik) asrimiz 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30-yillarga kelib ularning soni 950 kishiga yetdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo‘lsalar-da, Toshkent jamoasi markaziy o‘rin tutdi. 1945-yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to‘liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992-yildan e‘tiboran rasmiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Respublikamizda mavjud bo‘lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e‘tirof qilingan ta‘limotdir. Yevangelchi-lyuteranlar O‘zbekiston hududida 1877-yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 1884-yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890-yilda arxitektor A.L.Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896-yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Xristianlik cherkovining Pravoslavlik va Katoliklikka ajralishining sabablari?
2. Rim-katolik cherkovi diniy guruhlar (sektalar). Ta‘limotining o‘ziga xususiyatlari?
3. Pravoslavlik ta‘limoti va marosimlarining o‘ziga xosligi?
4. Pravoslavlik va Katoliklikdagi sirli marosimlar. O‘xshashligi va farqlari?
5. Markaziy Osiyo hududidagi xristianlik bilan bog‘liq yodgorliklar?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Xristian dini tarixi va asosiy g‘oyalari mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

1. Xristianlik dinida protestantizm oqimi qachon ajralib chiqqan?
 - A. 1517 yilda
 - B. 1054 yilda
 - C. 1534 yilda
 - D. 1532 yilda
2. “Yetti sirli marosim” qaysi dinga tegishli?
 - A.Xristianlik
 - B.Hinduiylik
 - C.Buddizm
 - D.Sintoiylik
3. Provaslav cherkovi qachon mustaqil bo‘lgan?
 - A. 1054- yilda
 - B. 395-yilda
 - C. 1448-yilda
 - D. 988-yilda
4. Xristianlik dinida eng oxirida vujudga kelgan yo‘nalish qaysi?
 - A.Protestantlik
 - B.Katolik
 - C.Pravoslav
 - D. Baptizm
5. Vatikan davlati nasroniylikdagi qaysi oqimning markazi hisoblanadi?
 - A. Katolikning
 - B. Pravoslavlikning
 - C. Protestantlikning
 - D. Baptistlikning.
7. Xristianlikning muqaddas manbasi?
 - A. Injil
 - B. Qadimgi ahd
 - C. Talmud
8. Bibliyaning xristianlikka oid qismi qanday nomlanadi?
 - A. Yangi ahd
 - B. Eski ahd
 - C. Injil
 - D. Tavrot
9. “Xushxabar” deb tarjima qilingan nasroniylikning muqaddas kitoblaridan biri...?
 - A. Injil
 - B. Muqaddas yozuvlar
 - C. Apokalipsis
 - D. Tavrot

10. E'tiqod qiluvchilarning soniga ko'ra eng katta jahon dini qaysi?

A. Xristianlik

B. Buddizm

C. Islom

D. Hinduiylik

6-MAVZU. ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI

Darsning maqsadi: Islom dini darsida ushbu dinning tarixi, rivojlanishi, ta'limoti, asosiy manbaalari, o'tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o'rni haqida talabalarga ma'lumot berish.

REJA:

1. Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.
2. Xalifalikning tuzilishi va islom dini tarqalishining tarixi.
3. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi.

Tayanch tushunchalar: *Iymon, Islom, Ehson, Qur'on, Hadis, Fiqh, Sunniy, Shia, Havorij.*

Islomgacha Arabistondagi ijtimoiy-siyosiy holat. "Johiliya" so'zi arab tilida bilimsizlik, nodonlik ma'nolarini beradi. Islomdan avval arablar orasida "al-Vasaniyya" – ko'pxudolik hukm surib, ular yakkaxudolik e'tiqodidan bexabar bo'lganligi sababli bu davr "johiliya" deb atalgan. Bundan tashqari xalq orasida norasida qizlarni tiriklayin ko'mish, mayxo'rlik va boshqa axloqiy buzuvchiliklar keng yoyilgan edi. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri yuz ellik-ikki yuz yil davom etgan degan fikrni bildiradilar. Biroq ushbu davrning muddati manbalarda aniq belgilanmagan.

Arabistonda har xil xudolarning timsollari – sanamlar qachon paydo bo'lgani haqida muayyan tarixiy ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tarixchilarning

xabar berishicha, Arabistonga birinchi bo‘lib sanam keltirib va unga ibodat qilishni boshlab bergan Amr ibn Luhay ismli shaxs bo‘lgan. U Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turardi. Shomda esa butparastlik, turli sanamlarga sig‘inish odatlari ancha avval shakllangan edi. Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo‘lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma‘lum edi. Makka Arabistonning diniy markaziga aylangach, u yerdagi Ka‘ba sanamlar to‘plangan joyga aylanib qoldi. Islom arafasida arablar orasida butparastlik shunchalik avjida ediki, hatto har bir xonadonning o‘z sanami bo‘lgan.

Ibn al-Kalbiyning arab ko‘pxudoligiga bag‘ishlangan “Kitob al-asnom” (“Butlar kitobi”) asarida tilga olingan datlabki besh sanam (ayol xudo timsoli) Vadd, Suvo’, Yog‘us, Yo‘uq, Nasr bo‘lib, Qur’onda ham zikr qilingan (“Nuh” surasi, 22-23-oyatlar). Qur’onda zikr qilingan eng qadimgi sanamlar jumlasiga Lot, Manot va Uzzo ham kiradi. Johiliya arablarining tasavvurida bu uchala sanam ham ayol xudolar bo‘lgan.

Islomdan oldin Arabistonning ko‘p joylarida yahudiy jamoalari mavjud bo‘lgani haqida ma‘lumotlar bor. Yahudiylar bilan birga Arabiston yarim oroliga yahudiy dini ham kirib keldi. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur’on, hadis, tafsir, siyra va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi Yangi Bobil podshohi Nabonidga (mil. avv. 555-539 y.) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, miloddan avvalgi 552-542 yillar Shimoliy Arabistondagi Teyma shahrini o‘ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu yerdagi shaharlarni o‘zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko‘chirgan. Ular orasida ko‘pchilikni yahudiylar tashkil

qilgan. Ma'lumki, bundan oldinroq (mil. avv. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming yahudiyni asir qilib, Bobilga keltirgan va "Bobil asirligi" 50 yil davom etgan. Shundan so'ng ham ba'zi yahudiylar Falastinga qaytmay Bobilda qolib ketganlar.

Arabiston yarim orolida yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqalgan. Xristianlar bu yerda keng targ'ibotchilik ishlarini olib borganlar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma'lum. Tarixiy manbalarda xabar berilishicha, qul savdosi bu yerga xristianlarning kirib kelishida asosiy omillardan biri bo'lgan. Vizantiya viloyatlari va O'rta yer dengizi orollaridan keltiriladigan oq tanli erkak-ayol qullar odatda uy ishlari va hunarmandchilik ishlariga jalb qilinar edi. Shahar boylari chiroyli xristian qizlarni o'zlariga joriyalikka olar, ular ona bo'lganlaridan keyin ozod qilardilar. Masalan, Makkadagi Banu Maxzum urug'ining boylari qo'l ostida yunonistonlik joriyalar ko'p bo'lgan.

Johiliya jamiyatida o'zlarining katta bobolari Ibrohim (a.s.) dinini saqlab qolgan bir jamoa kishilar "haniflar" deb atalgan. Ular sanamlarga sig'inmas, balki yagona xudoga ibodat qilganlar. Haniflar ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilardilar. Bu tanqidlar, tabiiyki, zodagonlarga yoqmas edi. Shuning uchun ham ular bir yerda muqim turmay, o'lka bo'ylab ko'chib yurishga va qalandarona hayot kechirishga majbur bo'ldilar. Ushbu toifa kishilardan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh, Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayidolarni keltirish mumkin.

Islom dinining vujudga kelishi. "Islom" – (arab. bo'ysunish, itoat etish) – Allohga til bilan imon keltirib, dil bilan tasdiqlash, uning ko'rsatmalariga bo'ysunishni anglatadi.

Muhammad payg‘ambar hayoti. Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib Arabiston tarixida “Fil voqeasi” nomi bilan mashhur jangdan 50 kun keyin tavallud topgani haqida ilk islom manbalarida xabar beriladi. Misrlik astronom Mahmud poshoning ta’kidlashicha, Payg‘ambarning tavallud sanasi milodiy 571-yil 21-aprelga to‘g‘ri keladi. Otalari Abdulloh o‘z o‘g‘li Muhammad tug‘ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasribda (hozirgi Madina shahrida) vafot etgan. Onalarining ismi Omina bint Vahb bo‘lib, Banu Zuhra urug‘idan edi.

Manbalarda payg‘ambarning tavallud kunlarida turli mo‘jizalar ro‘y bergani haqida xabar beriladi. Ushbu hodisalar haqida ko‘plab tarixchilar o‘z asarlarida rivoyatlar qoldirganlar. U kishining onalari homilador bo‘lganida tushida “Sen butun insonlarning ulug‘iga homilador bo‘lding, u dunyoga kelgach, ismini Muhammad qo‘ygin” degan ovoz eshitdi. Shunga ko‘ra tug‘ilgan paytlarida bobolari “Muhammad”, ya’ni “g‘oyat maqtoqli” degan ismni qo‘ydilar. Islom ta’limotiga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar nomlari zikr etilganda “sallallohu alayhi vasallam” (qisqacha: s.a.v.: “unga Allohning rahmat va salomi bo‘lsin”) yoki “alayhis-salom” (qisqacha: a.s.: “unga salom bo‘lsin”) iborasi hurmat yuzasidan aytiladi.

Arablarda bola sog‘lom va ziyrak bo‘lib o‘sishi uchun sahroyi ayollardan sut-ona topib emizish odati bor edi. Ana shu odatga ko‘ra, Muhammad (a.s.)ga Bakriy qabilasidan bo‘lgan Halima ismli ayol sut-ona bo‘ldi. Rasulullohni to‘rt yildan ortiq vaqt ichida emizgan Halimaning oilasiga baraka yog‘ilib turgan.

Besh yoshli Muhammad (s.a.v.) o‘z onasi Omina bilan birgalikda Yasribga ota qabrini ziyorat qilish uchun boradilar. Bu safardan qaytib

kelayotganlarida Abvo degan joyda onalari Omina vafot etadi. Makkaga otalarining cho‘risi Ummu Ayman bilan birga yetib keladilar. Shundan so‘ng Muhammadni sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib o‘z qo‘lida tarbiyaladi. Abdulmuttalib o‘z nevarasi Muhammadni juda yaxshi ko‘rardi. Shuning uchun o‘zi hastalanib, o‘lim to‘shagida yotgan paytda o‘g‘illari orasida eng saxovatli va mehribon bo‘lgan Abu Tolibni chaqirib, Muhammadni o‘z qaramog‘iga olishni buyuradi. Otasi vafotidan so‘ng amakilari Abu Tolib o‘z otasining vasiyatiga binoan Muhammadni o‘z qaramog‘iga oldi.

Payg‘ambar yoshlik chog‘larida ikki marta Shomga, bir marta Yamanga karvon bilan birga safarga chiqdilar. Shomga birinchi marta 12 yoshga to‘lganda, ikkinchi marta 25 yoshga, Yamanga 17 yoshga to‘lganda safar qildilar. 12 yoshga yetganda amakilari Abu Tolib Shomga safarga otlandi. Eng yaqin kishisidan ayrilib qolish Muhammadga qattiq ta’sir qilib, ma’yus qolganini ko‘rgan Abu Tolib bolani birga olib ketishga jazm qildi.

Ularning karvoni Shom yo‘lidagi Busro nomli mavzeda to‘xtadi. Yahudiylarning olimlaridan Buhayro ismli bir rohib uzoqdan karvonning kelishini kuzatib turar edi. Ko‘rdiki, karvon bilan birga bir bulut ham kelayapti. Karvon bir daraxt ostiga to‘xtadi. Bulut ham o‘sha daraxt tepasiga qo‘ndi. Buhayro darhol bir ziyofat tayyorladi. Abu Tolibni sheriklari bilan ibodatxonaga taklif qildi. Muhammad (s.a.v.) haqidagi ma’lumotlarni bilib olish uchun bir necha savollar berdi. Olgan javoblaridan hayratlangan Buhayro Muhammadning ikki kuraklari o‘rtasidagi payg‘ambarlik muhrini ochib ko‘rdi. Shundan so‘ng Abu

Tolibga Muhammadning porloq kelajak egasi ekanini bashorat qildi va uni ehtiyot qilishni uqtirdi.

Muhammad (s.a.v.) 25 yoshga to‘lganlarida Banu Asad urug‘idan bo‘lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o‘zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so‘radi. Bu savdodan katta foyda tushdi. Muhammadning to‘g‘riso‘z, halol, sadoqatli ekanini ko‘rgan Xadicha yoshi ancha katta bo‘lishiga qaramay, taomilga zid ravishda unga sovchi qo‘ydi. Bir tomondan amakilari Abu Tolib, ikkinchi tomondan Xadichaning amakivachchasi Varaqa rozilik berib nikoh o‘qildi.

Aynan mana shu ayol Rasulullohning yetti farzandlaridan oltitasi, ya‘ni Zaynab, Ummu Kulsum, Ruqiya, Fotima, Qosim, Abdulloni dunyoga keltirgan. Faqat bitta o‘g‘il – Ibrohim Moriyadan tug‘ilgan edi.

Muhammad (s.a.v.) 35 yoshga kirganlarida makkaliklar Ka‘bani ta‘mir etadilar. Uni qayta qurish jarayonida muqaddas sanalgan “Hajar al-asvad” (“Qora tosh”)ni kim ko‘tarib o‘rniga qo‘yadi, degan masalada tortishib qoladilar. Shunda ulardan biri: “Ertalab Safo eshigidan kim birinchi kirib kelsa, o‘sha bizga hakamlik qilsin” deydi. Ertalab Safo tarafidan Muhammad (s.a.v.) kirib keladilar. Uni ko‘rgan olamon “Muhammad al-Amin (ishonchli Muhammad) keldi” deb xursand bo‘ladilar. U zot choponlarini yechib, uning ustiga “qora tosh”ni qo‘yib, barcha qabila boshliqlarini choponni baravariga ko‘tarishga buyuradilar va o‘zlari keltirilgan Qora toshni joyiga olib qo‘yadilar. Muhammad (s.a.v.) o‘z zukkoliklari bilan qabilalar o‘rtasida chiqishi mumkin bo‘lgan nizoning oldini olgandilar.

Vahiyning nozil bo'lishi. Makka davri. Muhammad (s.a.v.) 40 yoshga yetganda ko'proq yolg'izlikni qumsaydigan bo'lib qoladilar. Ko'pincha Makkadan uch mil yuqoridagi Nur tog'ida joylashgan Hiro g'origa ketar va Ramazon oyini u yerda kechirib, ibodat qilardilar. G'amlagan ozuqalari tugagach, Xadicha oldiga qaytar, bu yerda biroz qolib, yana o'sha g'orga ketardilar. Manbalarda aytilishicha, payg'ambarlikning ilk belgisi sifatida u kishining quloqlariga g'oyibdan "Sen Allohning elchisisan" degan tovushlar eshitilardi, tushlarida ko'rgan narsalari to'g'ri chiqardi.

Milodning 610-yilida Ramazon oyida Muhammad (s.a.v.) odatga ko'ra, Hiro g'orida avvalgi o'tgan payg'ambarlardan Ibrohim, Muso, Iso kabi "tahannus" ibodati bilan mashg'ul bo'ladilar. Imom al-Buxoriy tomonidan bu ibodatga shunday sharh berilgan: "Payg'ambarimizning qaysi shaklda ibodat qilgani haqida so'raladigan bo'lsa, buning tafakkur va ibratdan iborat bo'lganligini aytamiz".

Payg'ambarlikning boshlanishi tushda ko'rilgan narsalarning o'ngda oydin bir subh kabi yuz berishi bilan boshlangan. Kunlarning birida Hiro g'orida farishta Jabroil (a.s.) ko'rindi va:

"O'qi", – dedi.

Payg'ambar:

"Men o'qishni bilmayman", – dedilar.

Farishta yana amrini takrorladi. Payg'ambar (a.s.) yana:

"Men o'qishni bilmayman", – javobini berdilar. So'ngra malak ularni boshdan oyoqqa qadar kuchlari qolmaguncha siqdi.

U zamon farishta ilohiy oyatlarni o'qiy boshladi:

“(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo‘lmish Rabbingiz ismi bilan o‘qing! U insonni lahta qondan yaratdi. O‘qing! Rabbingiz esa Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni) o‘rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o‘rgatdi” (“Alaq” surasi, 1-5 oyatlar).

“Alaq” surasining boshidagi ushbu oyatlar ilk kelgan vahiy hisoblanadi. Rasululloh bu oyatlarni o‘z qalblariga joyladilar. Shundan so‘ng bo‘lib o‘tgan voqeadan nihoyatda hayrat va qo‘rquvga tushib, darhol Xadichaning huzuriga qaytdilar va “Meni o‘rab qo‘ying, o‘rab qo‘ying” dedilar. Uzoq uyqudan so‘ng bo‘lgan voqeani ayollariga so‘zlab berdilar. Xadicha buni yaxshilikka yo‘yib, Varaqa ibn Navfal nomli avvalgi samoviy kitoblardan boxabar bo‘lgan qarindoshining huzuriga borib, bu voqeaning tafsilotini so‘radilar. Varaqa bu ko‘ringan farishta Muso va Iso payg‘ambarlarga vahiy olib tushgan “Nomusi Akbar”, ya’ni Jabroil farishta ekanini aytadi. U yana kelajakda Muhammad o‘z ummatiga payg‘ambar bo‘lishi, bu yo‘lda ko‘p aziyat chekishi, o‘z yurtidan chiqarilishi haqidagi xabarlarni bildiradi.

Shu voqeadan so‘ng ilk islomdagi “yashirin da’vat davri” boshlangan. Birinchi bo‘lib Rasululloh chaqiriqlarini qabul qilgan, ya’ni “ilk imon keltirganlar” – ayollari Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abi Tolib edilar. Ulardan so‘ng qullari Zayd ibn Horisa va bo‘lg‘usi qaynotalari Abu Bakr Siddiq bo‘ldilar. Ular jamiyatning turli tabaqalaridan ekanliklari islom dinining barcha uchun ochiq din ekanini ko‘rsatardi. Vaqt o‘tishi bilan jami musulmonlarning soni 30 kishiga yetdi. Ular qurayshliklarning yangi dinga qarshi ekanliklarini bilganliklari uchun o‘z e’tiqodlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi.

Shundan soʻng “oshkora daʼvat” davri boshlanadi. Bunga binoan, Muhammad (s.a.v.) Abdulmuttalib oilasini, amakilari Abu Tolib, Abbos, Hamza, Abu Lahablarning barchasini uylariga taklif etdilar. Ziyofatdan soʻng Allohdan yangi din vahiy qilinganini bildirib, unga barchani chaqirish Alloh tomonidan oʻz vazifalari etib belgilanganini aytdilar. Abu Lahab bu soʻzlarni qatʼiy inkor etib, yigʻilganlarni tarqatishga tushdi.

Islom dinini qabul qilmagan makkaliklar ham Muhammad paygʻambarning yuksak axloq egasi ekanini tan olar edilar. Musulmonlar safi kengayib paygʻambar amakilari Hamza, undan soʻng Umar ibn Xattobning imon keltirishlaridan makkaliklar sarosimaga tushib qoldilar. Ular musulmonlarga tazyiq oʻtkazishni yanada kuchaytirib yubordilar.

Makkaliklar Abdumanof urugʻini Abu Tolib darasiga qamal qildilar. Shundan soʻng ikki marta Habashistonga hijrat qilindi. Qamaldan soʻng Xadicha vafot etdi. Makkada “Isro va Meʼroj” voqeasi yuz berdi. Dushmanlar Paygʻambarni oʻldirish harakatiga tushdilar.

Madina davri. Madinaliklar Makkaga Paygʻambar huzuriga kelib islomni qabul qildilar. Ular bilan makkalik musulmonlar oʻrtasida doʻstlik aloqalari oʻrnatildi. Makka mushriklarining musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Paygʻambar koʻrsatmasiga binoan avval musulmonlar undan soʻng oʻzlari Yasribga hijrat qildilar.

Madinalik “ansor” (“yordamchi”)lar makkalik muhojirlarni doʻstona va samimiy kutib oldilar. Paygʻambarning hijrati Rabi al-avvalning 8 kuni – milodiy 622-yil 20-sentyabrda boʻldi. Shu yili birinchi musulmonlar masjidi qurildi. Avs va Xazraj arab qabilalari hamda Banu Qurayza, Banu Qaynuqo, Banu Nadir qabilalari bilan oʻzaro sulh tuzildi. Har tomondan

Madinaga qarshi hujumlar uyushtirildi. “Badr” jangida musulmonlar ularni muvaffaqiyat bilan qaytardilar.

Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim tarixiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Bu sulh bitimi tuzilishi arafasida Payg‘ambar 1500 sahoba jangchilar bilan, o‘q-yoy va nayzalar olmasdan, faqat qilich taqib, Baytu-l-haram ziyorati vaqtida qurbonlikka so‘yiladigan 70 tuyani haydab, Makka shahriga yaqin keldilar. Bu kichik qo‘shin Makka mushriklariga ko‘p ko‘rinib, ular musulmonlarni jang qilishga, urushga kelgan deb gumon qilib, shaharga kiritmadilar. Har ikki taraf bir necha bor elchilar almashib, vaziyatni tushuntirdilar. Musulmonlarning tinch maqsadda kelganiga ishonmasdan, Makka mushriklari urushga tayyorlanib turdilar. Ammo johiliya zamonlarida ham Baytu-l-haramda, ya’ni Ka’ba va uning atrofida jang qilish, qon to‘kish man qilingan edi. Bu qoidani yaxshi bilgan Payg‘ambar unga amal qilgan holda Usmon ibn Affon yetakchiligida navbatdagi elchilarni yubordi. Makka mushriklari bularni garovga, asir olganday qaytarib jo‘natmadilar. Musulmonlar ham Makka vakillarini vaqtincha ushlab turdilar.

Oradagi keskin vaziyatni yumshatish uchun Makka raislari Hudaybiya degan joyda 10 yillik sulh shartnomasi tuzishni taklif etdilar. Hudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi. Unda asosan quyidagi shartlar belgilangan edi:

1. O‘rtamizda dushmanlik tugatiladi, talonchilik va makr-hiylalarga yo‘l qo‘yilmaydi.

2. Istagan odamlar Muhammad bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo‘shilishni xohlasa qo‘shilaveradi, istagan odamlar qurayshiylar bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo‘shilishni xohlasa qo‘shilaveradi.

3. Sen (Muhammad) bu yil Makkaga kirmay qaytib ketasan, kelasi yili biz Makkadan chiqib turamiz va musulmonlar uch kun Makkada turishlari ixtiyoriydir. O‘sha vaqtda musulmonlarning qilichlari qinida bo‘lib, boshqa hech qanday qurol bilan kelmaydilar.

Shartnomaga musulmonlar jamoasi tarafidan Muhammad payg‘ambardan so‘ng Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Suhayl, Sa‘d ibn Abil Vaqqos, Muhammad ibn Maslama imzo chekdilar. Qurayshiylar tarafidan Suhayl ibn Amr, Miqroz ibn Hafs, Xuvaylid ibn Abdul Uzzo imzo chekdilar.

Hijratning sakkizinchi yili Makka fath etildi. Havozin, Saqif qabilalari bilan Hunayn janggi bo‘ldi. Mushriklarning Lot, Manot, Uzzo nomli butlari yo‘q qilindi.

632-yili Payg‘ambar (s.a.v.) hajga borishga qaror qildilar. Bu oxirgi haj bo‘lgani tufayli islom tarixida “Hajjatul vido” (“Vidolashuv haji”) deb nomlandi. Bu safarga 90 ming musulmon otlandi. Zul-hijja oyining to‘qqizinchi kuni Arafot tog‘ida Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan islom dinining asosiy shartlarini bayon etgan “Vidolashuv xutbasi” o‘qildi. Shundan so‘ng, deyarli barcha arab qabilalari islomni tan olib, elchi va maktublar yo‘llay boshladilar.

Hajdan Madinaga qaytgan Payg‘ambar (s.a.v.) biroz muddatdan so‘ng kasallikka chalilib, hijratning o‘n birinchi yili – 632-yil 9 iyunda (11-hijriy yil, 12-Rabiu-l-avval kuni) vafot etdilar.

Islom dini ta'limoti. Islomning asosiy manbasi bo'lmish Qur'oni karim VII asrda nozil bo'lgan. Muhammad (s.a.v.) avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar – Nabiy va Rasul deb tan olinadi.

Nabiy – arab tilidan tarjimasi “xabarchi”, “xabar yetkazuvchi” ma'nolarini beradi. Payg'ambarlar orasida ularga Alloh tomonidan alohida kitob va shariat nozil qilinmagan va avvalgi payg'ambarning kitob va shariatini insonlarga o'rgatib, targ'ib qilganlarni (Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Zakariyo kabi) nabiyalar deb ataladi.

Rasul – arab tilida elchi ma'nosini anglatadi. Alloh tomonidan alohida kitob va shariat berilgan payg'ambarlar rasullar darajasiga erishgan hisoblanadi. Masalan, Ibrohim, Muso, Iso kabilar. Ibrohimga yuzta sahifa, Musoga Tavrot va Isoga Injil nomli kitoblar nozil qilingan bo'lib, shu bilan birga o'zlariga xos shariat ham berilgan. Muhammad (a.s.) ham kitob va shariat berilgan payg'ambarlardan bo'lib, unga Qur'oni karim nozil qilingan va unda maxsus shariat berilgan.

Musulmon bo'lishning asosiy sharti imon keltirish hisoblanadi. “Imon” so'zining lug'aviy ma'nosi “ishonmoq”, “tasdiqlamoq bo'lib”, istilohda esa “La ilaha illallohu, Muhammadur rasululloh” (“Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad uning payg'ambari”) kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlashdan iborat. Imonning yetti sharti quyidagilar hisoblanadi:

1. Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya'ni Allohning Qur'oni karimda va Muhammad (a.s.) hadislarida bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish;

2. Farishtalar – Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so‘zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalari deb ishonish;

3. Ilohiy kitoblarga imon keltirish: Alloh taolo Muhammad (a.s.)ga Qur’onni yuborganidek, boshqa payg‘ambarlarga ham kitoblar yuborgan. Ulardan bizga ma’lum bo‘lganlari: Ibrohim (a.s.) “Sahifalari”, Muso payg‘ambarga berilgan “Tavrot”, Dovud payg‘ambarga berilgan “Zabur” va Iso payg‘ambarga berilgan “Injil” kitoblaridir;

4. Payg‘ambarlar – Alloh taolo tomonidan insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun yuborilgan elchilari, deb imon keltirish. Barcha payg‘ambarlar bir-birining ishlarini davom ettirgan bir zanjirning bo‘g‘inlari hisoblanadi. Qur’onda 25 payg‘ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg‘ambarlarning umumiy soni 124 ming ekani bayon qilingan;

5. Oxirat kuniga ishonish: dunyoning ibtidosi bo‘lgani kabi uning intihosi ham bor, bu dunyo – insonlar uchun sinov maydoni, bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud deb ishonish;

6. Taqdirga – insonga yetadigan yaxshilik va yomonlik Allohdan deb e’tiqod qilish;

7. O‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom ta’limotiga ko‘ra, qiyomat kuni bo‘lganda barcha insonlar qabrlaridan turadilar va mahshargoh maydoniga yig‘iladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do‘zax)ga mahkum etiladilar.

Islom dinining besh asosiy rukni bor: 1. Imon, ya'ni shahodat (arab. –guvohlik berish); 2. Namoz o'qish; 3. Zakot (arab. poklash, o'sish, ortib borish); 4. Ro'za tutish; 5. Haj – qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etish.

Qur'on va hadis – islom dinining manbalari. Qur'oni karim – Alloh taolo tarafidan 23 yil mobaynida Muhammad payg'ambarga oyat-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob hisoblanadi. Manbalarda berilishicha, “Qur'on” so'zi arabcha “qaraa” – “o'qimoq” o'zagidan olingan bo'lib, “O'qiladigan (kitob)” ma'nosini beradi deb talqin etiladi. Qur'on 114 sura (arab. – “bo'lak”, “devor”, “to'siq”) va 6236 ta oyatdan tashkil topgan. Uning “mo'jiza”, “belgi”, “alomat” kabi ma'nolari ham bor.

Makkada nozil bo'lgan Qur'on suralarining xronologik tartibi quyidagicha:

1. Makka davri (610-615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan “saj” janriga yaqin shakldagi suralar nozil bo'lgan. Yevropa olimlari ularga “Nazmiy suralar” deb nom berganlar.

2. Makka davri (616-619 yillar), Muhammad (s.a.v.) va ularning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchilik Habashistonga ko'chib ketgan muhitda nozil bo'lgan. Bu suralarda Allohning nomi “Rahmon” sifatida ko'p tilga olingani sababli Yevropa olimlari ularni “Rahmon suralari” deb ataganlar.

3. Makka davri (620-yil boshlaridan 622-yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad (s.a.v.) va uning izdoshlari ta'qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga

to‘planganlar. Bu davr suralarida islomning aqida va ta’limotiga keng o‘rin berilgani sababli, yevropalik tadqiqotchilar ularga “Payg‘ambarlik suralari” deb nom berganlar.

Madinada tushirilgan 24 ta suraning nozil bo‘lish davrini tarixiy voqealarni aniqroq ko‘zda tutgan holda besh bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi davr (622-yil oktyabrdan 624-yilgacha). Muhammad (s.a.v.) Madinaga ko‘chib kelganidan makkaliklar bilan birinchi yirik to‘qnashuv – Badr jangigacha o‘qilgan 4 sura bu davrga kiradi.

Ikkinchi davr (624-yil martidan 625-yil martigacha). Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o‘tgan bir yil ichida o‘qilgan 3 surani o‘z ichiga oladi.

Uchinchi davr (625-yil martidan 627-yil martigacha). Uhud jangidagi mag‘lubiyatidan keyin Xandaq jangigacha o‘tgan ikki yil ichida 5 ta sura o‘qilgan.

To‘rtinchi davr (627-yil apreldan 630-yil yanvarigacha). Xandaq jangidan so‘ng Makkaning olinishigacha o‘tgan salkam uch yil ichida o‘qilgan 8 sura shu davrga kiradi.

Beshinchi davr (630-yil fevralidan 632-yil mayigacha). Makka olinganidan keyin Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning vafotigacha o‘tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida o‘qilgan 4 ta sura shu davrga kiradi.

Muhammad payg‘ambar hayotlik chog‘larida yana vahiy tushib qolishi mumkinligi nazarda tutilib, Qur‘on jamlanib, kitob holiga keltirilmagan edi. Payg‘ambar (s.a.v.) vafotlaridan keyin Qur‘on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg‘ambardan so‘ng musulmonlarga Abu Bakr (r.a.) boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632-634 yillar) “murtadlik (dindan

qaytish) harakatlari” yuzaga keldi. Xalifa bu isyonchilarga qarshi shiddatli janglar olib bordi. Ushbu janglarda ko‘plab Qur’onni to‘liq yod olgan qorilar halok bo‘ldilar.

Umar ibn Xattob taklifiga binoan Abu Bakr (r.a.) Zayd ibn Sobit (r.a.) ismli sahobani chaqirib Qur’onni jamlab yozma holga keltirishni unga topshiradilar. Shunday qilib, Zayd va Umar mashaqqatli urinishlardan keyin Qur’onning ilk yozma nusxasini jamlashga erishdilar. Bu “suhuf” - sahifalar deb nomlandi. Abu Bakr Siddiq (r.a.) olamdan o‘tganidan keyin sahifalar Umar ibn Xattob (r.a.) (634-644 yillar) uyiga, u vafot etgach, uning qizi – Payg‘ambar (a.s.) ayollari Hafsada qoldi.

Vaqt o‘tishi bilan islom olamining hududlari kengayishi natijasida musulmonlarning soni ko‘paya bordi. Turli tillar va shevalar o‘rtasida mavjud farqlarga ko‘ra Qur’onni qanday o‘qish kerakligi borasida ixtiloflar chiqa boshladi. Bu holatni ko‘rgan xalifa Usmon ibn Affon Zayd ibn Sobitga barcha Qur’on suralarini yig‘ib, taqqoslab chiqib qaytadan Qur’on matnini jamlashni buyurdi. Qur’onning birinchi rasmiy nusxasi 651-yilda taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib yana uchta, ba’zi manbalarga ko‘ra yettita nusxa ko‘chirtirilib, yirik shaharlar – Basra, Damashq, Kufaga jo‘natiladi. “Imon” deb nomlangan asl nusxa esa Madinada, xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko‘chirilgan nusxalar “Mus’hafi Usmon” deb ataldi.

Usmon musxafi. Arab tarixchilarining xabar berishicha, 656-yilda xalifa Usmon Qur’onni mutolaa qilib o‘tirganlarida o‘ldirilgan. U kishining qoni Qur’onga to‘kilgan. Shu tufayli ham Usmon Qur’oni asl nusxaligi va xalifa qoni to‘kilgani bilan musulmon dunyosida alohida

e'tibor bilan qaraladi. Toshkent shahridagi Usmon Qur'onida ham qon izlari bo'lib, shu nusxa xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud.

Usmon Qur'oni Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xoja Ahror madrasasida saqlanar edi. Qur'onning Samarqandga keltirilishi haqida ham xalq o'rtasida har xil rivoyatlar mavjud.

Ko'pchilik olimlarning fikricha mazkur musxaf sohibqiron Amir Temur tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va mashhur Temur kutubxonasiga qo'yilgan. Bu fikrni Qur'onni chuqur ilmiy taftish etgan Sankt-Peterburglik sharqshunos olim A.V.Shebunin ham tasdiqlaydi. 400 yil davomida bu muqaddas kitob Samarqandda saqlanadi.

1868-yilda Rossiya askarlarining Samarqandga bostirib kirishi bilan xalqimizning moddiy, ma'naviy boyliklariga tajovuz boshlandi. Bu tajovuzdan qabr toshlari, maqbara ichidagi yodgorliklar ham, musulmonlar diniy e'tiqodining shohona mulki Usmon Mus'hafi ham chetda qolmadi. Musulmonlar Qur'onini tezlikda bekitib Buxoroga jo'natmoqchi bo'ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o'lkasining boshlig'i general Abramov qulog'iga yetib, "fan uchun bunday nodir, bebaho, qadimiy yodgorlikni qo'ldan chiqarmaslik uchun hamma chora ko'rilsin" deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur'onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston general-gubernatori K.N.Kaufmanga yetkazadi. U o'z navbatida zudlik bilan 1869-yil 24-oktyabrda Peterburgga – Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar bilan yuboradi.

Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To‘qumboev RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur‘oni o‘z egalariga, ya‘ni musulmonlarning O‘lka s‘ezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR (XKS – Xalq komissarlari soveti) tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur‘on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podsho kutubxonasining “nodir qo‘lyozmalar” bo‘limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U.To‘qumboev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo‘natiladi. Qur‘on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923-yil 23-iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo‘mi Usmon Qur‘onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvda olib kelinadi. Usmon Mus'hafi Toshkentdagi Eski shahar muzeyiga keltiriladi va maxsus po‘lat sandiqda saqlana boshlanadi. 1926 yilning 1 yanvaridan Eski shahar muzeyi O‘zbekiston davlat muzeyiga aylantirildi. Muzey ochilgandan so‘ng 1926 yilning faqat bir oyi ichida bu yerni 4000 kishi ziyorat qilgan.

Hadis. Hadis so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma‘nosi “so‘z”, “yangi”, “suhbat”, “hikoya”, “rivoyat” ma‘nolarini anglatadi. Uning istilohiy ma‘nosi Muhammad payg‘ambarning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari va taqriqlari, ya‘ni ko‘rib qaytarmagan va qo‘llab-quvvatlagan ishlaridir. Hadislar ikki qismdan: aynan xabar beruvchi matn va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – sanaddan iborat.

Hadis ikki xildir:

-al-hadis al-qudsiy (bu kabi hadisda, ma‘no Allohdan, lafz esa Payg‘ambardan bo‘ladi);

-al-hadis an-nabaviy (bunda esa, ma'no ham lafz ham Payg'ambarnikidir).

Hadislar ilk davrda faqat og'zaki ravishda avlodan-avlodga uzatilgan. Yozma ravishda hadislarni to'plamaslik haqidagi Payg'ambarning ko'rsatmalari asosan ilk islom davriga taalluqli edi. Payg'ambar (a.s.) o'z so'zlarini yozib olishdan sahobalarni qaytarishlariga sabab hadislarning Qur'on oyatlariga aralashib ketmasligi uchun edi. Chunki vahiy nozil bo'lib turgan paytda ba'zi kishilar Qur'on oyatlarini yozib borar edilar. Boshqa hadisda esa Payg'ambar (a.s.): "Bu og'izdan – deya o'z og'izlariga ishora qildilar – faqatgina haq so'z chiqadi" – deb, o'z so'zlarini yozib olishga buyurganliklari haqida rivoyat qilingan. Abu Dovud o'zining "Sunan" asarida ikki hadisni ketma-ket keltiradi. Ulardan birida Payg'ambar o'z so'zlarini yozib olishdan qaytargan bo'lsalar, ikkinchisida unga buyuradilar.

Hadis ko'pincha sunna so'zi bilan ham yonma-yon keladi. Sunna so'zining lug'aviy ma'nosi – "odat", "tariqa – yo'l" bo'lib, istilohiy ma'nosi – payg'ambar odatlari, tutgan yo'llari, taqdir (ko'rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, hadislarning zamirida sunna yotadi. Islom ta'limotida e'tiqod mezonlarini belgilash va fiqhiy masalalarni hal etishda Qur'ondan keyin sunnaga asoslaniladi.

IX asr asosan mavjud hadis to'plamlari qayta ishlagan holda ularni boblar bo'yicha tasnif qilib, musannaflar yozish davri bo'ldi. Bu esa hadislardan foydalanish uchun qulaylik tug'dirdi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi alohida e'tiborga molik sanaladi. Ular – eng katta obro'ga ega bo'lgan Imom Buxoriy (810-870) va Imom Muslimning (vaf.

875 y.) “Al-Jomi’ as-sahih” to‘plamlari, undan keyingi eng muhim asarlar – Abu Dovud, Termiziy (vaf. 892 y.), Nasoiy (vaf. 915 y.) va Ibn Mojaning (vaf. 886 y.) “as-Sunan” asarlaridir.

“Al-Jomi’ as-sahih” kitoblari o‘z ichiga biografik ma’lumotlar, Qur’on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini ham qamrab oldi. “Al-Jomi’ as-sahih”ning ishonchlilik darajasi boshqa to‘plamlardan ko‘ra ancha yuqori hisoblanadi.

Hadislar sahih (sog‘lom), hasan (yaxshi), daif (zaif) va saqim (kasal) turlarga ajratildi. Sahih hadislar roviylar darajalari bo‘yicha yetti xilga bo‘lindi:

- 1) Imom Buxoriy va Muslim keltirgan;
- 2) faqat Imom Buxoriy keltirgan;
- 3) faqat Imom Muslim keltirgan;
- 4) ikkala muhaddis ham keltirmagan, balki ularning shurutlari (shartlari) bo‘yicha rivoyat qilingan;
- 5) Imom Buxoriy shurutlari bo‘yicha rivoyat qilingan;
- 6) Imom Muslim shurutlari bo‘yicha rivoyat qilingan;
- 7) boshqa ulamolar tomonidan tasdiqlangan hadislar.

Hadislarni o‘rganish fani “Ulum al-hadis” (“Hadis ilmlari”) deb ataladi. Bu sohada ko‘plab asarlar yaratildi. Ular orasida eng avvalgi davrda yozilgan boshqalariga nisbatan har tomonlama mukammal hisoblangan asar Abu Muhammad ar-Romahurmuziyning (vaf. 360/971 y.) yetti jildli “al-Muhaddis al-fosil bayn ar-roviy va-l-voiy” (“Rivoyat qiluvchi va anglovchi orasini ajratuvchi muhaddis”) kitobidir. Undan keyingi o‘rinda Al-Hokim an-Nisoburiyning “Ma’rifat ulum al-hadis”, Ibn as-Salohning “Ulum al-hadis” nomli asarlari turadi. Bu fan hadislar

va roviylar tasnifi, sahoba va tobiiylarni bilish, hadislarni rivoyat qilish, yozib olish, ulardagi xatoliklarni to‘g‘rilash, sanadda kelgan birinchidan tortib oxirgi roviygacha yashagan yillarini o‘rganishdan iborat bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Islom ta’limoti va qoidalarining asosiy manbalari – Qur’on va hadislardan tashqari ikkinchi darajali manbalari ham mavjud. Ulardan biri ijmo bo‘lib, u Qur’on va hadis matnlarida aniq ko‘zda tutilmagan masalalar yuzasidan mashhur islom ulamolarining mazkur mo‘tabar manbalarga zid bo‘lmagan bir fikrga ittifoq qilishlarini bildiradi. VII asrning ikkinchi yarmidan yo‘lga qo‘yilgan ijmoning islom ahkomlarini bir me’yorda bo‘lishi hamda musulmonlar orasida turli ixtiloflar kelib chiqishining oldini olishdagi ahamiyati beqiyosdir.

Shuningdek, yana bir manba sifatida qiyos qabul qilingan bo‘lib, u ilk islomdan keyingi davrlarda vujudga kelgan, Qur’on yoki hadisda hukmi aytilmagan muammolarni avvalgi hukmlarga qiyoslab hukm chiqarish uslubidir. Bunda olimlar tarafidan mo‘tabar manbalar matnida o‘rganilayotgan muammoga o‘xshash masalalar tadqiq qilinadi. Shu asosda mantiqiy javob topilib, hukm qilinadi. Qiyos jamiyatda vujudga keluvchi turli muammolarni mantiqiy jihatdan oson hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Islom dinining paydo bo‘lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar?
2. Payg‘ambarlik va vahiyning talqini. Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi?

3. Hijrat va Madinada tashkil etilgan ilk islom davlatida boshqaruv shakli. Tavhid aqidasi. Islom dinining besh sharti?
4. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi?
5. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi?
6. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi?
7. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi?
8. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji?
9. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri?
10. Hozirgi davrda islom sivilizasiyasining ahamiyati?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Islom dini tarixi va mohiyati mavzusi yuzasidan test topshiriqlari

1. Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) ning Makkadan Madinaga hijratlari milodiy qaysi sanaga to'g'ri keladi?
 - A. 610
 - B. 620
 - C. 632
 - D. 622
2. Islom dinining Muqaddas kitobi nima deb ataladi?
 - A. Avesto
 - B. Qur'on
 - C. Tripitaka
 - D. Tavrot
3. Islomda ro'za necha kun tutiladi?
 - A. 70 kun
 - B. 33 kun
 - C. 30 kun
 - D. 40 kun
4. Islom dinining asosiy bayramlari qaysilar?
 - A. Pasxa, rojdestvo
 - B. Xatna, nikoh,
 - C. navro'z, mavlud
 - D. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti
5. Islom dini qachon paydo bo'ldi?
 - A. Milodgacha V asrda
 - B. Milodning I asrida
 - C. Milodning VII asrida
 - D. Milodning VI asrida
6. Islom dinida Xulofoi Roshidinlar ko'rsatilgan javobni toping?
 - A. Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali
 - B. Muhammad, Ali, Xasan, Xusan
 - C. Abu Xurayro, Ibn Hanbal, Ibn Xoshim
 - D. Ibrohim, Muso, Iso, Dovud
7. Qur'on suralari qanday qismlarga bo'linadi?
 - A. Katta va kichik
 - B. buyruq va qaytariq
 - C. tavhid va hukm
 - D. Makka va Madina suralari
8. Payg'ambarimiz (s.a.v.) bilan sodir bo'lgan qaysi voqeadan keyin shaytonning u zotda nasibasi qolmagan?
 - A. Katta va kichik
 - B. buyruq va qaytariq
 - C. tavhid va hukm
 - D. Makka va Madina suralari

- A. “Shaqqi sadr” voqeasidan keyin
- B. Tug‘ilishlari bilan
- C. Payg‘ambarlik berilishi bilan
- D. Isro va Me’roj hodisadan keyin.

9. Makka va Madina shaharlari joylashgan Hijoz deb ataluvchi mintaqa Arabiston yarimorolining qaysi qismida joylashgan?

- A. Sharqiy qismida
- B. G‘arbiy qismida
- C. Janubiy qismida
- D. Shimoliy qismida.

10. «Hadis» so‘zining lug‘aviy ma‘nosi?

- A. so‘z, xabar, yangi narsa;
- B. suxbat, munozara, so‘z;
- C. hikoya, munojat, qissa;
- D. munojat, duo, iltijo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 40 b.
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri). // O‘zbekistonning yangi Qonunlari. 19-son. – T.: Adolat, 1998.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon. –Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
7. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>.
8. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021.–128 b
Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent:

- «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
9. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. – Darslik. Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-499.
 10. Jalilov B. Dinlar falsafasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. – 148 b.
 11. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: «O‘FMJ» nashriyoti, 2018. – 304 b.
 12. Abu Xomid G‘azzoliy Kimyoi saodat//Ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim. 9 Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019.
 13. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik. o‘quv qollanmasi. –Toshkent: TDIU, 2019. – 180 b.
 14. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.
 15. Farfiyev B. O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizm omili.– Toshkent: O‘FMJ nashriyoti, 2019.
 16. Alimova M. Dinshunoslikni o‘qitishda interfaol uslublardan foydalanishning ahamiyati // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. III-to‘plam. Ilmiy- amaliy anjuman materiallari. – T.: TIU, 2011. – B.44-47.
 17. Alimova M. «Yangi dinlar» – modernizatsiya fenomeni sifatida // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: TIU, 2012. – B.41-43.
 18. Alimova M. Millatlararo va dinlararo totuvlikni ta‘minlashda O‘zbekistonning tarixiy tajribasi // Konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi. Xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. –Toshkent 2014 yil, 12 noyabr. – B.264-267.

19. Beruniy Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. Birinchi kitob. – T., 1973. – 590 b.
20. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968. – 486 b.
21. Vasilev L.S. Istoriya religiy Vostoka. Uchebnoye posobiye dlya vuzov. – 4-ye izd. – M.: «Knijniy dom «Universitet», 1999. – 432 s.
22. Vvedeniye v obsheye religiovedeniye: uchebnik / Pod red. prof. I.N.Yablokova. – M.: Knijniy dom «Universitet», 2001. – 576 s.
23. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – T.:TDIU, 2010. – 149 b.
24. Gorelov A.A. Istoriya mirovix religiy: uchebnoye posobiye / A.A.Gorelov. 2-izd., ispr. –M.: Flinta: MPSI, 2006. 360 s.
25. Davlat va din. O'quv qo'llanma/Tuzuvchilar: D.Rahimjonov, N.Ismatova, G.Xudayberganova, L.Alidjanova, O.Ernazarov.–Toshkent: Somplex Print, 2019. –136 b.
26. Dervish R.A., Lavteyeva L.G., Musakayeva A. Pamyatniki istorii religii i kulturi v Uzbekistane. Posobiye dlya fakultativa po istorii religii. – T.: Ukituvchi, 1994. – 80 s.
27. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari: o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir A.S.Ochildiyev; – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – B. 246.
28. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma / Muratov D., Alimova M., Karimov J., Najmiddinov J., Jo'rayev Sh. –Toshkent, 2019. – 286 b.

29. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma/mas’ul muharrir: I.Usmonov. – T.: TIU, 2013. – 319 b.
30. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T. : «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.
31. Dunyo dinlari tarixi. O‘quv qo‘llanma / Tuzuvchilar: S. Agzamxodjayev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – T.: ToshDSHI, 2011. – 262 b.
32. Yovkochev Sh.A. Politizatsiya religii i problema islamskogo ekstremizma v sovremennom mire: uchebnoye posobiye. – T.:TashGIV, 2003.
33. Zelenkov M.Yu. Mirovie religii: istoriya i sovremennost: uchebnoye posobiye. – Rostov na Donu: Feniks, 2008. – 364 s.
34. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi: Mutaxassislik fanidan o‘quv - uslubiy qo‘llanma. – T.: TIU, 2007. - 48 b.
35. Ibtidoiy dinlar va mifologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Somplex Print, 2019. – 102 b.
36. Islom va hozirgi zamon / O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: «Toshkent islom universiyeti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.
37. Islom manbashunosligi. O‘quv qo‘llanma. / J.Tohirov. – Toshkent: “Qaqnus media” nashriyoti, 2019. – 364 b.
38. Islom ma’rifati: asliyat va talqin: o‘quv-uslubiy qo‘llanma / Mas’ul muharrir Usmonxon Alimov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 158.

39. Islom ma'rifatida dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi / mas'ul muharrir O.Yusupov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 271.
40. “Islom tarixi” fani bo'yicha 570-661 yillarda sodir bo'lgan asosiy voqealar xronologiyasi. O'quv qo'llanma./ O'.Palvanov. – Toshkent: “Qaqnus media” nashriyoti, 2019. – 64 b.
41. Islom. Ensiklopediya: A-H /Z.Husniddinov tahriri ostida. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.2004. – 320 b.
42. Islomshunoslik qomusiy lug'ati / Mas'ul muharrir Z.M.Islomov. – T. I. – T.: Movarounnahr, 2013. – 272 b.
43. Islomshunoslik qomusiy lug'ati / Mas'ul muharrir Z.M.Islomov. – T. II. –T.: Movarounnahr, 2014. – 432 b.
44. Isoqjonov R. Islom falsafasi. – Toshkent: Somplex Print, 2019. – 192b.
45. Karomatov H.S. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: JIDU nashriyoti, 2008. – 663 s.
46. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K. 1. – T.: Yozuvchi, 1996. – 272 b.
47. Murodov D. Diniy manbalarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. 4-to'plam. – T.: «TIU» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012. – B. 44-47.
48. Muhamedov N. Dinshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati // Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda ilg'or pedagogik uslublardan foydalanish. Ilmiy-uslubiy materiallar to'plami. -Toshkent, 2009. - B. 34-37.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-mavzu. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	6
2-mavzu. Milliy dinlar.....	19
3-mavzu. Buddizm dini tarixi va asosiy g‘oyalari.....	56
4-mavzu. Xristian dini tarixi va asosiy g‘oyalari.....	76
5-mavzu. Islom dini tarixi va mohiyati.....	112
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	137

SOBIROV ZUHRIDDIN NAJMIDDIN O'G'LI

DINSHUNOSLIK

Uslubiy qo'llanma

Bosishga ruxsat etildi. 03.02.2026 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog'i 9, Adadi 50. Buyurtma № 21-02
Bahosi kelishuv asosida.

«ZUXRO BARAKA BIZNES» MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.